

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**«AGRANOMIYA DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI TURLARI  
BO'YICHA» YO'NALISHI**

**«DEHQONCHILIKDA RESURSTEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR»  
MODULI BO'YICHA**

**O'QUV USLUBIY MAJMUA**



**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2021 yil 25 dekabrdagi 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va  
dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** ToshDAU “Dehqonchilik va melioratsiya” kafedrasи  
q.x.f.n., dotsenti B.B.To‘xtashev tomonidan tayyorlandi.

**Taqrizchi:** O‘zbekistondagi KOPIA Markazi direktori,  
professor Sun Ho Choy

**O‘quv - uslubiy majmua TDAU Kengashining 2022 yil 11 yanvardagi  
6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI .....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>16</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>79</b>
<b>V. KO'CHMA MASHG'ULOTLAR.....</b>	<b>139</b>
<b>VI. KEYSALAR BANKI .....</b>	<b>153</b>
<b>VII. GLOSSARIY .....</b>	<b>155</b>
<b>VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>159</b>
<b>TAQRIZ.....</b>	<b>162</b>

## I.SHCHI O'QUV DASTURI

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Mazkur ishchi dasturda tinglovchilar tomonidan o'zlashtiriladigan dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining tomchilatib sug'orish bo'yicha farmonlari va uni ijrosi, suv resurslarini iqtisod qilishda va ulardan tejab foydalanishda suv tejovchi texnologiyalarning ahamiyati, tomchilatib sug'orishning qo'llash ko'lami, organik dehqonchilikda tuproq unumdarligini boshqarish asoslari, qishloq xo'jaligini GMO materilalaridan himoya qilish, tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal usullari va uning ahamiyati, kuzgi g'alla ekinlaridan bo'shagan dalalarga minimal ishlov berish, dala ekinlarni tuproqqa ishlov bermasdan ang'izga ekish, qishloq xo'jaligida GIS texnologiyasidan foydalanish borasidagi nazariy-uslubiy muammolar, tamoyillar, amaliy yechimlar, ilg'or davlatlarning tajribasi hamda meyoriy-huquqiy xujjatlarning mohiyati bayon etilgan.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**"Dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar" modulining maqsadi:** oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining tinglovchilarini dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar, resurstejamkor texnologiyalarga o'tishning zaruriyati, tomchilatib sug'orish va

uning afzalligi, O‘zbekiston Respublikasining tomchilatib sug‘orish bo‘yicha farmonlari va uni ijrosi, suv resurslarini iqtisod qilishda va ulardan tejab foydalanishda suv tejovchi texnologiyalarning ahamiyati, tomchilatib sug‘orishning qo‘llash ko‘lamni, tomchilatib sug‘orishda suv va resurs tejamkorlik, organik dehqonchilik va uning zaruriyati, organik dehqonchilikka o‘tish bosqichlari, organik dehqonchilikda tuproq unumdarligini boshqarish asoslari, qishloq xo‘jaligini GMO materialalaridan himoya qilish, tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal usullari va uning ahamiyati, kuzgi g‘alla ekinlaridan bo‘shagan dalalarga minimal ishlov berish, dala ekinlarni tuproqqa ishlov bermasdan ang‘izga ekish, Qishloq xo‘jaligida GIS texnologiyasidan foydalanish, GIS texnologiyasini ahamiyati, qisa rotatsiyali almashlab ekishning ahamiyati, begona o‘tlarga qarshi uyg‘unlashgan kurash tizimini ishlab chiqishda innovatsion yondashuvlar asosida sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan mahorat va kompetensiyalarini takomillashtirishdan iborat.

#### **“Dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar” modulining vazifalari:**

- dehqonchilikda resurstejovchi innovatsion texnologiyalar va ekinlarning hosildorligini oshirish bo‘yicha ushbu zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, takomillashtirish va rivojlantirish;
- O‘zbekiston Respublikasining tomchilatib sug‘orish bo‘yicha farmonlari va uni ijrosi, suv resurslarini iqtisod qilishda va ulardan tejab foydalanishda suv tejovchi texnologiyalarning ahamiyati masalalariga ilmiy yondashish, tinglovchilarda ijodiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish;
- organik dehqonchilik va uning zaruriyati, organik dehqonchilikka o‘tish bosqichlari, organik dehqonchilikda tuproq unumdarligini boshqarish asoslari, qishloq xo‘jaligini GMO materialalaridan himoya qilish;
- tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal usullari va uning ahamiyati, kuzgi g‘alla ekinlaridan bo‘shagan dalalarga minimal ishlov berish, dala ekinlarni tuproqqa ishlov bermasdan ang‘izga ekish, qishloq xo‘jaligida GIS texnologiyasidan foydalanish, erishilgan yutuq va innovatsiyalarini oliv ta’lim tizimiga tadbiq etgan holda muammolarni hal etish strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash.

#### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:**

**“Dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida**

### **tinglovchi:**

- dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalarni;
- qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalarning ahamiyati;
- tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal usullari;
- qishloq xo‘jaligida GIS texnologiyasidan foydalanishni;
- qisa rotatsiyali almashlab ekishning ahamiyatini **bilishi kerak.**

### **tinglovchi:**

- dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar;
- dala ekinlarni tuproqqa ishlov bermasdan ang‘izga ekish;
- sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalarni;
- hosilni GMO materilalaridan himoya qilish **kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.**

### **tinglovchi:**

- tuproqqa minimal ishlov berish usullari haqida;
- kuzgi g‘alla ekinlaridan bo‘sagan yerlarga ishlov berishni;
- qisqa rotatsiyali almashlab ekishning ahamiyati haqida;
- ekinlarni tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy etish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar borasida **malakaga ega bo‘lishi kerak.**

### **tinglovchi:**

- sug‘orishga tadbiq etilayotgan suv tejamkor texnologiyalarni;
- qisqa rotatsiyali almashlab ekishni;
- tuproq unumdorligini saqlash va oshirish mezonlarini;
- begona o‘tlarga qarshi kurashish usullarini
- tuproqqa ishlov bermasdan ang‘izga ekish **bo‘yicha kompetensiyalariga ega bo‘lishi zarur.**

## **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “O‘simlikshunoslikda innovatsion texnologiyalar” va “Agronomiyada zamonaviy ilmiy tadqiqot uslublari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagog kadrlarning umumiyligi tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## **Modulning oliy ta’limdagи o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining tomchilatib sug‘orish bo‘yicha farmonlari va uni ijrosi, suv resurslarini iqtisod qilishda va ularidan tejab foydalanishda suv tejovchi texnologiyalarning ahamiyati,

tomchilatib sug‘orishning qo‘llash ko‘lami, organik dehqonchilikda tuproq unumdorligini boshqarish asoslari, qishloq xo‘jaligini GMO materilalaridan himoya qilish, tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal usullari va uning ahamiyati, dala ekinlarni tuproqqa ishlov bermasdan ang‘izga ekish, qishloq xo‘jaligida GIS texnologiyasidan foydalanish borasidagi innovatsion yondashuvlar asosida yo‘nalishlari profiliga mos zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat</b>					<b>Ko‘chma mashg‘ulot</b>	
		<b>Hammasi</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>		<b>Jumladan</b>			
			<b>jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>			
1.	<b>Dehqonchilikda resurstejovchi texnologiyalar, ularning zaruriyati va ahamiyati.</b>	2	2	2				
2.	<b>Qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orishda tomchilatib sug‘orish va uning ahamiyati. Tomchilatib sug‘orish bo‘yicha Prezident qarorlari.</b>	4	4	2	2			
3.	<b>Tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal texnologiyalari va ularning qo‘llanilishi</b>	2	2	2				
4.	<b>Organik dehqonchilikda tuproq unumdorligini yaxshilash, saqlash va oshirish.</b>	6	6	2	4			
5.	<b>Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari va uni qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni.</b>	2	2		2			
6.	<b>Qishloq xo‘jaligida GIS texnologiyadan foydalanish.</b>	2	2		2			
7.	<b>Begona o‘tlarga qarshi uyg‘unlashgan kurash choralar.</b>	2				2		
8.	<b>G‘o‘za qator orasiga kuzgi bug‘doy ekishning resurtejamkor ishlab chiqish natijalari</b>	2				2		
	<b>Jami:</b>	<b>22</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	<b>4</b>		

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI:**

### **1-Mavzu: Dehqonchilikda resurstejovchi texnologiyalar, ularning zaruriyati va ahamiyati.**

Dehqonchilikdagi mavjud texnologiyalar haqida tushuncha. Resurs tejamkor agrotexnologiyalar o‘tishning zaruriyati. Resurs tejamkor agrotexnologiyalarning ahamiyati. Resurstejamkor texnologiyalarning qo‘llanish darajasi. Paxtachilik va g‘allachilikda resurstejovchi texnologiyalarni qo‘llanishi.

### **2-Mavzu: Qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orishda tomchilatib sug‘orish va uning ahamiyati. Tomchilatib sug‘orish bo‘yicha Prezident qarorlari.**

Tomchilatib sug‘orish va uning afzallikkabi. Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llash zaruriyati. Tomchilatib sug‘orishning afzallikkabi. Tomchilatib sug‘orish tizimida suv tejamkorlik. Tomchilatib sug‘orish tizimining resurstejamkorligi. Tomchilatib sug‘orishda mehnat unumdarligi va yerdan foydalanish samaradorligi. Tomchilatib sug‘orishning iqtisodiy samaradorligi.

### **3-Mavzu: Tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal texnologiyalari va ularning qo‘llanilishi.**

Tuproqqa ishlov berishning innovatsion texnologiyalari. Qator oralirga minimal ishlov berish. Yerga “0” ishlov berish. Tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal texnologiyalarining ahamiyati. Ushbu texnologiyalarni sohada qo‘llanilishi.

### **4-Mavzu: Organik dehqonchilikda tuproq unumdarligini yaxshilash, saqlash va oshirish.**

Tuproqdagi oziq elementlari va ularni o‘simganlik hayotidagi ahamiyati. Tuproq unumdarligini oshirishda organik o‘g‘itlarning roli. Kompost ishlab chiqarishning bosqichlari va usullari. Tuproq unumdarligini oshirishda sideratlarning roli va ahamiyati. Organik dehqonchilikda tuproq madaniyligi va uni yaxshilash tadbirlari. Go‘ng, mikrobiologik va mineral o‘g‘itlar.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI:**

### **1-Mavzu: Tomchilatib sug‘orishda suv sarfini hisoblash.**

Tomchilatib sug‘orishning ahamiyati..Tomchilatib sug‘orishda suv sarfi.

Tomchilatib sug‘orishning qo‘llanish ko‘lami.Tomchilatib sug‘orishda suv sarfini hisoblash.Sug‘orishda tomchilatib sug‘orishning afzallik va kamchiliklari.

## **2-Mavzu: Organik dehqonchilikka o‘tishning bosqichlari**

Fermerlar uchun yaxshi axborot ma’nbaini yartish tamoyillari. Organik ishlab chiqarishni tashkil qilish.Organik qishloq xo‘jaligiga o‘tish.Fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jalik ekinlarini turli xil pestitsidardan va GMO (genni o‘zgartirilgan organizmlar) materiallaridan himoya qilishFermerlarga GMO ni yuqtirish xavfini kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar:

## **3-Mavzu: Organik chiqindilardan kompost ishlab chiqish.**

Organik qishloq xo‘jaligi-qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish.Atrof-muditga zarar keltiradigan kimyoviy vositalardan foydalanmaslik. Ekologik sof maxsulot ishlab chiqarish tizimi. Organo-mineral kompostlar tayyorlash. Organik o‘g‘itlarning miqdori va nisbatlarini belgilash.

## **4-Mavzu: Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari va uni qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni.**

Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimi.Qisqa navbatli almashlab ekish tizimlarini dehqonchilikka joriy qilish.Almashlab ekish tizimlari- qishloq xo‘jalik ekinlaridan mo‘l hosil olishning garovidir.Qisqa rotatsiyali almashlab ekish dalalarida tuprokning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari.

## **5-Mavzu: Qishloq xo‘jaligida GIS texnologiyadan foydalanish.**

GIS texnologiyaning ahamiyati. Qishloq xo‘jaligida GIS texnologiyalarni qo‘llash. Geografiya axborot tizimlari. Texnologiyalar qadimdan rivojlanib kelayotgan **geografiya, geologiya, geodeziya, kartografiya kabi** fanlarga ta’siri. Ushbu fanlarning tajribasi, ana’nalari, g‘oyalariga tayanib yangi vujudga kelayotgan fan va texnologiyalar o‘z navbatida ularning rivojlanishiga ham hissa qo‘shmoqda.

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI:**

### **1-Mavzu: Begona o‘tlarga qarshi uyg‘unlashgan kurash choralar.**

Begona o‘tlarga qarshi uyg‘unlashgan kurash choralarini ishlab chiqish. G‘o‘za, kuzgi bug‘doy bug‘doy va takroriy ekinlar hamda sabzavot ekinlari orasida uchraydigan begona o‘t turlari bilan tanishuv. Ekin maydonlarida begona o‘tlar tarqalishini aniqlash usullari. Begona o‘tlarga qarshi kurash choraları (agrotexnik, kimyoviy va uyg‘unlashgan).

## **2-Mavzu: G‘o‘za qator oralariga kuzgi bug‘doy ekishning energiya-resurs tejamkor texnologiyasini ishlab chiqish natijalari.**

Fo‘za qator orasiga kuzgi bug‘doy ekishda yer tayyorlash.G‘o‘za qator orasiga bug‘doyni qatorlab ekish qurilmasi va uni afzalliklari.G‘o‘za qator orasiga kuzgi bug‘doy ekishda yer tayyorlash.

### **Ko‘chma mashg‘ulotni tashkil etish:**

**1.** Tinglovchilar mashg‘ulotni o‘zlashtirish jarayonida 2 ta ishlab chiqarish ob’ektiga borib u xo‘jalikda begona o‘tlarga qarshi uyg‘unlashgan kurash choraları va g‘o‘za qator oralariga kuzgi bug‘doy ekishning energiya-resurs tejamkor texnologiyasini ishlab chiqish natijalarini qanday tashkil etilganligi bilan tanishadilar.

**2.** Mazkur fermer xo‘jaligidagi g‘o‘za va g‘alla ekilgan dalada bo‘lib,begona o‘tlarga qarshi (agrotexnik, kimyoviy va uyg‘unlashgan).kurash choraları qanday tashkil etilganligi bilan va uning natijaları bilan tanishadilar.

**3.** Ikkinci fermer xo‘jaligida g‘o‘za qator oralariga kuzgi bug‘doy ekishning energiya-resurs tejamkor texnologiyasini qanday tashkil etilganligi bilan va uning natijaları bilan tanishadilar.

### **4. Ko‘chma mashg‘ulot tashkil etiladigan manzil:**

- 1.Toshkent viloyati Qibray tumani “A.Navoiy” f/x.
2. Toshkent viloyati O‘rtta Chirchiq tumani “Kelajak tuhfasi-2019” f/x.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

**Interfaol metodlar** –ta'lism oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lism jarayonining markazida ta'lism oluvchi bo'lgan metodlardir.

Har bir mavzu bo'yicha "FSDU" (fikr, sabab, dalil, umumiylilik) texnologiyasi asosida nazariy amaliy mashg'ulot o'tkazish.

Mazkur texnologiya munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishga yordam beradi. Bu texnologiyaga asosan tinglovchila o'z fikrini ochiq va erkin bayon etishga, uni himoyalashga hamda bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu texnologiyani 2 xil tarzda qo'llash mumkin:

- A) Yakka tartibda
- B) Jamoa bo'lib

Bu texnologiyaga asosan tinglovchilarga tarqatilgan qog'ozlarga o'z fikrini aniq ifoda etib dalillar bilan tasdiqlab hamda inkor etuvchi fikrlarni bayon etishlari bilan izohlanadi: Bu quyidagicha ko'rinishga ega:

Mavzu: "Tuproqqa ishlov berishning innovatsion-minimal texnologiyalari..

Tinglovchia (jamoja) Norbekov S. , mustaqil tinglovchi

*Fikringizni bayon qiling*

S\* Tinglovchi javobini yozadi

*Fikringizni bayoni sababini ko'rsating*

D\*Tinglovchi fikrini asoslaydi

*Ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring*

*Fikringizni umumlashtiring*

Yuqoridaq usul yakka tartibda o'tkazish: ushbu texnologiyani ikkinchi ko'rinishda o'tkazish guruh teng ishtirokchilardan iborat bo'lgan kichik guruhlarga bo'linadi.

Har bir guruhsda o'qituvchi avvaldan tayyorlab kelgan katta formatdagi "FDSU" texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi.

Davracha o'qituvchi mavzuga oid yoki fanga oid muammoni tashlaydi. Har bir guruh ushbu muammoga umumlashtirilgan fikrni bayon etib, uni himoya etadi. Laboratoriya mashg'ulot olib borilayotgan har bir guruhsda ushbu pedagogik

mahoratning barcha tamoyillarini o‘zida mujassam etgan interfaol usulni qo‘llash va mazmunli o‘tkazish uchun 15-20 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu usulda mavzuning mohiyatini qamrab oladigan savollarning to‘g‘ri va aniq tanlanishi samarali mashg‘ulot olib borishga asos bo‘lib hisoblanadi.

Bu usul har bir texnologiyaning mohiyatini anglash, topqirlik xususiyatlarni shakllantirish, eng maqbul usullarni ajratish fazilatlarni shakllantiradi.

Tomchilatib sug‘orishning xususiyatlari. Taxlili	
Tomchilatib sug‘orishning salbiy tomonlari:	Tomchilatib sug‘orishning ijobiy tomonlari:

### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni

o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, mustaqil ish mavzularini bajarishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



Ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

#### **Namuna:**

**Fikr:** Organik dehqonchilikka o‘tishning zaruriyati va ahamiyati?

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling topshirig‘i beriladi, tinglovchilar tomonidan bildirilgan ma’lumotlar umumlashtiriladi.

#### **“Insert” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda “**Dehqonchilikda zamonaviy resurstejovchi texnologiyalar**” bo‘yicha axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>	<b>4-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.				
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.				
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.				
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?				

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalgalashtirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna: Jadvalga kerakli ma’lumotlar to‘ldirib qayd etiladi**

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘srimcha ma’lumot

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘srimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-Mavzu:Dehqonchilikda resurstejovchi texnologiyalar, ularning zaruriyati va ahamiyati.**

**Reja:**

**1.1.Dehqonchilikdagi mavjud texnologiyalar haqida tushuncha.**

**1.2.Resurs tejamkor agrotexnologiyalar o‘tishning zaruriyati.**

**1.3.Resurs tejamkor agrotexnologiyalarning ahamiyati.**

**1.4.Resurstejamkor texnologiyalarning qo‘llanish darajasi.**

**Tayanch so‘zlar;** Dehqonchilik, yetishtirish texnologiyasi, resurstejamkor texnologiyalar, hosildorlik, samaradorlik

**1.1. Dehqonchilikdagi mavjud texnologiyalar haqida tushuncha.**

O‘zbekiston qishloq-xo‘jaligi, jumladan dehqonchiligi o‘tgan asrning 70-80 yillarida shakllangan, birgina xom-ashyo yetishtirishga asoslangan va tayangan dehqonchilik bo‘lib, asosan paxta xom-ashyosi ishlab chiqarishga qaratilganligi bilan farq qilar edi.Ushbu yillarda respublikaning butun ekin maydonining qariyib 70-80 % paxta yetishtirilar edi. Paxta yetishtirish asosan qo‘l va mexanizatsiga suyangan holda amalga oshirilib, yerga ishlov berishdan paxta xom-ashyosini terib olgunicha bo‘lgan davrdagi texnologiyada eng ko‘p mehnat qo‘l kuchiga asoslanar edi. Yerga ishlov berish, sug‘orish, g‘o‘zani parvarish qilish, o‘simglik kasalliklari va zarakunandalariga qarshi kurashish, begona o‘tlarni yo‘qotishva boshqa tadbirlar eski ekstensiv(ko‘p qo‘l kuchiga asoslangan) tizim asosida amalga oshirilar edi.

Qabul qilingan har qanday texnologiya zamirida kam mehnat va ishchi kuchlarini sarf etib yuqori va sifatli mahsulot yetishtirish asoslari yotadi.Xalq xo‘jaliginig boshqa sohalaridagidek qishloq xo‘jaligi sohasi ham bundan mustnasno emas.Har bir jamiyatdagi ishlab chiqarish mavjud texnologiyalarga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Dehqonchilikda qabul qilinadigan har qanday texnologiya asosini kam xarajat, yuqori samaradorlikka erishi omillari tashkil etadi.

Respublika dehqonchiligida shakllanib kelgan mavjud bo‘lgan texnologiyalarni quyidagilarga bo‘lamiz.

-ibridoiy dehkonchilik. Bu eng qadimgi dehkonchilikdan boshlanib, XIX asr oxirigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr davomida dehqonchilik juda sekin rivojlandi ;

-ekstensiv dehkonchilik. Bu tehnologiya XIX asrning ohiridan XX asrning 70 yillarigacha davom etdi. Bu texnologiyalarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirish yangi yerlarni ochish, ko‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish xisobiga oshirildi;

-intensiv texnologiya. Bu texnologiya XX asr o‘rtalaridan XXI asr boshlarigacha davom etdi. Bu texnologiyada qishloq xo‘jalik ekinlar hosildorligi oshirish fan va texnika yutuqlarini ko‘llash, qishloq xo‘jaligini kemyolashtirish, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish xisobiga erishildi. Biroq, ko‘pgina hollarda intensiv texnologiyaning ko‘llanishi atrof muxitga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Tuproqning meliorativ holati yomonlashdi, mahsulot sifati pasaydi va boshqalar.


**Texnologiya so‘zi–qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib “san’at, mahorat, bilish“ degan ma’noni anglatadi. Texnologiyaning asosan 4 ta turi mavjud:**

1.An’anaviy texnologiya-odatdagi uzoq yillardan beri qo‘llanib kelinayotgan, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan texnologiyaga aytildi;

2.Ekstensiv texnologiya-qo‘srimcha mablag‘, yer va ishchi kushi resurslari hisobiga yalpi hosilni oshirishga qaratilgan texnologiya (yangi qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish);

3.Intensiv texnologiya-ilm fan yutuqlari, qishloq xo‘jaligini ximiyalashtirish, avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish xisobiga ekinlar hosildorligini oshirish;

4.Zamonaviy texnologiya-energiya va mablag‘ tejovchi, yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan, ekologik bezarar, mahsulot sifatini yahshilashga olib keladigan texnologiyalar.



### **1-Rasm.O'simlik hayot omillari (yorug'lik,issiqlik,suv,ozuqa,havo)**

Dehqonchilik faninig asosiy vazifalaridan biri bu o'simliklar uchun ushbu hayot omillarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratib berishdan iboratdir.O'simliklarning normal o'sib rivojlanishi uchun ushbu hayot omillari aslida tabiat tomonida yaratilgan desak yanglishmaymiz. Ammo ular o'simliklarning o'sish va rivojlanish davrida bir xil darajada yetarlik deb bo'lmaydi.Ushbu hayot omillarini o'simliklar uchun qulay holatga keltirib berish dehqonchilik fanining vazifasidir.Bunga asosan fan va ilg'or texnologiyalarga asoslangan holda erishiladi.Masalan. urug'ni unib chiqish davrida tuproqda harorat yuqori bo'lishi kerak, afsuski bahorda ko'p joylarda tuproqda harorat pastligi uchun urug' chirib ketadi.Tuproq haroratini ko'tarib berish dehqonchilikda qabul qilingan texnologiyaga bog'liq.Bunday holda harorat pastligini tuproq sirtiga pylonka yopish yoki mulchalash yo'li bilan amalga oshirish mumkin.Bunday misollarni juda ko'p keltirish mumkin.

### **1.2.Resurs tejamkor agrotexnologiyalar o'tishning zaruriyati.**

Respublika qishloq xo'jaligidagi xorijning ilg'or texnologiyalari kirib kelishi bilan juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda tuproqqa ishlov berishdan tortib hosilni yig'ishtirib olishgacha bo'lgan jarayonlar butkunlay boshqacha tus oldi. Qishloq xo'jalikda uzoq yillardan beri sinalgan tuproqqa chuqur ishlov berish tushunchasi endi mazmun jihatida boshqacha tus

oldi. Tuproqqa ishlov berish mashina va mexanizmlarini o‘zgarishi, yoqilg‘i moylash materiallari, elektr energiyasi ta’minoti, urug‘lik materiallari va. boshqa xom-ashyolarning qimmatlashishi endilikda resurstejamkor-innovatsion texnologiyalarni kirib kelishini talab etmoqda. Bu esa innovatsiyaning tub maqsadini bildiradi. Endilikda qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda innovatsiya o‘z oldiga aniq vazifalarni belgilab qo‘ydi.

So‘ngi yillarda, Respublika aholisini turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan islohotlarning izchillik bilan davom ettirilayotganligi, qisqa muddatda o‘z samarasini ko‘rsatmoqda desak hato qilmagan bo‘lamiz. Dala ekinlaridan yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishda resurstejamkor zamonaviy ilg‘or yetishtirish texnologiyalar qo‘llash bugungi kunda dolzarb vazifalardan bo‘lib hisoblanadi. Shu o‘rinda qishloq –xo‘jaligidagi texnologiyalar haqida ikki og‘iz so‘z. Bugungi kunda xalk xo‘jaligining barcha sohalarining rivojlanishi, eng avvalo bu sohada fan va texnikaning so‘ngi yutuqlari va yangi texnologiyalarni qo‘llanishiga bog‘liq.



**1.2-Rasm.** Makkajo‘xonini tuproq ostiga ko‘milgan quvurlar orqali tuproqning yuqori qismini, ya’ni o‘simlikni ildiz tizimi joylashgan qatlamin namlatishga asoslangan texnologiya asosida sug‘orish tizimi. Yangi texnologiyadan bir ko‘rinish.

Bu sug‘orishni tuproq ostidan sug‘orish texnologiyasi deyiladi. Bu texnologiyada o‘simlikni suv bilan ta’minlash tizimi tuproqning 40-45 sm.lik qatlamida yotqizilib chiqiladi va har bir quvurning atrofida quvurni loyqa bosib

teshiklarini berkitib qo‘ymaslik uchun 5-7 sm.lik qum yoki shag‘al bilan tuproqdan himoya qilinadi, ya’ni teskari drenaj hosil qilinadi.



### 1.3.-rasm.Erga ishlov berishning an'naviy,tejamkor va zamonaviy texnologiyalari.

**Qishloq xo‘jaligida resurstejovchi innovatsion jarayonlar asosan quyidagi yo‘nalishlarga qaratilishi kerak:**

- dehqonchilikda hosildorlikni oshirish asosan tuproq unumdorligini doimiy oshirib borishga;
- qishloq xo‘jalik ekinlarini hosildorligini va sifatini yaxshilashga;
- degradatsiya jarayonlarini olini olish, tabiatga zarar yetkazmagan holda ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish;
- maqsulotlarini yetishtirishda tabiiy omillarga nisbatan kamroq ta’sirlanuvchi va energiya resurslarni tejashta;
- sug‘oriladigan va melioratsiyalangan yerlardan unumli foydalanish samaradorligini oshiruvchi;

- mablag‘ va mehnat sarf xarajatlarni kamaytiruvchi;
- ilg‘or resustejamkor texnologiyalarni qo‘llash;
- arzon, bozor talabiga javob beradigan, sifati bo‘yicha raqobatdosh mahsulot yetkazib berish omillarini yaratish;
- tabiatni saqlash va buni o‘rab turgan olamni eqologik holatini yaxshilash

### **1.3.Resurs tejamkor agrotexnologiyalarning ahamiyati**

O‘zbekistonda boshqa sohalarda bo‘lganidek, qishloq xo‘jaligi sohasida ham ishlab chiqarishda tannarxni kamaytirib, daromadni oshirish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Fermer ham boshqa ishbilarmonlar kabi ko‘proq daromad olish uchun mahsulot tannarxini kamaytirish choralarini izlaydi. Biroq har doim ham buning iloji bo‘lmaydi.

Birinchidan: butun dunyodamahsulotning tannarxiga nisbatan yonilg‘i narxi tez sur’atlarda oshib bormoqda-qishloq xo‘jalik mahsulotlarinin ishlab chiqarishda esa yonilg‘i muhim omil hisoblanadi, chunki yerga ishlov berishda turli texnika vositalaridan unumli foydalanish juda muhim ahamiyatga ega.

Texnikaga esa ayni mavsum paytida tanqis bo‘lib qoladigan yonilg‘i zarur.

Yonilg‘ig‘a talab yuqoriligi hamda uning tanqisligi narx keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxining ham keskin suratlarda oshishiga olib kelmoqda.



#### **1.4-Rasm. Dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar bazasida organik paxta yetishtirish jarayonidan ko‘rinish.**

Shunday qilib, har bir fermer olayotgan hosilni yetishtirishda qanday qilib imkon qadar kamroq yonilg‘i sarflash, yuqori hosil olish uchun ajratilayotgan suvning isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasdan, undan oqilona foydalanish, uzoq yillar davomida bir xil yuqori hosil olib turish uchun tuproq holatini qay tariqa yaxshilash borasida bosh qotirishlari talab etiladi.

Bu kabi dolzarb muammolarning yechimi mavjud va bunday yechim butun dunyoda keng tarhib qilinmoqda.

Bu usul - tuproq holatini himoyalashga qaratilgan texnologiyalarga o‘tish usuli. So‘nggi 20 yil davomida dunyo bo‘yicha haydaladigan yerning 10 foizi yoki 125000000 hektar (2012 yil holatga ko‘ra) yerda shu amaliyot qo‘llanildi va bu raqam yildan-yilga oshib bormoqda.

Jahon miqyosida hanuz davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jiddiy ta’siriga qaramasdan, dunyoning kamdan-kam davlatlarida kuzatilayotgan bunday yuqori o‘sish sur’atlarining qo‘lga kiritilganligi, biz tanlagan bosqichma – bosqich rivojlanish yo‘lining naqadar to‘g‘riligidan va iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligidan dalolatdir.

Dunyo hamjamiyatida “O‘zbek modeli” deb nom qozongan, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo‘li naqadar to‘g‘ri ekanligi bugun hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda [1].

Kuzgi bug‘doy hosildorligi gektaridan o‘rtacha 55 s ni, ilg‘or fermer xo‘jaliklarida bu ko‘rsatkichni 75-85 va hatto 100 s gacha yetkazishga muvaffaq bo‘lindi [2].

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga resurs tejamkor texnologiyalarni to‘la joriy etilishi,

yonilg‘i sarfini 20-22 foizga,

urug‘lik sarfini paxtachilikda gektariga 30-35 kg/ga

g‘allachilikda 60-70 kg/ga tejash imkonini beradi [3]



Расм 1. Тупроққа юза ишлов бериш куроли-чизелкультиватор



Расм 2. Тупроққа юза ишлов бериш куроли-доминатор

### **1.5-Rasm. Yerga ishlov berishdagи resurstejamkor texnologiyalar.Yuqorida tuproqqa yuza ishlov berish mexanizmi-chizelkultivator.Pastda- tuproqqa yuza ishlov berish mexanizmi-dominatori.**

**Izoh:**Chizelkultivator yengil va o‘rta mexanik tarkibli qumoq yerkirada yuza ishlov berish uchun mo‘ljallangan va ishlov berish chuqurligi 12-15 sm. Dominator -barcha tuproqlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ayniqsa yerlar kesakli yoki haydash jarayonida ko‘p palaxsalar hosil bo‘lgan yerkirada mo‘ljallangan.

Resurstejavchi texnologiya, so‘ngi yillarda eng ko‘p ishlatalayotgan terminlardan biriga aylandi. Resurstejavchi texnologiyaning asosiy ta’lablaridan biri-ekologik muvozanatni saqlash, maxsulot tannarxini pasaytirish va maxsulot sifatini yahshilashdan iborat.

Bugungi kunda resurstejavchi texnologiyaning asosiy vazifalaridan biri-energiya va mablag‘ tejovchi texnologiyalar ishlab chiqish va uni joriy etishdan iborat. Noan’anaviy resurstejovchi dehqonchilikni ma’lum darajada zamonaviy texnologiyaning tarkibiy kismi deb qarashimiz mumkin. Har ikkalasining maksad va vazifalarida juda ko‘p o‘xshashliklar mavjud. Zamonaviy texnologiya ham, noan’anaviy dehkonzilik ham nisbiy tushuncha, chunki kechagi kungi eng yangi, zamonaviy texnologiyalar ertagi kunga kelib eskiradi va odatdagi texnologiya xisoblanadi. Kechagi kunda noan’anaviy xisoblangan texnologiyalar , ishlab chiqarishda keng joriy etilsa adatdagi hol bo‘lib xisoblanadi.

Resurstejamkor dehkonzilik nima? Bu texnologiyaga kanlay texnologiyalar misol bo‘la oladi? Bu savollarga bir og‘iz so‘z bilan javob berish qiyin. Noan’anaviy dehkonzilik to‘g‘risida aniq bir andoza ham mavjud emas. Bu tushunchani har kim har xil tushunishi mumkin. Muximi uning noan’anaviyligida emas, balki dehqon va fermer xo‘jaliklari tomonidan tan olinishi va ishlab chiqarishga joriy etilishida.

Bugungi kunda qishloq jo‘jaligining barcha sohalarida noan’anaviy usullarga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, tomchilatib sug‘orishni, ang‘izga ekish, bargdan oziqlantirish, bir qancha ekinlarni aralash ekish, qishlovchi va oraliq ekinlarni ekib yetishtirish, biotexnologiya usullarini joriy etish va hakazo.

Shu o‘rinda resurs tejamkor zamonaviy texnologiya deb yonilg‘i,energiya manbalari, xom-ashyo, materiallar, texnika vositalari, suv va boshqa resurslarni (ishchi kuchi) minimal darajada sarflab,mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan texnologiyalarga **resurs tejamkor** texnologiyalar deyiladi.

#### **1.4.Resurstejamkor texnologiyalarning qo‘llanish darajasi.**

Ma’lumki bugungi kunda respublikamizda qishloq xo‘jalik ekinlari asosan sug‘oriladigan sharoitda yetishtirilib, 1 ga ekin maydoniga o‘rtacha 9-10 ming m<sup>3</sup>/ga suv sarflanadi. Isroil davlatida dehkonzilikda tomchilatib sug‘orish usuli keng joriy etilgan bo‘lib, 1 ga maydonga o‘rtacha 3-3,5 ming m<sup>3</sup>/ga suv sarflanadi. Qishloq xo‘jalik ekinlar hosildorligi esa izdagiga nisbatan kariy 2-2,5 marotaba yuqori. Demak, tomchilatib sug‘orish joriy etilganda foydali ish koeffitsienti

kamida 5-6 marotaba ortadi. Ya’ni, umumiy sug‘oriladigan ekin maydonlari kamida 3 marotaba, ekinlar hosildorlik 2-3 marta ortadi.

Intensiv texnologiya, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish, tuproq qa chukur ishlov berish natijasida sug‘oriladigan maydonlarda yokilg‘i moylash materiallari uchun ketadigan sarf xarajatlar keskin ortib ketdi. Ko‘pchilik hollarda 1 ga maydonga 200 litr va undan ham ortiq miqdorda yokilg‘i moylash materiallari sarflanmoqda. Bunday holat mahsulot tannarxining ortib ketishiga olib kelmoqda.

Maxsulot tannarxini kamaytirish uchun tuproqqa ishlov berishni minemallashtirish, ang‘izga ekish usulini joriy etish lozim. So‘ngi yillarda AQSh, Braziliya, Xindiston, Avstraliya va shu singari juda ko‘plab davlatlarda tuproqqa ag‘darmasdan yuza ishlov berib, ang‘izga ekish usulini ko‘llash toboro keng joriy etilib bormoqda. Bu texnologiyani joriy etilishi avzalliklari kuyidagilardan iborat:

- yokilg‘i, moylash materiallari sarfi 2-marotaba marotaba kamayadi;
- suv sarfi 30% ga kamayadi;
- urug‘larni qisqa muddatlar davomida ekib undirib olish imkoniyati vujudga keladi;
- tuproq yuza qismining minemal buzilishi;
- tuproqning yuza qismida o‘simglik koldiqlari saqlanib qoladi.

Bu texnologiyani joriy etishda bir kator avzalliklar bilan bir katorda ayrim muammolar ham mayjud. Masalan, begona o‘tlarning ko‘payib ketishi. Ayniqsa bu muammo, sug‘oriladigan dexkonchilik sharoitida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu tufayli bu usul begona o‘tlardan nisbatan toza maydonlarda, shuningdek gerbesinlarni ko‘llash bilan birga aalga oshirish maqsadga muvofiq.

Tuproqqa ishlov berishni minimallashtirish sarf xarajatni sezilarli kamayishini ta’minlaydi, maxsulot tannarxini masaytiradi. Tuproqqa ishlov berishni minemallashtirishning bir necha usullari mavju. Bu usullar kuyidagilardan iborat:

- 1) tuproqqa kompleks ishlov bernish, ya’ni bir nechta agrotexnik tadbirlarni bir vaqtning o‘zida amalga oshirish;
- 2) Tuproqni ag‘darmasdan asosiy ishlov berish, ya’ni yuza ishlov berish;
- 3) Qishloq xo‘jalik ekinlarini shudgorsiz ang‘izga ekishni joriy etish;

Qishloq xo‘jaligida sarf harajatlarni kamaytirishning eng oddiy usullaridan biri tuproqqa ishlov berishni kam aytirish. Bunda bir nechta agrotexnik tadbirlar bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki resurstejabkor texnologiyalarga yaqqol misol qilib tuproqqa shudgorsiz ishlov berish, hamda tuproqqa kompleks ishlov berish texnologiyalarni misol keltirishimiz mumkin.

Tuproqqa shudgorsiz yuza ishlov berilganda, asosiy ishlov uchun sarflanadigan yoqilg‘i sarfining sezilarli kamayishi bilan bir katorda erta bahorgi dastlabki ishlov uchun sarflanadigan yokilg‘i sarfi ham sezilarli kamayadi. Chunki tuproqqa yuza ishlov berilganda tuproq yuzasida yirik kesaklar, shuningdek sval va rasvallar bo‘lmaydi. Natijada yerni tekislash uchun ketadigan xarajatlar keskin kamayadi.

Bundan tashqari shudgorlash uchun katta miqdorda yokilg‘i sarflaydigan kuchli, og‘ir traktorlar talab etiladi. Yuza ishlov berilganda esa o‘rtacha



**1.6-rasm. Kuzgi bug‘doy ang‘iziga ekilgan soya (Resurstejovchi yoki noan’anaviy ekish usuli).**

Ang‘izga ekish usulini ko‘llash ayniqsa bug‘doydan bo‘shagan maydonlarda takroriy ekin sifatida makkajo‘xori va dukkakli don ekinlari ekilganda katta iqtisodiy samaradorlikka ega.

Yerdan samarali foydalanishda qishloq xo‘jaligida noan’anaviy usullardan biri- hamkor- aralash ekish usullarini joriy etish. Ma’lumki, ekinlar aralash holda

ekilganda sof holda ekilganda ekilganga nisbatan har doim yuqoriroq hosil yetishtiriladi.

Hozirgi paytda resurstejamkor texnologiyalardan biri g‘o‘za bilan hamkor ekinlarni brgalikda parvarishlash va bir gektar sug‘oriladigan maydondan ikki marta hosil olishdir.Bunda g‘o‘za qator orolig‘ida soya,loviya.mosh, chesnok,sabzi,osh lavlagi trup,sholg‘om va boshqa ekinlarni birgalikda yetishtirish mumkin. G‘o‘za qator oralariga ildizmevali va dukkakli ekinlar ekilganda Toshkent viloyati sharoitida 37.3s/ga sabzi,47.3 s/ga lavlagi,17.1s/ga.mosh,48.4s/ga.trup+46.0s/ga sholg‘om. Qashqadaryo viloyati sharoitida 14.4s/ga mosh,19.7s/gaosh lavlagi, 21.8s/ga.sholg‘om , 22.5s/ga trup.

### **Nazorat savollari:**

1. Fanning maqsadi, predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
2. Dehqonchilikda resurstejovchi-innovatsiya texnologiya tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
3. Dehqonchilikda resurstejovchi texnologiyaning zaruriyati va strategiyasi nimalardan iborat?
4. Qishloq xo‘jaligi resurstejovchi texnologiyani rivojlanishi?
5. Dehqonchilikda resurstejovchi innovatsion jarayonlar nimalarga qaratilgan?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Teshaev Sh., Nurmatov Sh., Muborakov A. va b. G‘o‘za parvarishida suv va manba tejovchi agrotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. – T., 2013.
2. Norqulov U.Sh.Axmirzaev,A. Saimbetov Dehqonchilik va melioratsiya fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlar. Toshkent 2019.
3. Artukmetov Z.A., Allanov X.K. Sug‘orishning yangi texnologiyalari va undan foydalanish. – T.: Toshkent Davlat agrar universiteti, 2010. – 116 b.
4. Egamberdiyev O., Nurbekov A. How to reduce spending and improve harvests, journal – Land Energy biodiversity. 3-6 page, Newsletter № 5. 01.12.2014
5. Qoraboeva T.M. G‘ofurov Axborat tizimlari (GAT) dan foydalanish.O‘quv uslibiy qo‘llanma. T. 2019

## **Internet manbalar:**

1. <https://tdau.uz> – Toshkent davlat agrar universiteti.
2. <https://agrobusiness.uz> – O‘zbekiston agrobiznes assotsiatsiyasi.
3. <https://agro-olam.uz>.
4. <http://www.Plant growing-Grain production technology, 2020>.

### **2-Mavzu:Qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orishda tomchilatib sug‘orish va uning ahamiyati.Tomchilatib sug‘orish bo‘yicha Prezident qarorlari**

#### **Reja:**

- 2.1 Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llash zaruriyati.
- 2.2.Tomchilatib sug‘orish bo‘yicha Prezident qarori va uni ijrosi
- 2.3. Tomchilatib sug‘orishning afzallikkleri
- 2.4. Tomchilatib sug‘orish tizimining resurstejamkorligi.
- 2.5. Tomchilatib sug‘orishda mehnat unumдорligi va yerdan foydalanish samaradorligi.

#### **2.1 Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llash zaruriyati.**

Ma’lumki, respublikamizda bir yilda o‘rtacha 52 mlrd. m<sup>3</sup> suv ishlataladi, shuning 80 foizi transchegaraviy daryolar hissiga to‘g‘ri kelib, qo‘shni davlatlar hududidagi muzliklar va qorlarning erishi hisobiga shakllanadi. Olingan suvning esa 90 foizi mamlakatimizning qishloq xo‘jaligi sohasida foydalaniladi. Biroq, iqlim o‘zgarishi va boshqa antorpogen ta’sirlar oqibatida tog‘lardagi muzliklarning soni va hajmi keskin kamayib, daryolarning suvlilik darajasini pasayishi kuzatilmogda.

Chuchuk va foydalanishga yaroqli bo‘lgan suv resurslari tanqis bo‘lib borayotgan sharoitda Amudaryo va Sirdaryo daryolarining havzasidagi davlatlar, shu jumladan O‘zbekistonda ham aholi sonining o‘sishi va iqtisodiyoti jadal rivojlanishi natijasida suvga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu kabi sharoitda qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali va tejamli foydalanish, ayniqsa, ekinlarni sug‘orishda suvni tejaydigan

texnologiyalardan, jumladan, tomchilatib sug‘orish tizimidan foydalanishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha dunyo tajribasi bilan tanishadigan bo‘lsak, ko‘plab rivojlangan davlatlarda ushbu texnologiyadan keng foydalaniyatganligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, jami sug‘oriladigan maydoniga nisbatan, Isroilda 74%, Saudiya Arabistonida 17%, Turkiyada 17%, Xitoyda 9,7%, AQShda 7,3%, Hindistonda 6% qishloq xo‘jaligi maydonlarida tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilgan.

Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi nafaqat katta miqdordagi suvni tejab qolishi, balki ekinlarning hosildorligini keskin oshirish va hosilning sifatini yaxshilashda katta samara beradi.

### **Томчилатиб сугориш тизими**

**Томчилатиб сугориш тизими ўсимликнинг сувга бўлган эҳтиёжига тенг миқдордаги сувни зарур муддатда унинг илдиз катламига етказиб беришга мўлжалланган босимли сугориш тармоғидир.**

Томчилатиб сугориш тизимини умумий кўрининши :

- 1 - сув манбаи;
- 2 - насос қурилмаси;
- 3 - ўзитлаш мосламаси;
- 4 - қумти фильтр;
- 5-диск ёки түрни фильтр;
- 6-магистрат (бош) қувур;
- 7 - тарқатувчи қувур;
- 8 - босим ростлагичлар;
- 9 -томизигчи ишланглар;
- 10 - томизигичлар.



#### **2.1-Rasm.Tomchilatib sug‘orish tizimining umumiyo ko‘rinishi.**

#### **2.2.Tomchilatib sug‘orish bo‘yicha Prezident qarori va uni ijrosi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25-oktyabrda «Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-4499-sonli qarori.

*1.Hozirgi holat tahlili va mavjud muammolar.*

Respublikamizda bir yilda o‘rtacha 52 mld. m<sup>3</sup> suv ishlataladi, shuning 80 foizi transchegaraviy daryolar hissiga to‘g‘ri kelib, qo‘shti davlatlar hududidagi muzliklar va qorlarning erishi hisobiga shakllanadi. Olingan suvning esa 90 foizi mamlakatimizning qishloq xo‘jaligi sohasida foydalaniladi.

Mintaqamizda ohirgi 10 yilda O‘zbekistonda suv hajmi 12 % ga o‘tkan yiliga nisbatan bu yil 15 % ga kamaygan

O‘zbekistonda 2020 yilda tomchilatib sug‘orish 38744 ga, yomg‘irlatib sug‘orish 1520 ga, pulsar sug‘orish 3560 ga joriy qilish ko‘zda tutilgan.

Ma’lumki bugungi kunda qishloq xo‘jaligi ekinlarini vegetatsiya davrida parvarish qilish uchun 3 million 200 ming hektar yerga 46 milliard kub metr suv sarflanib, uning 60 foizi, ya’ni 27,6 milliard kub metr suv ekinlarga yetib boryapti xolos, qolgan 18,4 milliard kub metr suv esa xududlarda sug‘orish tarmoqlarini talabga javob bermasligi, suvdan foydalanish koeffitsentini pasligi hamda hamon ekin maydonlarini egatlab sug‘orish hisobiga, xususan ekin maydonlarining 98 % eskicha uslubda sug‘orilmoqda.

Birgina egatlab sug‘orish hisobiga yiliga 5-6 milliard kub metr suv yoki jami suvning 20% behuda isrof bo‘lmoqda. Chunki jami 180 ming kilometr sug‘orish tarmoqlarining 23 foizi beton qoplamali bo‘lib, ular ham 30-35 yildan buyon deyarli yangilanmagan.

## **2.Mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha aniq taklif va mexanizmlar**

Hozirgi kunda an’anaviy egatlab sug‘orishda sug‘orish ishlarini olib borish uchun har 5 hektar maydon uchun 1 nafar suvchi kerak bo‘lsa, tomchilatib sug‘orishda 1 nafar suvchi 20–25 hektar va undan ortiq maydonni sug‘orishi mumkin. Bundan tashqari, dalani sug‘orishga tayyorlash, ya’ni chim, selofan va boshqa anjomlarni tayyorlashga extiyoj qolmaydi.

Egatlab sug‘orishda 1 hektar g‘o‘za maydoniga o‘rtacha 650 kg azot o‘g‘iti, 150 kg fosfor, 100 kg kaliy ishlataladi va ushbu mineral o‘g‘itlarning atiga 25–30


foizini o'simlik o'zlashtiradi, xolos. Qolgan mineral o'g'itlar esa havoga bug'lanadi hamda suv bilan tashlamaga va yer osti sizot suvlariga chiqib ketadi.

1. Tomchilatib sug'orishda suv o'simlikning talabiga mos ravishda kerakli miqdorda beriladi, sug'orish texnikasi foydali ish koeffitsienti 98 foizgacha oshirishga imkon yaratilib, 50 foizgacha suv tejaladi.
2. Tomchilatib sug'orishda mineral o'g'itlarni o'zlashtirish darajasi 90–95 foiz bo'ladi.
3. Mineral o'g'itlar sarfi g'o'za ekini uchun o'rtacha 1 hektar maydonga 250 kg azot, 100 kg fosfor, 50 kg kaliyga to'g'ri keladi. Bu esa mineral o'g'itlar sarfini 50 foizgacha qisqartirish imkonini beradi.
4. Shuningdek, begona o'tlar tarqalishi holati kuzatilmaydi, natijada 2–3 yilda ekin maydoni begona o'tdan butunlay tozalanadi.
5. Tomchilatib sug'orishda suvning umumiy tejalishi 1 hektar g'o'za uchun o'rtacha 2,6 ming m<sup>3</sup>, (40-50%) 1 hektar bug'doy uchun 1,3 ming m<sup>3</sup> yoki (30-40%) va 1 hektar bog' uchun 1,8 ming m<sup>3</sup> (40-50%) dan iborat bo'ladi.


### 2.3. Egatlab sug'orishning salbiy holatlari.

## Эгатлаб сұғоришининг салбий ҳолатлари

- Одатда эгатлаб сұғориша үсимликка керагидан ортиқ сув берилади ва дала бўйлаб бир текисда сұғорилмайди. Шу билан бирга, сұғориш давомий олиб борилмайди оқибатда үсимлик чанқаб **стресс ҳолатга тушади** ва ўз қувватини ҳосилга эмас, балки ўзининг ҳаётини сақлаб қолишига сарфлайди.
- Шунингдек, ҳосил сифатсиз ва үнинг миқдори кам бўлади. Экинларниң ўсиши майдон бўйлаб ҳар хил кечади ва сув исроф бўлади.



- Эгатлаб суғоришда минерал ўғитларнинг 20 фоизи буғланади, 10–15 фоизи сув билан оқиб чиқиб кетади, 30–35 фоизи эса ерга шимилиб кетади.
- Бундан ташқари, бегона ўт ўсиши ва кўпайиши кескин ортади ҳамда далага трактор 25–30 марта киради, натижада ЁММ маҳсулотлари сарфи юқори бўлади.



Egatlab sug‘orish jarayonida mavsum davomida tuproqdagi namlik va ozuqa moddalari nobarqaror berilishi sababli hosildorlik kam va hosil sifatsiz bo‘ladi. Yerning qotishi yuzaga keladi va kultivatsiya qilishga ehtiyoj seziladi. Traktor ishlashi uchun yerning boshi va etagidan yer ajratiladi bu esa yerdan foydalanish koeffitsientining pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga, hosildorlik har xil bo‘lgani sababli uning tannarxi arzon bo‘lishiga olib keladi va iqtisodiy samaradorlik past bo‘ladi.

### **2.3.Tomchilatib sug‘orishning afzalliklari.**

Tomchilatib sug‘orishda o‘simlik stress holatiga tushmaydi va o‘simlik o‘sishi uchun maqbul sharoit yaratiladi, natijada o‘z quvvatining 70 foizdan ortig‘ini hosildorlikka sarflaydi, hosildorlik o‘rtacha 50–70 foizga ortadi va dala bo‘ylab bir xil bo‘ladi.

Shuningdek, o‘simlikka kerakli suv miqdori beriladi, tashlamaga va filtratsiyaga suv yo‘qotilmaydi, sug‘orish texnikasi foydali ish koeffitsienti 98 foizgacha oshirishga imkon yaratadi.



Tomchilatib sug‘orishda suv va ozuqa moddalar ekinlarning talabiga mos ravishda berilishi natijasida bog‘ va tokzorlarda o‘rtacha hosildorlik 50–60 foizgacha ko‘paysa, paxta, sabzavot kabi bir yillik ekinlarda 80–100 foizgacha oshadi. Shuningdek, ekinlar 10–15kun erta yetiladi va butun maydon bo‘ylab bir xil bo‘ladi.

Bundan tashqari, shox ariq, o‘qariq, yerning boshi va etagida texnikalar qaytishi hamda suvni boshqarish uchun yer maydonlari ajratilmaydi

Tomchilatib sug‘orishda suv o‘simlikning talabiga mos ravishda kerakli miqdorda beriladi, tashlamaga va filtratsiyaga suv yo‘qotilmaydi, sug‘orish texnikasi foydali ish koeffitsienti 98 foizgacha oshirishga imkon yaratilib, 50 foizgacha suv tejaladi. Shuningdek, sug‘orish jarayonida sug‘oriladigan maydonlarning barcha tuzilmalari buzmasdan va tuproqning unumdar qatlagini yo‘qotmasdan, suvni bir xil taqsimlash hisobiga sifatli sug‘orish ishlari olib boriladi. Shu bilan birga, ortiqcha suv sizot suvlariga qo‘shilmasligi natijasida yerlarning ikkilamchi sho‘rlanishining oldi olinadi



**2.3-rasm.Tomchilatib sug‘orish tizimida tuproqning namlanish chegarasining umumiyo ko‘rinishi.**

Bundan tashqari quyidagi afzalliklarga ham ega;

*sug‘orish rejimini o‘simlikning suvga bo‘lgan talabiga mos ravishda belgilash;*

*tuproqdan bug‘lanadigan suvni kamaytirish;*


*begona o‘tlar bo‘lmasligi bois barcha suv faqat ekinga tegishli bo‘lishi;*

*svuning dala bo‘ylab tarqalmasligi va tuproqqa singib ketmasligi*

## **2.4. Tomchilatib sug‘orish tizimining resurstejamkorligi.**

### **ТОМЧИЛАТИБ СУГОРИШНИНГ РЕСУРСТЕЖАМКОРЛИГИ**

Эгатлаб сугорища 1 гектар ғўза майдонига ўртача 650 кг азот ўғити, 150 кг фосфор, 100 кг калий ишлатилади ва ушбу минерал ўғитларнинг атига 25–30 фоизини ўсимлик ўзлаштиради, холос. Қолган минерал ўғитлар эса ҳавога буғланади ҳамда сув билан ташламага ва ер ости сизот сувларига чиқиб кетади.



Томчилатиб сугорища эса минерал ўғитлар эритилиб сув билан бирга экинларни сугориш вақтида бевосита илдиз қатламига берилиши натижасида уларнинг минерал ўғитларни ўзлаштириш даражаси 90–95 фоиз бўлади.



Shu bilan birga, ozuqa moddalar tez va jadal so‘rilib ketadi, bu esa quruq iqlim sharoitida o‘g‘it berishning eng samarali usulidir. Mineral o‘g‘itlar sarfi g‘o‘za ekini uchun o‘rtacha 1 гектар maydonga 250 kg azot, 100 kg fosfor, 50 kg kaliyga to‘g‘ri keladi. Bu esa mineral o‘g‘itlar sarfini 50 foizgacha qisqartirish imkonini beradi.

Shuningdek, begona o‘tlar qo‘srimcha oziqlantirilmaganligi va ularning urug‘i pishib yetilmaganligi sababli maydon bo‘ylab tarqalishi holati kuzatilmaydi, natijada 2–3 yilda ekin maydoni begona o‘tdan butunlay tozalanadi.

Bundan tashqari ekinlarni yetishtirishda quyidagi resurslarni ham tejab qolishga erishiladi:

*-dala kultivatsiya qilinmaydi, shox ariq va o‘qariqlar olinmaydi;*

-odatdagи usulda dalaga traktor 25–30 marta kirsa, tomchilatib sug‘orilganda tuproq qotib ketmasligi va o‘g‘it suv bilan birga berilganligi bois 6–7 marta kiradi xolos;

-mavsum davomida har gektar maydondan 50–60 foizgacha dizel yonilg‘isi tejaladi;

-yil davomida ekinlarga beriladigan o‘g‘itlar uchun xarajatlar 50 foizgacha kamayadi;

-mehnat unumdorligi ortishi natijasida ishchilar soni qisqaradi va ish haqi xarajatlari iqtisod qilinadi.

## **2.5.Tomchilatib sug‘orishda mehnat unumdorligi va yerdan foydalanish samaradorligi.**

Hozirgi kunda an’anaviy egatlab sug‘orishda sug‘orish ishlarini olib borish uchun har 5 gektar maydon uchun 1 nafar suvchi kerak bo‘lsa, tomchilatib sug‘orishda 1 nafar suvchi 20–25 gektar va undan ortiq maydonni sug‘orishi mumkin. Bundan tashqari, dalani sug‘orishga tayyorlash, ya’ni chim, selofan va boshqa anjomlarni tayyorlashga hojat qolmaydi. Suvni boshqarish va egatlar orasida nazorat qilib yurish ishlariga barham beriladi.

Shuningdek, shox ariq, o‘qariq, yerning boshi va etagida texnikalar ishlashi uchun hamda suvni egatlar bo‘ylab boshqarish uchun yer maydonlari ajratilmaydi. Buning natijasida yerdan foydalanish samaradorligi ortadi.

Tomchilatib sug‘orishda hosildorlikning taqqoslama jadval.

## 2.1-jadval.

**Томчилатиб сүгеришда ҳосилдорликнинг таққослама жадвали**

Экин тuri	Үртacha ҳосилдорлик, т		%
	Этаглаб сүгеришда	Томчилатиб сүгеришда	
Аччиқ қалампир	12 тонна	18 тонна	 50
Пиёз	30 тонна	60 тонна	 100
Помидор	25 тонна	50 тонна	 100
Бодринг	15 тонна	30 тонна	 100
Пахта	2,5 тонна	4,5 тонна	 55

## 2.2-jadval

Qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda tomchilatib sug‘orish bilan bog‘liq xarajatlar.

Xarajatlar turi	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil
<b>Kartoshka yetishtirish uchun (1 га)</b>				
Jami yetishtirish xarajati	27 100	27 100	27 100	27 100
TST qurish va saqlab turish xarajati	16 000	4000	4000	4000
Ajratilgan kredit	16 000			
Kreditni qaytarish xarajati	7 502	6648	5345	
Yalpi daromad	45 000	45 000	45 000	45 000
Jami xarajat	34 602	37 748	36 445	31 100
Sof foyda	10 398	7 252	8 555	13 900

Paxta yetishtirish uchun(1 ga)				
Jami yetishtirish xarajati	8 436	8 436	8 436	8 436
TST qurish va saqlab turish xarajati	16 000	4 000	4 000	4 000
Berilayotgan subsidiya	8 000			
Ajratilgan kredit	8 000			
Kredit qaytarish harajati	3 751	3 324	2 672	
Kreditni davlat tomonidan to‘lanadigan qismi (10%)	678	411	143	
Fermer xo‘jaligi tomonidan to‘lanadigan qismi	3 074	2 913	2 530	
Yalpi daromad	18000	18 000	18 000	18 000
Jami xarajatlar	11 510	11 349	10 966	8 436
Sof foyda	6 490	6 651	7 034	9 564

2.3-jadval.

Egatlab va tomchilatib sug‘orish uchun ajratiladigan yer maydonlari

Ish turi	Ajratiladigan yer maydoni (sotix)	
	Odatdagi usulda	Tomchilatib sug‘orishda
Shox ariqlar uchun		
O‘qariqlar uchun		
Suvni tarash va texnikalar ishlashi uchun		
Jami		

### **Tomchilatib sug‘orishning iqtisodiy samaradorligi**

<u>№</u>	Ekin turi	Egatlab sug‘orish		Tomchilatib sug‘orish		Hosildorlikka nisbatan,%
1	<i>Achchiq qalampir</i>	12	14,9	18	30,1	150
2	<i>Piyoz</i>	30	16,5	60	50,9	240
3	<i>Pomidor</i>	25	9,1	45	34,1	180
4	<i>Bodring</i>	15	16,9	30	36,2	200
5	<i>Karam</i>	25	6,5	38	18,9	180
6	<i>Kartoshka</i>	20	16,3	38	47,7	190
7	<i>Sabzi</i>	20	8,5	30	22,1	150
8	<i>G‘o‘za</i>	2,5	2,3	4,5	9,2	188

#### **Nazorat uchun savollar:**

- 1 Nima uchun tomchilatib sug‘orishga katta e’tibor berilmoqda?
- 2.Tomchilatib sug‘orish bo‘yicha qanday Prezident qarorlari chiqqan?
2. Egatlab sug‘orishda qanday salbiy holatlar qayd etiladi?
3. Tomchilatib sug‘orishning afzalliklari nimalarda yaqqol namayon bo‘ladi?
- 4.Tomchilatib sug‘orish tizimidaqishloq xo‘jalik ekinlarin sug‘orishda qancha suv tejaladi.
5. Tomchilatib sug‘orishda qanday qilib resurstejamkorlikka erishiladi.
6. Tomchilatib sug‘orishda mehnat unumдорligи va yerdan foydalanish samaradorligi.
7. Tomchilatib sug‘orishningqishloq xo‘jalik ekinlari bo‘yicha iqtisodiy samaradorligi qaysi jihatlarida ko‘rinadi?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 21 iyundagi “Tomchilatib sug‘orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish texnologiyalarini joriy etish va moliyalashtirishni samarali tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” gi 176-sonli qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 24 fevraldag‘i “2013- 2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha Davlat dasturini so‘zsiz bajarilishini ta’minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 39-sonli qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25-oktyabrda «Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-4499-sonli qarori.

4.Artukmetov, H.Sheraliev. Ekinlarni sug‘orish asoslari. Darslik. T.: O‘zb. Faylasuflar milliy jamiyati nashiryoti, 2007.- 182-198 b.

5.Ilxomov N.M, Yakubov M.M, Uzoqov I.E. Sabzavotchilikda tejamli sug‘orish usullar texnologiyasini takomillashtirish “qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishslashda ilg‘or agrotexnologiyalardan samarali foydalanish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rivojlantirish: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalarito‘plami 2015 yil 16-17 aprel

### **3-Mavzu: Tuproqqa ishlov berishning resurstejamkor texnologiyalari.**

**Reja:**

**3.1. Resurstejovchi ishlov berishdan maqsad.**

**3.2 Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasi.**

**3.3.Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi minimal texnologiyasini ahamiyati.**

**3.4.Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasini qo‘llanishi.**

**Tayanch so‘zlar:** Tuproq, innovatsion texnologiyalar, ishlov berish, almashlab ekish, navbatlab ekish, hosildorlik.

**Tuproqqa ishlov berish tizimi.** Har qanday resurstejovchi texnologiyani joriy etishda eng avvolo odatdagi texnologiyani cheklab o‘tib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda diqqatimizni odatdagi texnologiyalarga qaratib o‘tsak foydadan xoli bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jaligida eng muhim agrotexnik tadbirlardan biri tuproqqa asosiy ishlov berish, ya’ni shudgorlash hisoblanadi. Shudgorlash tuproqning barcha xususiyatgariga: agrofizik, agrokimyoviy, biologik xossalariiga ijobiy ta’sir etadi.

Shudgorlash o‘z vaqtida sifatli amalga oshirilganda tuproqning donadorligi, hajm massasi, suv xossalari, havo almashinuvi, mikrobiologik jarayonlar sezilarli yaxshilanadi.

Shudgorlash o‘tkazilish vaqtiga qarab: kuzgi shudgorlash va baxorgi shudgorlashga bo‘linadi. Aksariyat dexqanchilik olib boriladigan mintaqalarda kuzgi shudgorlash o‘tkaziladi. Shimoliy mintaqada, Xorazm va Qoraqolpog‘iston muxtor respublikasida asosiy katta maydonlar kuchli sho‘rlangan bo‘lgani uchun ekishdan oldin ikki marta sho‘r yuviladi. Bunday maydonlarda dalada ikki marta kuzda va bahorda sho‘r yuviladi. Shu tufayli shimoliy mintaqada bahorda shudgorlash o‘tkaziladi.

Shuningdek bir yarusli pluglarda shudgorlash, ikki yarusli chimqirqarli pluglarda shudgorlash va tuproqni ag‘darmasdan shudgorlash usullari mavjud.

Shudgorlash chuqurligi ham tuproq iqlim sharoitiga qarab belgilanadi.

- Begona o‘tlar bilan kuchsiz zararlanmagan yoki zararlanmagan, mexanik tarkibi yengil bo‘lgan hududlarda tuproqqa yuza ishlov beriladi yoki 28-30 sm chuqurlikda shudgor qilinadi.
- Begona o‘tlar bilan o‘rtacha zararlangan, mexanik tarkibiga ko‘ra o‘rtacha soz tuproqlarda tuproqqa ikki yarusli pluglarda 30-35 sm chuqurlikda asosiy ishlov beriladi.

Tekislagichlar bilan tekislangandan so‘ng mola boronalashni amalga oshirish lozim.



**3.1-rasm. Fermer xo‘jaliklari kesimida yerni shudgorlash jarayonidan lavha.**

Ko‘p yillik begona o‘tlar bilan: ajriq, g‘umay, qamish bilan zararlangan, mexanik tarkibi og‘ir kumoq bo‘lgan maydonlarda tuproq ikki yarusli pluglarda 35-40 sm chuqurlikda shudgor qilinadi.

Ochiq maydonlarda kuzgi g‘alla ekiladigan konturlarni aniqlab, shudgorlashdan oldin nam suvi berib, shudgorlash. G‘alla ekiladigan maydonga sof holda gektariga 80-90 kg fosforli, 50-70 kg kaliyli o‘g‘itlar berilib, chimqirqarli PLN-4-35, PLN-5-35 hamda ikki yarusli PO-4-45 kabi pluglarda 30-35 sm chuqurlikda shudgordash. Shudgorlangan yerlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri P-2,8, P-4 kabi kabi uzun bazali va lazerli tekislagichlar bilan ekishga tayyorlash.

Takroriy ekinlar o‘rniga g‘alla ekishda oraliq ekinlarni tez fursatda yig‘ishtirib olish, ekinlardan bo‘sagan maydonlar qotgan bo‘lsa sug‘orishni tashkil etish, sug‘orish o‘tkazilgan konturlarda tuproq to‘liq ye.tilgandan so‘ng gektariga sof holda 80-90 kg fosforli, 50-70 kg kaliyli o‘g‘itlar solinib, 30-35 sm chuqurlikda shudgorlash.

### **3.1. Resurstejovchi ishlov berishdan maqsad.**

O‘zbekistonda boshqa sohalarda bo‘lganidek, qishloq xo‘jaligi sohasida ham ishlab chiqarishda tannarxni kamaytirib, daromadni oshirish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Fermer ham boshqa ishbilarmonlar kabi ko‘proq daromad olish uchun mahsulot tannarxini kamaytirish choralarini izlaydi. Biroq har doim ham buning iloji bo‘lmaydi. Birinchidan: butun dunyoda mahsulotning tannarxiga nisbatan yonilg‘i narxi tez sur’atlarda oshib bormoqda-qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda esa yonilg‘i muhim omil hisoblanadi, chunki yerga ishlov berishda turli texnika vositalaridan unumli foydalanish juda muhim ahamiyatga ega. Texnikaga esa ayni mavsum paytida tanqis bo‘lib qoladigan yonilg‘i zarur. Yonilg‘iga talab yuqoriligi hamda uning tanqisligi narx keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxining ham keskin suratlarda oshishiga olib kelmoqda.

Shunday qilib, har bir fermer olayotgan hosilni yetishtirishda qanday qilib imkon qadar kamroq yonilg‘i sarflash, yuqori hosil olish uchun ajratilayotgan suvning isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasdan, undan oqilona foydalanish, uzoq yillar davomida bir xil yuqori hosil olib turish uchun tuproq holatini qay tariqa yaxshilash borasida bosh qotirishlari talab etiladi.

Bu kabi dolzarb muammolarning yechimi mavjud va bunday yechim butun dunyoda keng targ‘ib qilinmoqda. Bu usul-tuproqqa ishlov berishning tejamkor usuli va tuproq holatini himoyalashga qaratilgan texnologiyalarga o‘tish usuli.

So‘nggi 20 yil davomida dunyo bo‘yicha haydaladigan yerning 10 foizi yoki 125 mln hektar (2012 yil holatga ko‘ra) yerda shu amaliyot qo‘llanildi va bu raqam yildan-yilga oshib bormoqda. Dala ekinlaridan yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishda resurstejamkor zamonaviy ilg‘or yetishtirish texnologiyalar qo‘llash bugungi kunda dolzarb vazifalardan bo‘lib hisoblanadi.

### **3.2. Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasi.**

Shu o‘rinda resurs tejamkor texnologiya tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak. Yonilg‘i va boshqa energiya manbalari, shuningdek, xomashyo, materiallar, texnika vositalari, suv va boshqa resurslarni minimal darajada sarflab, mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan texnologiyalarga *resurs tejamkor texnologiyalar* deyiladi. Resurstejovchi ishlov berishning quyidagi turlari mavjud:

**(I). Tuproqqa minimal (optimal) ishlov berish:** ushbu tizimning maqsadi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

(a) qishloq xo‘jalik ekinlari mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun energiya va mehnat xarajatlarini kamaytirish,

(b) tuproq namligini saqlab qolish va uning eroziyasini kamaytirish,

(s)ekinlarning optimal qatorlarini ta'minlash maqsadida tuproq yuzasini bir xilda bo'lishiga erishmoq,

(d) tuproqni zichlashishini minimal holda ta'minlash.

(II). **Tuproqqa mulcha bilan ishlov berish:** uning maqsadi bo'lib tuproqqa ishlov berish jarayonlarini hisobiga tuproqda namni saqlash va energiyani tejash hisoblanadi. Tuproqqa ishlov berishning ushbu ikkala tizimi odatda tuproq yuzasida o'simlik qoldiqlarini qoldirishga asoslangan bo'lib, ularning har biri tuproq yuzasini o'simlik qoldiqlari bilan uzlusiz qoplashni yoki bunday yerlarda o'simliklar parvarishlashni ko'zda tutadi. Haydalgan yerlarni saqlash amaliyoti qishloq xo'jaligi uchun quyidagi ayrim alternativ maqsadlarni ko'zda tutadi: tuproqda organik moddalarni ko'paytirish va tuproq eroziyasini kamaytirish. Lekin, tuproqqa ishlov berish amaliyotining ayrimlari pestitsidlardan foydalanishni talab etadi.

Yerga asosiy ishlov berish (haydash) tuproq xossalari shunday o'zgartiradiki, u o'simliklarning o'sib rivojlanishiga ta'sir etadi va, shuningdek, daladan suvning oqib chiqib ketishini kamaytiradi. Mulchalangan tuproq harorati mulchalanmagan yerdagidan past, o'simlik qoldiqlari ostidagi tuproq yuzasining namligi yuqori bo'ladi. Buning oqibitida tuproq haydov qatlamini saqlashning ko'pgina tizimlari muvaffaqiyatli hisoblanadi.

(III). **Tuproqqa “nol” ishlov berish:** Bunday ishlov berishda o'simlik qoldiqlari maydalanib dalaga sochiladi, ekish esa yerni haydamay amalgalashadi. Ekishga qadar dalani begona o'tlar bosishining nazorat qilish muammosi yuzaga keladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga resurs tejamkor texnologiyalarni to'la joriy etilishi:

- yonilg'i sarfini 20-25 foizga,
- urug'lik sarfini paxtachilikda: hektariga 30-35 kg/ga

- g‘allachilikda 60-70 kg/ga tejash imkonini beradi

Tuproqqa haddan ziyod mexanik ishlov berish - har bir fermer har yili tuproqni 8-10 marta mexanik tarzda ishlov berib, agrotexnik tadbirlarini bajaradi.

Yerni shudgorlash, mola-borona bosish, tekislash tuproqning yuqori qatlamlarida minerallashish jarayonlarini tezlashtiradi hamda dastlab o‘simpliklar o‘sishi, binobarin, ekinlardan hosil olishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq, shuni alohida ta’kidlash kerakki, fermerlar ko‘nikib qolgan ushbu tadbirlar yuzlab yillar davomida foydalanish oqibatida tuproq hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bir qancha noxush omillarga ega

Bundan tashqari, yoz mavsumida tuproqning ichki qatlamlari bilan tashqi muhit o‘rtasida katta tafovut bo‘ladi. Yozda bug‘doy hosili yig‘ib olingandan so‘ng yerga ishlov berayotganda havoning jizg‘anak harorati mikroorganizmlarning hayot faoliyatiga zarar yetkazadi, ko‘pincha tuproqdagi foydali mikroorganizmlar halokatiga sabab bo‘ladi.

Aynan o‘sha mikroorganizmlar barcha o‘simplik qoldiqlarini organik o‘g‘itlar, chirindilarga aylantirib beradi. Yerni haydash o‘sha mikroorganizmlarni yo‘qotadi, demak, chirindi ishlab chiqaradigan tabiiy organizmlar qolmaydi. Fermerlar sug‘orish uchun ko‘pincha minerallashgan suvdan foydalanayotgani hech kimga sir emas. Agar suvning minerallashuvini, bor-yo‘g‘i 0,5 g/l deb taxmin qilsak, har bir kubkilometr oshiqcha suv tuproqqa qo‘sishimcha 500 kg tuz olib keladi.

O‘zbekiston sharoitida bahorning o‘ziga xos injiqliklari goh qurg‘oqchil, goh seryog‘in kelishi, shuningdek ushbu tabiiy jarayonlarning surunkali davom etishi fermerlarning yer tayyorlash ishlarini bir muncha muddatga kechiktirib yuborish sir emas.



### **3.2-rasm. Sug‘oriladigan maydonlarda g‘o‘za, makkajo‘xori va boshqa ekinlarni ang‘izga ekilgan holati**

Ana shu va boshqa sabablarni hisobga olgan holda xo‘jaliklarida yer tayyorlash muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki, erta bahordagi yog‘ingarchiliklar tekis yerga ekilgan chigit maysalarini to‘liq ko‘karib chiqishiga xalaqit qiladi. Ko‘chatlar qatqaloqni ostida qolib nobud bo‘ladi.

Ammo bu sohada Respublikada ko‘p ishlar qilinmoqda. Jumladan, yangi texnologiyalarning kirib kelishi va eskilarini modernizatsiya qilinishi endilikda chigit va boshqa ekinlarni ekish texnologiyasiga bir muncha o‘zgartirishlar kiritdi, nihoyat nihollarni to‘liq va tekis ko‘karib ketishiga imkoniyat yaratadi.

Endilikda tuproqqa ishlov berishning yangi-minimal usullari ishlab chiqarishga kirib kelmoqda. Bu texnologiyaning e’tiborli tomoni shundaki yerga har 3-4 yilda bir marta chuqur ishlov berilib, keyingi yillari yer yuza ishlov berish qurollari bilan ishlanadi. Bu tartibda yerga ishlov berishda tuproq zichlashmaydi, uning mikroflorasi uchun muhit yomonlashmaydi, tuproq zarrachalari maydalaniib

kukunlashmaydi va eng muhimi g‘ovaklik, zichlik, suv o‘tkazuvchanlik, havo muhiti, donadorligi hamda boshqa ko‘rsatgichlari yaxshi holda saqlanadi.

Tabiyiki, tuproqqa har yili 8-10 martagacha mexanik ishlov berish,tuproq qatlamini zichlashtiradi, uning mikroflorasi uchun muhit yomonlashadi, tuproq zarrachalari maydalaniб kukunlashadi va eng muhimi g‘ovaklik, suv o‘tkazuvchanlik, havo muhiti, donadorligi hamda boshqa ko‘rsatgichlar o‘ta yomon holatga o‘tadi. Bu esa o‘simliklarni o‘sishi va rivojlanishining dastlabki davrida o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi va nihoyat tuproq unumdorligiga o‘z ta’sirini o‘tqazadi. Shu o‘rinda tuproq unumdorligini kamayish sabablari va tuproq zichligini salbiy o‘zgarishga olib keladigan sabablar haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinli deb bilamiz:

### **Tuproq unumdorligini kamayish sabablari:**

- Tuproqning sho‘rlanishi va botqoqlanishi;
- Tuproq eroziysi;
- Tuproqni suv-fizik xossalalarini buzilishi;

Tuproq tarkibida mineral va organik moddalarning kamayib borishi (o‘simliklar tomonidan jadal o‘zlashtirilishi, sug‘orish ta’sirida chuqur qatlamlarga yuvilib ketishi, shakllarning o‘zgarishi);

Tuproqning kimyoviy moddalar ta’sirida ekologik holatini buzilishi (me’yordan ortiq gerbitsidlar, fungitsidlar, defolyantlar va SO<sub>2</sub> gazi);

Iqlimning o‘zgarishi natijasida tuproq faunasining buzilishi.

### **Tuproq zichligini salbiy o‘zgarishga olib keladigan sabablar:**

- Yerga va o‘simliklarga mexanizatsiya yordamida ishlov berish – 60 %;
- Sug‘orish – 30 %;
- Tuproqda kechadigan kimyoviy jarayonlar ta’sirida (sho‘rlanish, mineral o‘g‘itlar) – 5 %;
- Boshqa turli ta’sirlar – 5 %.

O‘zbekiston tuproqlarining o‘simliklar ildizida tarqaladigan faol qatlamidagi optimal zichlik 1,10-1,35 g/sm<sup>3</sup>.

Tuproq zichligining 0,1-0,2 g/sm<sup>3</sup> oshib ketishi natijasida:

- g‘alla-donli ekinlar hisili o‘rtacha 25 %;
- paxta hosili – 15 %;
- makkajo‘xori don hosili – 30 %;
- tuproqning nam sig‘imi – 250 m<sup>3</sup>/ga;
- o‘g‘itlarning samaradorligi 15-20 % kamayib ketishi aniqlangan.

Yuqoridagi ko‘rsatilganlardan kelib chiqib, bajariladigan ishlarning texnologik yo‘nalishiga qarab va har bir jarayonda amalga oshiriladigan ishlarning turlarini hisobga olib dehqonchilikda yerga resurstejamkor minimal ishlov berish tadbirlarini chuqurroq bilish maqsadida ularni 4 ga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Yuqorida bu tadbirlarni umumlashtirib o‘tgan edik.

### **Yerga texnikalar yordamida ishlov berish sonlari.**

Paxta yetishtirish uchun:

- sho‘rlanmagan yerlarda o‘rtacha 25 marta
- sho‘rlangan yerlarda 32 marta.

Kuzgi bug‘doy yetishtirish uchun

- ochiq maydonda 15 marta;
- g‘o‘za qator orasida 11 marta.

Tarkoriy ekinlar uchun – 15 marta

### **1. Yerga ekin ekilganga qadar minimal ishlov berish usullari:**

1. Rotorlik pluglar bilan shudgorlash.
2. Yillar bo‘yicha shudgorlash va chizellash (birinchi yili shudgorlash, ikkinchi yili chizellash).
3. Chizellash (xar yili).

4. Chuqur yumshatish (3-4 yilda bir marta 60-80 sm yumshatish+qolgan yillarda faqat chizellash).

5. O‘zgartirilgan chuqurlikda shudgorlash (birinchi yili 30 sm, ikkinchi yilda 20 sm).

6. Shudgorlash va pushta olish.

## **2. Ekish tadbirlarini me’yorlashtirish:**

1. Keng qamrovchi seyalkalar yordamida ekish (6-8 va hatto 12 qatorli).

2. G‘o‘za qator oralariga g‘alla-donli eiklar urug‘ini ekish, o‘g‘itlash va egat olish.

3. Mexanizatsiya yordamida bajariladigan barcha tadbirlarni birqalikda bajarish (ekish, o‘g‘itlash, egat olish, begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlar ekish).

4. Takroriy ekinlarni eski pushtaga palasa ishlov berib ekish va o‘g‘itlash.

## **3. Qator oralirga minimal ishlov berish:**

1. Kultivatsiya sonini 6-7 martadan 3-4 martagacha kamaytirish (1 chi yoki 2 chi kultivatsiyada o‘rta organ chuqurligi 20-26 sm gacha yumshatiladi, qolgan kultivatsiyalar soni qisqartirilib sug‘orishga bog‘liq holda amalga oshiriladi).

2. Begona o‘tlarga qarshi keng qamrovli agregatlar yordamida gerbitsidlar sepish. (chopiq va kultivatsiya soni kamaytiriladi).

3. Qator oralariga tuproq strukturasini yaxshilovchi kimyoviy moddalar sepish (K-4, K-9, gidrogel va x.k.) yo‘li bilan kultivatsiya sonini kamaytirish.

4. Suspenziyalar sepishda keng qamrovchi purgagichlardan foydalanish (12-24 m).

5. Egat olish va o‘g‘itlashni birqalikda bajarish

## **4. Yerga “nol” ishlov berish:**

1. Tuproqning mexanik tarkibi yengil, qum va qumoq tuproqlarda keng qo‘llash mumkin.

2. Bunda urug‘lar ishlov berilmagan yerga qatorlab (chigit, makkajo‘xori, lavlagi va x.k.) ekiladi va tomchilatib sug‘orish texnologiyasi asosida yetishtiriladi.
3. G‘o‘za qator oralarida hamkor ekinlarini yetishtirish (g‘o‘zaning o‘suv davrida qator orasida mosh, loviya, soya, piyoz, turup, sabzi va x.k.). Bunda hamkor ekinlar “0” ishlov berish usulida yetishtiriladi.
4. Himoyalangan suniy substratlar (prilet, qum, shag‘al, biogumus, sholi qipig‘i va x.k.) da tomchilatib yoki tuproq ostidan sug‘orish usul bilan mahsulot yetishtiriladi.

### **3.3.Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi minimal texnologiyasini ahamiyati.**

Yer maydonlarini o‘z vaqtida ishlov berish va ulardan foydalanish dehqonchilikning oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Havoning quruq va issiq bo‘lishi natijasida g‘alladan bo‘shagan ekin maydonlari tuprog‘i haddan tashqari qotib qoladi. Ushbu ekin maydonlarini ananaviy usulda (erni shudgor qilish va izidan borona hamda mola bostirish) ishlash juda ko‘p miqdorda yonilg‘i-moylash va boshqa xarajatlarni keltirib chiqaradi. Muhimi ishlash muddati cho‘zilib takroriy ekin ekish kechiktirib yuborishi bilan xarakterlanadi.

Dehqonchilik amaliyotida uzoq yillardan beri an’anaviy usul bo‘lib kelgan yerni shudgorlash, bornalash, molalash va boshqa shu kabi texnologiyalar bugungi kunda o‘z xizmatini o‘tayotgan bo‘lishiga qaramasdan endilikda kam xarajat va oz mehnat talab etadigan, energiya tejovchi yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan texnologiyalar davri boshlandi desak xato bo‘lmaydi. Ishlab chiqilgan mahsulotning tannarxini oshib borishi uni imkoniboricha kam xarajatbop holda yetishtirishni talab etmoqda. Bu esa yerni ishlash sonlarini kamaytirish, yoqilg‘i-moylash materiallariga bo‘lgan talabni qisqartirish, dehqonchilikda noananaviy usullar hisoblangan—erni shudgor qilmasdan turib, yuza ishlash qurollari bilan ishlov berish hisobiga uni texnologik va mikrobiologik xossalari yaxshilash, eng

muhim yuqori hosil olish asosini yaratib berish bugungi kunda dehqonchilik oldida turgan vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Dunyo qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tannarxini oshib borishi uni ishlab chiqarish jarayonlarini kamaytirish vazifasini qo‘ymoqda, shu bilan bir qatorda endilikda har bir texnologiya energiya tejash nuqtai nazarida qaralishi talab etilmoqda, ya’ni yetishtirilgan mahsulot kam xarajatbop mahsulot bo‘lishi talab etiladi. Ana shu nuqtai nazarda yerkarni kam xarajat texnologiyalar asosida ishslash davrning talabidir.



### **3.3.-rasm. Kuzgi bug‘doydan bo‘shagan yerkarni ag‘darmasdan haydash.**

Yerni haydash va tayyorlashda hali beri kuzgi shudgorga teng keladigan texnologiyaning o‘zi yo‘q. Ammo bozor munosabatlariga o‘tishi bilan, mahsulot tannarxini oshib borishi, yoqilg‘i-moylash mahsulotlarining narxini keskin ko‘tarilib ketishi, yer haydash texnikalarini bir oz texnik jihatidan eskirib qolishi, hamda fermer xo‘jaliklarini iqtisodiy jihatidan oqsayotganligi yerni haydashda yangi texnologiyalarni qishloq xo‘jaligiga joriy etish vaqtin kelganligidan darak beradi.

Paxtakor xo‘jaliklarida chigit ekish uchun yer tayyorlash muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki, erta bahordagi yog‘ingarchiliklar tekis yerga ekilgan chigit

maysalarini to‘liq ko‘karib chiqishiga xalaqit qiladi, ko‘chatlar qatqaloqni ostida qolib nobud bo‘lar edi. Ammo bu sohada Respublikada ko‘p ishlar qilinmoqda. Jumladan, yangi texnologiyalarning kirib kelishi va eskilarini modernizatsiya qilinishi endilikda chigit ekish texnologiyasiga bir muncha o‘zgartirishlar kiritdi, nihoyat nihollarni to‘liq va tekis ko‘karib ketishiga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda dunyo qishloq xo‘jaligida tuproq mikroflorasini yaxshilash masalasi ham muhim hisoblanadi. Chunki tuproq mikroflorasi tuproq organizimlarining asosiy yashash joyi hisoblanib, uning biologik tirikligi eng avvalo tuproq muhitning yaxshiligini ta’minlab, so‘ngra o‘simliklarning o‘sish va rivojlanish manbai bo‘lib hisoblanadi ham. Endilikda tuproqqa ishlov berishning yangi-minimal usullari ishlab chiqarishga kirib kelmoqda. Bu texnologiyaning e’tiborli tomoni shundaki yerga har 3-4 yilda bir marta chuqur ishlov berilib, keyingi yillari yer yuza ishlov berish qurollari bilan ishlanadi. Bu tartibda yerga ishlov berishda tuproq zichlashmaydi, uning mikroflorasi uchun muhit yomonlashmaydi, tuproq zarrachalari maydalanib kukunlashmaydi va eng muhimi g‘ovaklik, zichlik, suv o‘tkazuvchanlik, havo muhiti, donadorligi hamda boshqa ko‘rsatgichlari yaxshi holda saqlanadi. Ma’lumki, tuproq tarkibida oziq moddalar va namlik yetarlik miqdorda bo‘lsa, mikroorganizimlarning rivojlanishi uchun eng qulay muhit hisoblanadi. O‘rta hisob bilan 1 g tuproqda 2,5-3 milliardgacha mikroorganizimlar bo‘ladi, ya’ni 30 santimetrali bir gektar ekinzor haydalganda tuproq tarkibidagi mikroblar vazni 3-5 tonnaga yetib boradi. Bu esa tuproqning tirikligidir. Endilikda ushbu tirik organizimlarning faoliyatini boshqarish va ularidan chirindi hosil bo‘lish jarayonida to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuni hisobga olib yerga ishlov berishda ushbu tirik organizmlarni saqlagan holatda minimal ishlov berish usullarini o‘rganish va uni qishloq xo‘jaligiga joriy qilish muhim masala bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, Respublikada dehqonchilik qilinib kelinayotgan tuproqlar tarkibida gumus miqdori bo‘yicha eng so‘ngi o‘rinlarda turadi. Chirindi tuproqda qanchalik kam ekan uning zichlashib borishi shunchalik yuqori darajada. So‘ngi

30-40 yillarda ekin dalalariga og‘ir texnikalarni kirishi va yerni o‘suv davrida 8-10 martagacha ishlashi oqibatida yerlar o‘ta qotirib yuborildi.

### **3.4. Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasini qo‘llanishi.**

Kuzgi shudgorni qanday chuqurlikda o‘tkazilishidan qat’iy nazar bahorda urug‘ ekish oldiga qo‘yilgan vazifalar butunlay boshqacha bo‘ladi. Bahorda yer yuza ishlov berish qurollari bilan yuza, 12-15 santimetr bo‘lgan chuqurlikda ishlash talab etiladi. Bunda yer yuza ishlanishi, yumshatilishi, donador holga kelishi, g‘ovak va yumshoq bo‘lishi zarur. Muhimi tuproqqa tushgan urug‘likni ko‘mishi kerak. Ko‘rinib turibdiki, bu davrda tuproqni chuqur ishlash talab etilmas ekan. Keyinchalik o‘simlikni o‘sib rivojlanishi bilan yer chuqur ishlash qurollari bilan chuqurroq ishlanib boriladi. Masalani ikkinchi tomoni shundaki yer kuzda haydalgandan keyin 90-110 kun davomida dam oladi deymiz. Bu to‘g‘ri va inkor etib bo‘lmaydigan holat. Ammo shu bilan bir vaqtida kuzgi va qishki yomg‘ir-qorlar natijasida yer bir oz qotib ham qoladi. Uning fizik xususiyatlari buziladi. Ma’lumotlarga qaraganda Respublikada qumoq, yengil mexanik tarkibli, qumli yerkarning umumiyligi maydoni 500-700 ming hektar atrofida ekan. Shu bilan bir qatorda ko‘p yillik begona o‘tlardan-qamish, ajriq, g‘umay, salomaleykum va boshqalardan xoli bir yillik o‘tlar tarqalgan ekin dalalarida tuproqni kuzda shudgor qilmasdan erta bahorda yuza ishlov berish qurollari bilan ishlov berish maqsadga muvofiqdir.

Ekinlar ekishga tayyorlashda noan’anaviy usullardan (chizel, kultivatsiya, borona) foydalanib qisqa muddatlarda yer tayyorlanadi (er tayyorlash uchun atiga 1,5-2,0 kun ketadi). Dastlab somon qoldiqlari yig‘ishtirib olindi. Dala kuzgi bug‘doydan keyin yengil sug‘orish me’yorida sug‘orildi. Bunda gektariga 500-600 m<sup>3</sup> suvni egat oralatib tez-tez oqizib olinadi. So‘ngra xo‘jalikdagi mavjud yuza ishlash qurollari–kultivatoridan (KRX-3,6) foydalanilgan holda yer 12-15 sm chuqurlikda yumshatildi. Tuproq ishlash davrida yumshoq va mayin qatlam hosil qildi. Urug‘ ekishdan oldin tuproq yuzasi ana shunday ishlansa yetarlik

hisoblanadi. Tuproq yuzasini yumshatish ekin ekishdan oldin o'tkaziladigan muhim agrotexnik tadbir bo'lib hisoblanadi. Yer tayyor bo'lganidan keyin takroriy ekinlar urug'ini ekishga kirishildi. Erta bahorda o'sib chiqqan begona o'tlar, oldingi yildan qolgan poyalari uyumlab mexanizatsiya ishlashiga xalaqit bermaydigan joyga chiqariladi. Dalani ekish uchun tayyor holatga keltirladi. Yumshatishda chuqur ishlashga yo'1 qo'yilmagani ma'qul. Aksincha kesaklar va palaxsalar hosil bo'ladi. Kultivatorlar bilan yumshatib chiqish jarayonida izidan mola bostirib o'tiladi. Bunda yirik-yirik kesaklar eziladi va yer urug' ekishga tayyor bo'ladi.

Yerni odatdagi usulda tayyorlashda uni kuzda 30-35 sm chuqurlikda shudgorlash amalga oshiriladi. Erta bahorda yer tayyorlash ishlariga kirishiladi. Bunda dastlab dalani chetlari va kuzda shudgor qilish natijasida hosil bo'lgan shudgor-marzalar chizel-kultivator yordamida chizellanadi. So'ngra dalaning dioganali bo'y lab ikki marta borona va mola bostiriladi. Agarda kuzgi shudgor ertangi muddatda o'tkazilgan bo'lib, begona o'tlar unib chiqqan bo'lsa, begona o'tlar ham chizel-kultivator yordamida chizellanib yo'qotiladi. Ushbu tadbirlar o'tkazilgandan keyin dala urug' ekishga tayyor bo'ladi. Shundan so'ng urug' ekishga kirishiladi. Bu esa juda ko'p vaqt va yoqilg'i moylash materiallarini sarfiga olib kelib, ortiqcha sarf-xarajatlarga sabab bo'ladi. Eng muhimi yerni zichlab uni fizik xususiyatlarini yomonlashtiradi.

**Chigit ekish.** Chigit ekishda seyalkalaridan jumladan- STX-4A va STX-4B markali seyalkalardan foydalanish yuqori samara beradi. Chigit ekish bilan lenta usulida gerbitsid sepiladi. Gerbitsid tuproqlarning mexanik tarkibidan kelib chiqib quyidagi me'yorda qo'llaniladi 1,2-1,4 kg/ga.

Yerga har 3-4 yilda bir marta chuqur ishlov berilib, keyingi yillari yuza ishlov berish (chizel, kultivatsiya, borona) qurollari bilan 12-15 sm chuqurlikda ishlanadi. Tuproq zichlashmaydi, uning mikroflorasi uchun muhit yomonlashmaydi, tuproq zarrachalari maydalanimukukunlashmaydi, g'ovaklik, zichlik, suv o'tkazuvchanlik, havo muhiti, donadorligi saqlanadi. Yerlarni kam xarajat texnologiyalar asosida

ishlash asosi yaratiladi, yoqilg‘i moylash materiallarini va xarajatlarni 20-25 % tejash imkoniyatini beradi.

Bu sohada tadqiqot olib borgan mualliflarning ma'lumotlari bo'yicha ananaviy usulda yer tayyorlangan dastlabki 4-variantda takroriy ekinlar vegetatsiyasi 105-110 kunni tashkil etib 20 oktyabrda pishib yetilgan. Noan'anaviy usulda, ya'ni yerga yuza ishlov berish qurollari bilan ishlov berilgan variantlarda vegetatsiya davri 90-96 kun bo'lgan va sentyabr oyining oxiri oktyabr oyining boshida hosil yig'ishtirib olingan. Olingan hosil bo'yicha ikkala usulda yer tayyorlash texnologiyasida keskin farq kuzatilmagan. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy usulda yer tayyorlangan dastlabki variantlarda takroriy ekinlar hosilini yig'ishtirib olish bilan bog'liq ishlarni cho'zilib ketishi hisobiga kuzgi shudgorlash muddati kechikib ketadi. Noan'anaviy usulda, ya'ni yerga yuza ishlov berish qurollari bilan ishlov berilgan variantlarda kuzgi shudgorni uz vaqtida o'tqazish imkoniyati to'liq saqlanib qoladi va kuzgi bug'doyni o'z muddatida ekish imkoniyatini yaratadi. Ikkinchidan, bir gektar ekin dalasini haydash uchun 35-40 litr yoqilg‘i va uni ikki marta diagonaliga ishlash uchun 25 litrda yoqilg‘i sarfini hisoblaganda, jami 85-90 litr yoqilg‘i sarflanib, mehnat xarajatlarini oshirib yuborar edi. Bu esa yetishtirilgan mahsulot tannarxiga o'zini ta'sirini ko'rsatmasdan qolmasdi.

An'anaviy usulda yer tayyorlashda moshdan 12,7 s/ga, loviyadan 21,1 s/ga, soyadan 16,6 s/ga hamda makkajo'xoridan 43,2 s/ga hosil olingan bo'lsa, noan'anaviy usulda yer tayyorlashda moshdan 13,9 s/ga, loviyadan 22,8 s/ga, soyadan 18,8 s/ga va makkajo'xoridan 46,4 s/ga hosil olindi. Yerga yuza ishlov berish qurollari bilan ishlov berilganda kuzgi shudgorni o'z vaqtida o'tkazish imkoniyati saqlanadi va kuzgi bug'doyni muddatida ekish imkoniyatini yaratadi.<sup>1</sup>

### **Nazorat savollari:**

#### **3.1.Resurstejovchi ishlov berishdan kutilgan maqsad.nimadan iborat?**

---

<sup>1</sup> Тўхташев Б.Ш.Ахмурзаев Тупроққа ишлов беришнинг минимал усули ва унинг аҳамияти. Республика илмий-амалий конференция материаллари, Тошкент 2015 й.

3.2.Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasining ahamiyati qanday?.

3.3.Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasini qanday yerlarda yuqori natija beradi?

3.4.Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasini qaerlarda qo‘llash mumkin?

3.5.Nima uchun tuproq unumdorligi kamayib boradi?

3.6.Kuzgi g‘alla ekinlaridan bo‘shagan maydonlarga qanday ishlov beriladi?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Paxtachilik spravichnik Toshkent 2016 yil.

2. Teshaev Sh., Nurmatov Sh., Muborakov A. va b. G‘o‘za parvarishida suv va manba tejovchi agrotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. – T., 2013.

3. Norqulov U.Sh.Axmirzaev,A. Saimbetov Dehqonchilik va melioratsiya fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlar. Toshkent 2019.

4. Artukmetov Z.A., Allanov X.K. Sug‘orishning yangi texnologiyalari va undan foydalanish. – T.: Toshkent Davlat agrar universiteti, 2010. – 116 b.

5. Egamberdiyev O., Nurbekov A. How to reduce spending and improve harvests, journal – Land Energy biodiversity. 3-6 page, Newsletter № 5. 01.12.2014

### **Internet manbalar:**

1. <https://www.youtube.com/watch?v=9-SLtX4Urlg>

2. <https://mover.uz/watch/wG0kOX5m/?list=N3b3QW7>

## **4-Mavzu: Organik dehqonchilikda tuproq unumdorligini yaxshilash, saqlash va oshirish.**

### **Reja:**

4.1.Tuproqdagi oziq elementlari va ularni o‘simlik hayotidagi ahamiyati.

4.2.Tuproq unumdorligini oshirishda organik o‘g‘itlarning roli.

4.3.Kompost ishlab chiqarishning bosqichlari va usullari.

4.4.Tuproq unumdorligini oshirishda sideratlarning roli va ahamiyati.

4.5.Go‘ng, mikrobiologik va mineral o‘g‘itlar.

### **4.1. Tuproqdagi oziq elementlari va ularni o‘simlik hayotidagi ahamiyati.**

Oziq moddalar va suv tuproq unumdorligining asosiy elementlari hisoblanadi. O'simliklarning bu elementlarga talabchanligi ekinlarning turiga, nava, rivojlanish fazasiga, hosildorligiga bog'liq. O'simliklarni oziq moddalar bo'lgan talabini qondirish organik dehqonchilikdagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

O'simliklar oziq moddalarni **tuproqdan, atmosferadan, gidrosferadan** va yorug'lik, issiqlikni esa fazodan oladi.


O'simliklar hayotida oziqlanish eng muhim faktorlardan hisoblanadi. Oziqlanish har qanday tirik organizmning, shu jumladan, o'simliklarning ham o'sish va rivojlanish asosidir. O'simliklar qancha normal oziqlansa, shuncha yaxshi o'sadi va rivojlanadi. Barcha o'simliklarning normal o'sishi va rivojlanishi uchun yorug'lik, issiqlik, suv va havo qancha zarur bo'lsa, oziq moddalar ham shuncha zarurdir. Ulardan birining o'rmini ikkinchisi bosa olmaydi<sup>2</sup>.

Organik dehqonchilik bilan shug'urlanadigan fermerlar tuproq unumdorligini saqlash maqsadida qoplama ekinlarni ekishmoqda va tuproqning organik tarkibini oshirib uning fizik xususiyatlari yaxshilamoqda. Qoplama ekinlar begona o'tlar kamayishi va foydali hasharotlar faoliyatini ta'minlab berishi mumkin. Mutaxasis fermerlar har bir imkoniyatda o'zlarining dalalarida qoplama ekinlarni joriy etmoqda, ba'zan bu imkoniyatlar vegetatsiyasi qisqa muddatli ekinlardan keyin yoki vegetatsiyasi uzoq davom etadigan o'simliklar orasida amalga oshirilmoqda. Bir qancha fermerlar yil davomida qoplama ekinlarni ekishmoqda. Katta fermer xo'jaliklari tez-tez almashlab ekishni amalga oshiradi. Bu esa o'z tarkibida ko'p yillik qoplama ekinlarni yoki yem-xashak o'simliklarni oladi.

---

<sup>2</sup> Азимбоев С.А. Дехқончилик тупроқшунослик ва агрокимё асослари. Тошкент.: Иқтисод-Молия 2006 й. 28-31 б.

### Ўсимликларни химиявий таҳлил қилиш натижалари, %



#### 4.1-rasm. O'simliklarni ximiyaviy tahlil qilish natijalari.

Ma'lumki, o'simliklar tarkibida 70 dan ortiq ximiyaviy elementlar mavjud. O'simliklarni ximiyaviy tahlil qilish tufayli umumiylashtirish massasining taxminan **45%** uglerod, **42%** kislorod, **6,5%** vodorod, **5%** kul va boshqa elementlarga to'g'ri kelishi aniqlangan. Tuproqda zarur oziq elementlardan birortasi yetishmasa, o'simlik normal o'sib rivojlanmaydi. Oziq moddalarni o'zlashtirish miqdori ekinlarning turiga, nавига, hosiliga va ular o'sayotgan sharoitga bog'liq bo'ladi (-rasmlar).



#### 4.2-rasm. Ekinlarning turiga qarab 1 т hosil bilan birga chiqib ketadigan mineral o'g'itlar (kg)

Mazkur ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, barcha qishloq xo'jalik ekinlari rejallashtirilgan hosilni shakllantirish uchun tuproqdan tegishli miqdordagi oziqani o'zlashtiradi. Organik dehqonchilik tizimiga o'tish bilan tuproqdagagi ushbu elementlarning miqdori keskin kamayib ketadi. Chunki, tuproqqa mineral o'g'it

kiritish to‘xtatiladi. Ana shu mineral o‘g‘it miqdorini o‘rnini bosish o‘simliklarni tabiiy omillardan qanday foydalanish jarayoniga bog‘liq bo‘ladi.

#### **4.2. Tuproq unumdarligini oshirishda organik o‘g‘itlarning roli.**

Har qanday o‘silikning o‘sish va rivojlanishi uchun tuproq muhim ob’ekt bo‘lib hisoblanadi. Dehqonchilikning turli rivojlanish davrlarda tuproq xususiyatlari haqida turli xil qarashlar bo‘lgan. Albatta bu qarashlar o‘siliklarni shu tuproqda o‘sishi va unda rivojlanishiga qarab nisbiy baholangan. Qaysiki o‘silik ushbu tuproqda yaxshi o‘sib rivojlanib hosil bergen bo‘lsa, bu tuproq yaxshi, aksincha esa yomon deyilgan. Ana shu va boshqa tomonlarini hisobga olib unumdar tuproq va unumsiz tuproq degan xususiyat paydo bo‘lgan desak yanglishmaymiz<sup>3</sup>.

Tuproq unumdarligi deganda, o‘silikni vegetatsiya davri davomida suv va oziq moddalariga bo‘lgan talabini doimo yetarli miqdorda qondirish xususiyati tushuniladi. Tuproq qanchalik unumdar bo‘lsa, o‘silik undagi elementlardan yaxshi ta’milanib, olinadigan hosil shunchalik yuqori bo‘ladi.

Tuproq unumdarligini tiklash va oshirishda nima uchun organik moddalar muhim ahamiyatga ega degan savolga javob bermoqchi bo‘lsak, dastlab 23-rasmga nazar tashlashimiz kerak bo‘ladi. Rasmning o‘zida bu savolga to‘liq javob berilgan.

Tuproq unumdarligi uning doimiy va hech o‘zgarmaydigan sifati emas. Yerga to‘g‘ri, oqilona ta’sir etganda, tuproqning unumdarligi uzluksiz oshib, ekinlardan muttasil yuqori hosil olishni ta’min etadi. Aksincha, yerga noto‘g‘ri ishlov berish, agrotexnika tadbirlarini pala-partish amalga oshirish esa tuproq unumdarligining pasayishiga va hosilning kamayishiga sabab bo‘ladi.

Tuproq unumdarligini saqlash har qanday qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Har qanday tuproqda yashaydigan juda ko‘p miqdordagi

---

<sup>3</sup> Зауров, Э.И., Ибрагимов Ф.А., Расулов А.А., Дехкончилик. Т.:1977. 18-26 б.

mikroorganizmlar tuproq oziq rejimini boshqarishda ishtirok etadi va o'simlikning ildiz tizimi atrofida uning normal o'sishi va rivojlanishi uchun muhitni ta'minlaydi. Shu sababli fermerlar tuuproqdan qishloq xo'jaligi ekinlari tomonidan o'zlashtirilgan oziqalarni doimiy ravishda to'ldirib, tuproqning unumdorligini saqlab turishlari kerak. Bunga sidderatlar (yashil go'ng) go'ng, har xil kompostlr va boshqa tabiiy o'g'itlar (masalan, fosfat tog' chiqindilari, kaliy koni materiallari) yordamida erishiladi.



#### 4.3-rasm. Tuproq uchun organik moddalarining ahamiyati.

Tuproqda oziq moddalarining tanqis bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularning tuproq tahlili orqali doimiy kuzatib borilishi kerak. Oziq moddalari kam bo'lgan tuproqlar ekinlarni yetishtirishni yoki tuproq unumdorligi uchun zarur bo'lgan foydali mikroorganizmlarning faol populyatsiyasini hosil qilishni ta'minlay olmaydi (24-25-rasmlar).

Qishloq xo'jaligining barqarorligini oshirish uchun suvdan samarali foydalanish va ekinlarni boshqarish bilan bir qatorda, unda sodir bo'ladigan biologik jarayonlar va tuproqning biologik xilma-xilligi tufayli yuzaga keladigan tuproq unumdorligi va uning fizik xususiyatlaridan optimal foydalanish va saqlash kerak.

Barqarorlik uzoq muddatli istiqbolda tuproq tirikligini, uning biologik faolligini va unumdorligini oshirishga yordam beradigan qishloq xo'jaligini joriy etish orqali ta'minlanadi.

## Тупроқ унумдорлигини қандай ошириш ва сақлаш керак



4.4-rasm. Tuproq unumdorligini oshirish omillari.

## Тупроқ унумдорлигига таъсир қилувчи омиллар



4.5-rasm. Tuproq unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar.

- kompost va vermicompost;
- sidderatlar yoki yashil go'ng;
- go'ng;
- mikrobiologik o'g'itlar;



#### **4.6-rasm. Tuproq unumdorligini oshirish uchun asosan organik o‘g‘itlardan foydalaniladi.**

Tuproq unumdorligini oshirish uchun beriladigan organik o‘g‘itlar asosan yuqorida keltirilgan bo‘lib, ularning har biri ham organik dehqonchilikda muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi. Tuproq tarkibidagi organik moddalarni ko‘paytirishda ham bevosita ularninig roli muhimdir. Bunda yerga kompost solish, o‘simlik qoldiqlarini tuproqqa aralashtirib yerga haydab yuborish, yerga organik o‘g‘itlar solish, yer betini o‘simliklar qoldiqlari bilan mulchalash, siderat o‘simliklarni ekib tuproqni boyitish va boshqalar o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi<sup>45</sup> (7-rasm.).

<sup>4</sup> Илка Гомес и Лиза Тивант. Органик дехқончилиқдан ўкув кўлланма. Бирлашган миллатлар ташкилотининг озиқ-овқат ва қишлоқ-хўжалиги ташкилоти (ФАО). Русс тилига Аветика Нерсисян таржимаси. Будапешт, 2017. 1-120 б.

<sup>5</sup> Ахмурзаев Ш.И. Тупроқни мулчалаш усууллари ва муддатларини ғўзанинг ўсиши, ривожланиши ва хосилдорлигига таъсири. Диссертация автореферати. 2018 й. 5-10 бетлар.

## Тупроқдаги органик мoddаларнинг таркибини қандай кўпайтириш керак?



4.7-rasm. Tuproq tarkibidagi organik moddalarini ko‘paytirish.

### 4.3. Kompost ishlab chiqarishning bosqichlari va usullari.

Kompost ishlab chiqarish bu-o‘simlik qoldiqlari, maishiy korxona chiqindilari, har xil chirindilar va chorva hayvonlari chiqindilarini chirindiga aylantirish jarayoni hisoblanadi. Kompost ishlab chiqarish jarayonida organik moddalarning nazoratsiz parchalanishidan farqli o‘laroq, biomaterial tez va yuqori haroratda parchalanadi, natijada yuqori sifatlari mahsulot paydo bo‘ladi.

Kompostni ishlab chiqarish jarayoni 3ta asosiy bosqichdan iborat: **harorat ko‘tarilishi,sovutish va pishib yetilish bosqichlari**. Biroq, bir bosqichning boshqasiga o‘tish jarayonini aniq belgilab bo‘lmaydi<sup>6</sup> (27, 28 va 29 rasmlar).

#### 1. Kompost haroratini ko‘tarish bosqichi:

- Kompost uchun hamma biomahsulotlar tayyorlangan paytdan boshlab uch kun ichida, parchalanadigan jarayonda harorati  $60-70^{\circ}\text{C}$  ga yetadi va odatda 2-3 haftagacha davom etadi. Organik moddalarning aksariyati harorat ko‘tarilish bosqichida parchalanadi.
- Kompost harorati osongina parchalanadigan materialni bakteriyalar tomonidan qayta ishlash paytida chiqarilgan energiya tufayli ko‘tariladi. Yuqori harorat kompost ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xos va juda muhim qismidir.

<sup>6</sup> Биогумус, Техникавий шартлар TSh 64-22559423-001: 2009 й.

Bu kasalliklar, ularni keltirib chiqaruvchilar, zararkunandalar va begona o'tlarni yo'q qilish uchun asos bo'ladi.

- Kompost ishlab chiqarishning ushbu bosqichida bakteriyalarning kislorodga bo'lgan talabi juda yuqori, chunki ularning soni tez o'sib boradi. Parchalanadigan materialning yuqori harorati yetarli miqdordagi kislorod bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi. Kompost uyumida havo yetishmasligi bakteriyalar rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi va kompost yoqimsiz hidga ega bo'ladi.<sup>2</sup>

- Sifatli kompost olish uchun yetarli namlik ham juda muhim, chunki u bakteriyalarni faolligini ta'minlaydi. Harorat ko'tarilish bosqichida suvga bo'lgan talab eng yuqori, chunki biologik faollik yuqori va mo'l-ko'l bug'lanish sodir bo'ladi.

- Harorat ko'tarilgach, parchalanadigan materialning rH darajasi ko'tariladi (ya'ni kislotalilik darajasi pasayadi).

## **2. Kompost haroratining sovish bosqichi:**

- Bakteriyalar oson hazm bo'ladigan barcha moddalarni qayta ishlagandan so'ng, kompost massasining harorati asta-sekin pasaya boshlaydi va u 25-45 ° S gacha tushadi.

- Harorat pasayganda zamburug'lar faollahadi, bu esa somon, tolalar va yog'och materiallarining parchalanishiga olib keladi. Bu jarayon sekinroq davom etadi, shuning uchun kompost massasining harorati ko'tarilmaydi.

- Harorat pasayganda kompost massasining rH kamayadi (ya'ni kislotalilik darajasi oshadi).

## **3. Kompostning tayyor bo'lish bosqichi:**

- Kompostning tayyor bo'lish bosqichida oziqa moddalarining minerallashuvi, kimyoviy kislotalar va antibiotiklarning to'planishi yuz beradi.

- Ushbu bosqichda kompost (kaliforniya qizil chuvalchang, qurtlari) har xil tuproq organizmlari bilan to'ldiriladi.

- Ushbu bosqich oxirida kompost hajmi dastlabki hajmning yarmiga teng, u qorong'u, unumdon tuproq bilan bir xil bo'lib, foydalanishga tayyor bo'ladi.

- Tayyor bo‘lgandan keyin kompost qancha uzoq saqlansa, u o‘g‘it kabi sifatini yo‘qotadi. Shu bilan birga, uning tuproq tarkibini yaxshilash qobiliyati kuchaymaydi.

- Tayyor bo‘lish bosqichida kompostga bo‘lgan ehtiyoj harorat ko‘tarilish darajasiga qaraganda past bo‘ladi (7-rasm).

Kompost ishlab chiqarish jarayonida ma’lum bir muammolar ham yuzaga keladi, jumladan haroratni keskin ko‘tarilib ketishi yoki uning aksi kabi holatlar sodir bo‘lishi mumkin. Bunday holatda vaziyatdan chiqish choralarini izlanadi (4.8 rasm).

#### **Компостни ишлаб чиқариш жараёни – чиқиндиларнинг гумусга айланиши**



**4.8-rasm. Kompost ishlab chiqarish jarayonida haroratni o‘zgarish bosqichlari.**

## Компост тайёрлаш босқичлари



### 4.9-rasm. Kompost tayyorlash bosqichlari.

Компостни ишлаб чиқариш жараёнида юзага келадиган муаммолар ва уларни ҳа

**Тупроқ билан  
коплаш**

Ташхиз	Муаммо	Бўлиши мумкин бўлган камчилликлар	Тупроқ билан коплаш
Ҳарорат кўтарилимаса	Микроорганизмлар ривожлана олмайди	<ul style="list-style-type: none"> <li>Маҳсулот жуда куруқ ёки жуда нам.</li> <li>Ҳавонинг етишмаслиги ёки ортиқча бўлиши.</li> <li>Азот ва углероднинг нотўғри нисбати.</li> <li>Жуда кўп ер майдони.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Сув ёки мочавена билан намлантариши.</li> <li>Ҳаво жуда зичланмасин.</li> <li>Янги ишил материал ёки гўнг билан аралаштиринг</li> </ul>
Ҳарорат кескин пасайса	Ҳосил бўлиш жараёни тўхтайди	<ul style="list-style-type: none"> <li>Маҳсулот жада куриб колади</li> <li>Барча азот истемол килинади</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Сув ёки мочавена билан намлантариши.</li> <li>Азотта бой материалларни кўшиш</li> </ul>
Чириб кетадиган материаллар оқ чангга айланса	Қўзикоринлар жуда фаол ривожланади	<ul style="list-style-type: none"> <li>Материал жуда куруқ</li> <li>Материал тез аралашади.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Тез-тез аралаштириб туриш керак.</li> <li>Сув ёки мочавена билан намлантариши.</li> <li>Азотта бой материалларни кўшиш</li> </ul>
Компост массаси қора-яшил эга бўлади; ёқимсиз хидга эга бўлади.	Компост масса бузилади	<ul style="list-style-type: none"> <li>Ҳаво етишмаслиги ва структура бузилиши</li> <li>Азот ва углеводни нисбати жуда паст</li> <li>Маҳсулотнинг тарзибада намлик жуда кўп.</li> <li>Маҳсулот жуда ёмон аралаштирилган.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Азотта бойитиб уюмни кайта тўйлаш.</li> <li>Ҳарорат кўралиш жараёнида компостни тез-тез аралаштириб туриш</li> </ul>

### 4.10-rasm. Kompost ishlab chiqarish jarayonidagi muammolar.

#### 4. Turli xil tizimlar va usullar:

**Kompost ishlab chiqarishni "doimiy" yoki "vaqtি-vaqtি" bilan amalga oshirilishi mumkin:**

- Vermikompost** - bu har xil chuvalchanglar (Kaliforniya qizil chuvalchangi, yomg‘ir chuvalchangi va boshqalari ishtirokida) va qurtlardan foydalangan holda kompost tayyorlash usuli. Chuvalchanglar kompostning tayyor bo‘lish jarayonini

tezlashtiradi, organik mahsulotlarni kislorod bilan to‘yintiradi va hosil bo‘lgan kompost tarkibidagi oziqa moddalari va fermentlarni ko‘paytiradi



**4.11-rasm. Chuvalchanglar ishtirokida tuproqda organik modda hosil bo‘lish jarayoni.**

#### **4.4. Tuproq unumdorligini oshirishda sideratlarning roli va ahmiyati.**

**a) Siderat (o‘g‘itlar) ekinlar.** Bu ekinlar o‘sish va rivojlanish davrida tuproqda juda ko‘p miqdorda biomassa qoldiradi va ularni tuproqqa qo‘shib haydab yuborish hisobiga tez chirib tuproqning organik qismini boyitib, o‘smliklar uchun tayyor oziqa manbaiga aylanadi. Ularga javdar, xashaki no‘xat, vika, china, tritikale, raps, perko, arpa, sudan o‘ti va boshqalarni kiritish mumkin.

O‘smliklar maksimal miqdordagi biomassa to‘planganida, ularni maydalab tuproqqa kiritiladi. Sideratlarni odatda gullashdan oldin yig‘ishtirilganligi sababli (yashil go‘ngni )ularni yetishtirish dukkakli ekinlarni almashlab ekishdan farq qiladi. Tuproqqa qo‘llangandan so‘ng, yangi o‘smlik moddasi oziqaviy moddalarni tezda chiqaradi va juda qisqa vaqt ichida butunlay parchalanadi. Eskirgan yoki qattiq materiallar (masalan, somon, novdalar va boshqalar) yumshoqroq materiallarga qaraganda sekinoq parchalanadi. Shuning uchun uning parchalanishi hosilni o‘g‘itlashdan ko‘ra tuproqda organik moddalar to‘planishiga ko‘proq hissa qo‘sadi<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> Саттаров Ж.,Холмуродова Р. Биологик дехқончилик ва ноанъанавий ўғит.Агрокимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини. 2017 й. №4. 7-9 б.

Sideratlar fermer xo‘jaligida almashlab ekish tizimiga kiritiladi.U almashlab ekish tizimining tarkibiy qismidir. Organik dehqonchilikda fermer tuproqni organik o‘g‘itlar bilan boyitishda sideratlarda yuqori darajada foydalanadi. Sideratlar tarkibida atmosferadan azotni o‘zlashtiradigan dukkakli o‘simliklarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Aksaryat hollarda fermer yangi o‘simlik mahsulotlarini olish uchun sideratlar (yashil go‘ng) ekish shart emas: o‘simlik materialari boshqa joylarda to‘planishi va keyin tuproqqa kiritilishi mumkin (xorij ma’lumotlaridan). Masalan, organik o‘g‘it yoki mulcha sifatida mos o‘simliklarining katta miqdorini agro-o‘rmonzorlarda ekinlar yaqinida o‘sadigan daraxtlar va butalardan yig‘ib olish mumkin (4-12-rasm).

**Фермер хўжалигига биомассани қандай ишлаб чиқариш керак.**



Сидерал шудгорни сидерал экинлар экиш билан боғлаб олиб боринг

Тупроқни доимий равищада ўсимлик қоплами билан банд этинг

Ем-хашак экинларини етиширишни жорий этинг

**4 12-rasm. Fermer xo‘jaliklarida biomassa ishlab chiqarish.**

### 1. Siderat ekinlarni afzalliklari:

- Siderat ekinlarni ildizlari tuproqqa kirib, uni yumshatadi va aks holda yuvilib ketadigan oziqaviy moddalarni o‘zida ushlab qoladi.
- Ular begona o‘tlarning o‘sishiga to‘sinqilik qiladi va tuproqni eroziya hamda quyosh nurlaridan himoya qiladi.
- Agar dukkaklilar sideratlar sifatida ekilib yashil go‘ng o‘rnida ishlatilsa, azot havodan tuproqqa o‘zlashtiriladi.

- Ba’zi siderat (yashil go‘ng) ekinlarini yem-xashak o‘simpliklari sifatida ishlatish mumkin yoki hatto ularni iste’mol qilish ham mumkin (masalan, loviya va no‘xat).
- Sideratlarni chirish jarayonida (yashil go‘ngning) parchalanishi natijasida barcha turdag'i oziqa moddalari asosiy ekinni o‘zlashtirish uchun maqbul kombinatsiyada chiqariladi va bu o‘simplikning mahsuldarligini oshiradi.
- Yashil o‘simpliklarini ekilishi tuproq organizmlarining faolligini oshiradi va tuproqda organik moddalar to‘planishiga yordam beradi. Shunday qilib, tuproqning tuzilishi yaxshilanadi va namlikni ushlab turish qobiliyati oshadi.
- Fermer xo‘jaligi uchun sideratlar (yashil go‘ng) tuproq unumdarligini oshirish va asosiy ekinlarni oziqa moddalari bilan ta’minlashning arzon usulidir<sup>8</sup>.

## **2.Sideratlar (yashil o‘simpliklarni) yetishtirishdan oldin hisobga olinadigan omillar:**

- Ekinni ekish uchun ko‘p mehnat talab etiladi, ayniqsa ishchi kuchi va mexanizatsiya yetishmasa.
- Agar siz asosiy ekin bilan birga sideratlarni (yashil go‘ngni) parvarish qilsangiz, ular oziqa, suv va yorug‘lik uchun raqobatlashadi.
- Agar tuproqqa eskirgan yoki qattiq o‘simplik moddasi kiritilsa, azotning vaqtinchalik immobilizatsiyasi yuz berishi mumkin, bu esa o‘simplik o’sishiga yordam bera olmaydi.
- Agar oziq-ovqat yoki qishloq xo‘jaligi yerlari yetishmovchiligi bo‘lsa, yashil go‘ng o‘rniga ekinlarni yetishtirish, shuningdek o‘simplik qoldiqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yoki asosiy ekin qatorlari orasiga siderat ekinlarni ekish mumkin.
- Sideratlarni (yashil go‘ngning) foydasi har doim ham darhol sezilmaydi, ba’zida ular uzoq vaqt dan keyin paydo bo‘ladi.

## **3. Siderat ekinlardan qanday foydalanish kerak.**

### **a) Siderat ekinlarni ekish:**

<sup>8</sup> Тўхтапов Б., Тошпулатов Ч., Ўзбекистонда органик қишлоқ хўжалигини ривожлантириш-давр талаби. АГРО ИЛМ.2019й.№2, 96-98 б.

- Siderat ekinni almashlab ekishda ekish vaqtini to‘g‘ri tanlab olish kerak, chunki ekish vaqtini to‘g‘ri tanlash hisobiga ularni tuproqqa maydalab tashlash va yerni shudgorlash vaqtি o‘rtasida oraliq yuzaga kelmasligi kerak. Aksincha bu muddatlar hisobga olinmasa sideratlar tuproqqa ko‘milmasdan ochiq havoda qolib ketadi va ularning foydali ta’siri bo‘lmaydi.
- Urug‘larning unib chiqishi va yashil o‘simplikni (go‘ngning) o‘sishi uchun suv kerak.
- Optimal ko‘chat qalinligiga erishish muayyan sharoitlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Bu tanlangan o‘simplik turiga bog‘liq.
- Umuman olganda, qo‘sishimcha o‘g‘it qo‘llashning hojati yo‘q. Agar dukkaklilar dala maydonida birinchi marta o‘stirilsa, dukkakli o‘simpliklar azotni biriktirishdan foyda olish uchun urug‘larni rizobium bakteriyalari bilan innokulyatsi (yuqtirish) qilishi kerak bo‘ladi.

### **b) Siderat o‘g‘itlarni tuproqqa qo‘llash.**

- **Muddati:** Siderat o‘g‘itlarni (yashil go‘ngni) tuproqqa aralashtirib tashlash bilan keyingi ekinni ekish o‘rtasidagi vaqt 2-3 haftadan oshmasligi kerak, bunda parchalanadigan yashil go‘ngdan oziqaviy moddalar yo‘qoladi.
- **Parchalanish:** Siderat o‘simpliklar o‘rilgandan keyin hali qotib ulgurmagan bo‘ladi va dastlabki rivojlanish bosqichda tuproqqa oson tushadi. Agar siderat ekinlar (yashil go‘ng)ning bo‘yi baland yoki biomassasi ko‘p va kletchatka qismlarga ega bo‘lsa, uni tezroq parchalanishi uchun maydalash tavsiya etiladi. O‘simplik qancha ko‘p biomassaga ega bo‘lsa, parchalanish jarayoni uzoqroq bo‘ladi. Siderat ekinlarni (yashil go‘ngni) tuproqqa aralashtirishning maqbul vaqtি gullashdan oldin hisoblanadi. Chunki bu davrda ko‘p biomassa hosil qiladi.
- **Tuproqqa ko‘mish chuqurligi:** Siderat ekinlarni ildiz qismi tuproqqa chuqurroq kiritilmasligi kerak. Aksincha, ularni tuproq yuza qatlamiga kiritish kerak (5-15 sm chuqurlikka - og‘ir mexanik tarkibli tuproqlarga, 10-20 sm chuqurlikka - yengil mexanik tarkibli tuproqlarga). Issiq va nam iqlim sharoitida

o'simlik mahsulotlari tuproq yuzasida mulchalash qatlami sifatida ham qoldirilishi mumkin<sup>910</sup> (13-rasm).

#### Седерат ўғитлардан фойдаланиш босқичлари



**4.13-rasm. Siderat ekinlardan foydalanish bosqichlari.**

#### v) Siderat ekinlarni tanlash:

Yashil o'g'it sifatida siz juda ko'p turli xil o'simliklardan, xususan dukkakli ekinlardan foydalanishingiz mumkin. Siderat ekinlarning to'g'ri turni tanlash juda muhimdir. Tanlashning eng muhim sharti ularning hozirgi o'sib borayotgan sharoitga moslashishi, ayniqsa yog'ingarchilik va tuproq muhitiga. Siderat ekinlar almashlab ekishda foydalanish uchun mos bo'lishi, kasallik yoki zararkunandalarni boshqa ekinlarga yuqtirish xavfini tug'dirmasligi kerak<sup>11</sup> (4.13-rasm).

<sup>9</sup> Ҳалқаро ривожланиш учун фан ва технологиялар бўйича кенгаш (БОСТИД) маълумотлари асосида, 1981; ФАО, 2001).

<sup>10</sup> Холиков Б., "Янги алмашлаб экиш тизимлари ва тупроқ унумдорлиги" Ноширлик ёғдуси нашриёти. Т.: - 2010 й. 31-716. 120 б.

<sup>11</sup> Ҳалқаро ривожланиш учун фан ва технологиялар бўйича кенгаш (БОСТИД) маълумотлари асосида, 1981; ФАО, 2001).

## Энг зўр (идеал) сидерал экинларниң хусусиятлари



**4.14-rasm. Asosiy siderat ekinlarning xususiyatlari.**

**Yashil o‘g‘itlar:** Fermerlar o‘g‘it sifatida dukakli ekinlarning qoldig‘i tuproq unimdorligini oshirishadi deb katta ishonchga ega edilar.



Almashlab ekish va o‘simglik qoldiqlarini tuproqqa ko‘mish tuproq unimdorligini tiklash uchun qo‘llanilgan. Hayvonot olami jumladan, yomg‘ir chuvalchanglari tuproqning fizik xossalalarini

**4.15-rasm. Yuqori agrotexnik talablar darajasida tayyorlangan dala.**

yaxshilash uchun foydalanilgan, kompostlarni tayyorlash amaliyoti ham qadimgi adabiyotlarda bayon qilingan, hamda dehqonchilik olib borishning ideal usullariga bag‘ishlangan.

Almashlab ekish oziq moddalarni samarali o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratadi. Fermerlar qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish tizimining mahsuldarligini oshirish va ekinlarni yaxshi o‘sishini ta’minlash uchun odatda uch yoki to‘rt yilda ekinlarni almashtirishadi. Ko‘p yog‘in yog‘adigan yerlarda ang‘iz

bilan mulchalash qo'llaniladi. Mulchalash tuproqda organik moddalar miqdori va tuproq unumdorligini oshirishda bitta muhim omil hisoblanadi.

Organik o'g'itlar, asosan, go'ng yerlarni madaniylashtirishda muhim rol uynaydi. Ma'lumki, go'ng va boshqa mahalliy o'g'itlar bilan yerga ko'plab mikroorganizmlar tushadi va ular ham tuproqni madaniylashtirishda katta ahamiyatga ega.

Tuproq unumdorligi va madaniyligiga uning singdirish qobiliyati, tuproq eritmasining reaksiyasi va tuproqdagagi oziq moddalarning miqdori kabi agroximiyaviy xususiyatlarning ham ta'siri katta.

#### **4.5. Go'ng, mikrobiologik va mineral o'g'itlar:**

##### **a) Go'ng**

Chorva mollari barqaror (vaqtı-vaqtı bilan yoki doimiy) saqlanishiga qarab, go'ng va to'shamalar hosil qiladi (odatda somon yoki o't). Organik dehqonchilikda go'ng juda qimmatli organik o'g'itdir.

##### **Go'ngning ba'zi xususiyatlari va ta'siri:**


- U ko'p miqdorda oziqa moddalarni o'z ichiga oladi.
- Hayvonlar siydikidagi azot o'simliklar tomonidan tezda o'zlashtiriladi.
- Go'ng va siydikni aralashtirish orqali o'simlik oziqalarining muvozonatli manbai olinadi. Go'ng tarkibida kimyoviy o'g'itlar kabi fosfor va kaliy mayjud. Fosfora boy, tovuq go'ngi. Shu bilan birga, tovuq go'ngining kelib chiqishini bilish muhimdir, chunki tovuq go'ngi og'ir metallarni o'z ichiga oladi (37-rasm).
- Organik o'g'itlar tuproqda organik moddalar to'planishiga va shu bilan tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi.

##### **► Go'ng tarkibi uning turlariga qarab quyidagicha:**

##### **► Turli mahalliy o'g'itlar tarkibidagi azot, fosfor va kaliy miqdori (kg hisobida)**

► O'g'it turi 1 t o'g'it tarkibida, kg:	N	P2O5	K2O
► Quruq qo'y qiyida	16,0	5,0	14,0
► Ho'l qo'y qiyida	8,0	2,5	7,0
► Ot go'ngida	6,0	3,0	5,0
► Qoramol go'ngida	4,0	2,5	5,0
► Cho'chqa go'ngida		4,0	2,0
► Har xil mollarning aralash go'ngida	4,0	2,0	5,0
► 2/3 hissa tuproq to'shamasi			6,0

► aralashgan go‘ngda	1,8	0,9	2,0
► Shuning o‘zi, lekin to‘shama tuproq			
4/5 hissa aralashtirilgan go‘ngda	1,1	0,6	1,2
Yangi qir tuprog‘i, ariq loyqasida	0,6	1,2	0,7
Hojatxona ahlati	6,0	2,0	2,0
Ipak qurti chiqindisida: quritilganda	50,0	10,0	
Ho‘lligida	25,0	5,0	
Parrandaning quruq go‘ngida	34,0	16,0	8,0



#### 4.16-rasm. Yangi go‘ngning ximiyaviy tarkibi, % hisobida.

Organik dehqonchilikka o‘tgan fermerlar uchun chorva mollarining go‘ngini yig‘ish, saqlash va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chorva mollarini tagiga to‘shamalar solinganda go‘ng tarkibi o‘zgaradi. Sutkasiga har bir bosh qoramol va ot tagiga 3-6 qo‘y va echki tagiga 0,5-1,0, cho‘chqa (bolalari bilan) tagiga 6-8 kg to‘shama solish kifoya qilinadi. Fermer xo‘jaligida, aholi xonadonlarida 1 yilda hosil bo‘lgan go‘ngni hisoblab chiqish uchun mollardan 1 sutkada olinadigan go‘ng miqdori aniqlanadi (37-rasm).

- **Savol:** Bir yilda bir bosh moldan qancha go‘ng olinishi mumkin?
- **Javob:** Bir bosh moldan olinadigan go‘ng miqdori ularnng turiga, yoshiga qarab o‘zgaradi.

► To'shama solinganda 1 bosh moldan sutkasiga va 1 yilda olinadigan go'ng miqdori

► Mol turi	Go'ng miqdori, kg (sutkada)	Bir yilda 1 boshdan go'ng miqdori, 1 t
► Qoramol	15-20	5,5-7,3
► Buzoq	5-10	1,8-3,6
► Ot	15-20	5,5-7,3
► Toy	5-10	1,8-3,6
► Qo'y va echki	1,5-2,5	0,5-0,9
► Cho'chqa	1,2-2,5	0,5-0,9

**b) Go'ngni saqlash tartibi.**

Og'ilxonalardan yig'ib bo'lgandan keyin yuqori sifatli go'ng olish uchun uni bir muncha vaqt saqlashga qo'yish tavsiya etiladi. Eng yaxshi sifatli go'ng kompostlash natijasida olinadi. Anaerob sharoitida saqlanadigan go'ng (masalan, suv bilan to'ldirilgan xandaklar, o'ralarda) yuqori sifatga ega emas.

Agar chorva hayvonlari molxonada saqlansa, go'ngni yig'ish oson. Go'ngni quruq o'simlik materiallari (somon, o't, o'simlik qoldiqlari, xazon, barglar va boshqalar) aralashmasini qo'shib saqlash kerak, bu suyuqlikni o'ziga ko'proq singdiradi. Somon maydalanganda yoki uni aralashmasi ko'proq namlikni o'zida ushlaydi.

Go'ng odatda molxonalarda yoki chuqurliklarda (xandaklar ichida) saqlanadi. Shuningdek, go'ng yangi bo'lsa, molxonada to'shak sifatida saqlash mumkin. Har qanday holatda, go'ngni quyosh, shamol va yomg'irdan himoya qilish kerak. Oziqa moddalarining yo'qolishining oldini olishda ularni, qurib qolishdan saqlanish kerak. Saqlash joyi havo o'tkazmaydigan, shamoldan himoya qilingan va yopiq joy bo'lishi kerak. Ochiq va shamolli havoda qoldirilgan go'ngdagi azot tezda uchib ketish xususiyatiga ega. Ayrim hollarda suyuqq go'ngdan oqib chiqadigan suyuqlikni toplash uchun xandaq qazish kerak, uni behuda oqizib yubormaslik

choralarini ko‘rish zarur, chunki uning tarkibida juda ko‘p oziq elementlari mavjud bo‘ladi<sup>12</sup>.

Uyumlarda go‘ngni saqlash qurg‘oqchil hududlarda va quruq mavsumlarda ayniqsa qulay usuldir. Go‘ng saqlanganda qurib qolish xavfi va namlab turishga ehtiyoj kamayadi. Biroq, chuqurni suv bosish xavfi ko‘proq va uni qazish uchun ko‘proq kuch sarflash kerak. Go‘ng saqlash uchun to‘qson santimetr chuqurlikda qaziladi, uning pastki qismida qiyalik mavjud bo‘ladi. Go‘ng har 30 sm.da. yengil tuproq qatlami bilan yopiladi chuqurlik yer sathidan o‘ttiz santimetr balandlikka ko‘tarilgunga qadar to‘ldiriladi va keyin u o‘n santimetr tuproq qatlami bilan qoplanadi.

Oziq moddalar yo‘qolishining oldini olish uchun go‘ngni namlik me’yorida saqlanish kerak. Go‘ngning namligini boshqarish uchun siz quyidagi xususiyatlardan foydalanishingiz mumkin (38-rasm):

- Oq rangili zamburug‘lar paydo bo‘lishi (iplar yoki oq dog‘lar) go‘ng juda quruq ekanligini va suv yoki siydik bilan namlash kerakligini ko‘rsatadi.
- Sariq-yashil rang yoki yoqimsiz hid go‘ngda haddan tashqari namlikni va yetarli darajada havo almashinishini yo‘qligini ko‘rsatadi.
- Go‘ngning jigarrang yoki qora rangda bo‘lishi u uchun optimal sharoitning maqbulligini anglatadi.

#### v) Mikrobiologik o‘g‘itlar.

Mikrobiologik o‘g‘itlar ko‘p jihatdan organik materiallardan va ba’zi shakar yoki kraxmal manbalaridan iborat, ularning fermentatsiyasi bir vaqtning o‘zida maxsus mikroorganizmlar tomonidan amalga oshiriladi. Olingan mahsulotlar tirik organizmlardan iborat, shuning uchun ularni ehtiyyotkorlik bilan ishlatish kerak. Amal qilish muddati tugaganidan keyin mikrobiologik asoslarda tayyorlangan o‘g‘itlarni ishlatmaslik kerak, chunki ularning tarkibidagi tirik organizmlar allaqachon nobud bo‘lishi mumkin.

---

<sup>12</sup> Илка Гомес и Лиза Тивант. Органик деҳқончиликдан ўқув қўлланма. Бирлашган миллатлар ташкилотининг озиқ-овқат ва қишлоқ-хўжалиги ташкилоти (ФАО). Русс тилига Аветика Нерсисян таржимаси. Будапешт, 2017. 1-120 б.

Mikroorganizmlardan foydalanish ma'lum darajada o'rganilgan va ularning ijobiy ta'siri tasdiqlanishi mumkinligiga qaramay, ularni amaliy qo'llash tajribasi hali ham oz. Shaxsiy mahsulotning ta'sirini aniqlash uchun avval uni kichik hududda sinab ko'rish va ishlov berilmagan hududda olingan natijalar bilan taqqoslash tavsiya etiladi. Shuni esda tutish kerakki, mikrobiologik o'g'itlar xo'jalik tuproqidagi chirindi miqdorini kerakli darajada ta'minlash uchun to'liq o'rmini bosa olmaydi.

Mavjud bo'lgan o'g'itlarda topilgan bakteriya va zamburug'larning aksariyati odatda tuproqda bo'ladi. Shuning uchun mikrobiologik inokulyatsiyalarning kiritilishi ma'lum organizmlarning sonini ko'paytiradi. Ba'zi fermerlar tejash maqsadida o'zлари mikrobiologik o'g'itlar ishlab chiqaradilar (19-rasm).



1. 400 килограм гўнг (қора мол, парранда, қўй ва эчки)
2. 400 кг. Сомон, шоли похоли
3. 400 кг. Унумдор тупроқ
4. 120 кг. Кўмир кули
5. 20 кг. Чорва чиқиндиси
6. 225 литр сув

#### **4.17-rasm. Mustaqil holda qanday qilib biologik o'g'it tayyorlash mumkin?**

Faqat mikroorganizmlarning mavjudligi minerallashish orqali tuproqning oziqaviy tarkibini oshiradi. Boshqalarning mavjudligi azotni uni atrof-muhitdan o'zlashtirish orqali oshiradi. Masalan, *Rhizobium* va *Azotobacter* zotli bakteriyalar shu tarzda harakat qilishadi. Boshqa mikroorganizmlardan, masalan, mikorizal zamburug'lardan foydalanish o'simliklarni fosfor bilan ta'minlaydi. *Azospirillum* va *Azotobacter* bakteriyalari azotni biriktiradi. *Pseudomonas* jinsining turlari bu o'simliklarning ildizlaridan oqib chiqadigan yoki ular o'lib ketganda juda ko'p miqdordagi birikmalarni ishlatishi mumkin bo'lgan bakteriyalardir. Ular fosforni

eriydigan shaklga aylantirishi va tuproq orqali o'simlik kasalliklarini rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin<sup>13</sup> (20-rasm).

 http://organicsolitechnology.com/?s=rhizobia	 ©FAO/ Shu Pankratz	 ©FAO/Berkeley Trust	 ©FAO/ Dennis Kunkel Microscopy	 ©FAO/Chapman & Hall
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Бактерия</li> <li>• Дуккакли экинлар илдизи атрофида симбиоз ҳолда яшайди</li> <li>• Атмосферадан азотни ўзлаштиради</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Бактерия</li> <li>• Тупроқда эркин ҳолатда яшайди</li> <li>• Атмосферадан азотни ўзлаштириши мумкин</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Бактерия</li> <li>• Тупроқда яшайди</li> <li>• Атмосферада н азотни ўзлаштириши мумкин</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Бактериялар гурухи</li> <li>• Тупроқдан мураккаб мoddаларни ўзлаштиради</li> <li>• Кўп функцияларни бажаради. Масалан: фосфорни ўсимликлар томонидан осон ўзлаштирадиган формага ўтказади</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Замбуург</li> <li>• Ҳамма ўсимликлар илдизида симбиоз яшайди</li> <li>• Ўсимликларни сув ва озиқа элементларни ёрдамлашади</li> <li>• Тупроқ структурасини яхшилайди</li> </ul>

#### 4.18-rasm. Mikrobiologik o'g'itlar hosil bo'lish jarayonida ishtirok etuvchi bakteriyalar.

##### ye) Mineral o'g'itlar

Organik qishloq xo'jaligida foydalanish uchun tasdiqlangan mineral o'g'itlarning asosini ezilgan tabiiy jinslar tashkil etadi. Biroq, ular faqat organik o'g'itlarga qo'shimcha sifatida ishlatalishi mumkin. Agar ushbu o'g'itlarda osон hazm bo'ladigan oziqa mavjud bo'lsa, ularni qo'llash tuproq organizmlarining hayotiy faoliyatini buzishi va o'simliklarning muvozanatsiz ovqatlanishiga olib kelishi mumkin. Ba'zi hollarda mineral o'g'itlardan foydalanish ekologik nuqtai nazardan oqlanmasligi mumkin, chunki ularni yig'ish va tashish energiya talab qiladi, ba'zi hollarda tabiiy yashash joylari yo'q bo'lib ketishi mumkin.

Tuproqni o'g'itlash va uning fizik xususiyatlarini yaxshilash uchun foydalanishga ruxsat berilgan moddalar ro'yxati qo'shimcha adabiyotlarda keltirilgan.

##### Nazorat savollari:

1. Tuproqdagi oziq elementlari manbalari nimadan iborat?
2. Oziq elementlarining o'simlik hayotidagi ahamiyati.
- 3.O'simliklar tomonidan oziq elementlarini qanday o'zlashtiriladi?
4. Mikroelementlar o'simlik hayotida qanday rol o'ynaydi?

<sup>13</sup> Илка Гомес и Лиза Тивант. Органик дехқончиликдан ўқув қўлланма. Бирлашган миллатлар ташкилотининг озиқ-овқат ва қишлоқ-хўжалиги ташкилоти (ФАО). Русс тилига Аветика Нерсисян таржимаси. Будапешт, 2017. 1-120 б.

5.Tuproq oziq rejimini boshqarishda organik moddalarva mikroorganizmlarnig roli nimsadan iborat?

6.Tuproqning oziq rejimini qanday yaxshilash mumkin?

7. Go‘ngni fermer xo‘jaliklarida qanday saqlash mumkin?

8.Kaliforniya chuvalchanglari ishtirokida gumus qanday hosil qilinadi?

### **Tavsiya etiladiga adabiyotlar:**

1.Axmurzaev Sh.I. Tuproqni mulchalash usullari va muddatlarini g‘o‘zaning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri. Dissertatsiya avtoreferati. 2018 y. 5-10 betlar.

2. Artukmetov, H.Sheraliev. Ekinlarni sug‘orish asoslari. Darslik. T.: O‘zb. Faylasuflar milliy jamiyati nashiryoti, 2007.- 182-198 b.

3. Ilka Gomes i Liza Tivant. Organik dehqonchilikdan o‘quv qo‘llanma. Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq-xo‘jaligi tashkiloti (FAO). Russ tiliga Avetika Nersisyan tarjimasi. Budapesht, 2017. 1-120 b.

. Nazarov N, Mirzajonov K, Ibragimov O, Isaev S. Dehqonchilikning tejamkor texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T. 2014 yil 179 b

4. Niyazaliev M., Mirzaev L.”Organo-ma’dan kompostlar-yer quvvati” O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi.jurnali. 2009 y. 2-son.

5. Sattarov J.,Xolmurodova R. Biologik dehqonchilik va noan’anaviy o‘g‘it.Agrokimyo himoya va o‘simliklar karantini. 2017 y. №4. 7-9 b.

6. Tuxtashhev B.B, Norqulov U, Izbosarov B E. Technology of growing beetroot in saline soils. International Journal of Research Development Solid State Technology (Volume: 63) (Issue: 5) (Publication Year: 2020)

7. To‘xtashev B., Toshpulatov Ch., O‘zbekistonda organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish-davr talabi. AGRO ILM.2019y.№2, 96-98 b.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI:**

### **1-Mavzu:Tomchilatib sug‘orishda suv sarfini hisoblash.**

**Maqsadi va vazifasi:** Ushbu amaliy mashg‘ulotda tinglovchilar tomchilatib sug‘orishda ekinlarni sug‘orish uchun sarf etiladigan suv miqdorini mustaqil holda hisoblab chiqadilar.Suv miqdorini hisoblashda berilgan ma’lumotlardan foydalaniladi.Hisoblash ishlari guruhlarga bo‘linib olib boriladi. Bunda tinglovchilar yangi pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanadilar.

**Topshiriqlar quyida tavsiya etilgan ma’lumotlar asosida bajariladi:** Tomchilatib sug‘orishda suv o‘simlikning talabiga mos ravishda kerakli miqdorda beriladi, sug‘orish texnikasi foydali ish koeffitsienti 98 foizgacha oshirishga imkon yaratilib, 50 foizgacha suv tejaladi.

Tomchilatib sug‘orishda mineral o‘g‘itlarni o‘zlashtirish darajasi 90–95 foiz bo‘ladi.

Mineral o‘g‘itlar sarfi g‘o‘za ekini uchun o‘rtacha 1 hektar maydonga 250 kg azot, 100 kg fosfor, 50 kg kaliyga to‘g‘ri keladi. Bu esa mineral o‘g‘itlar sarfini 50 foizgacha qisqartirish imkonini beradi.

Shuningdek, begona o‘tlar tarqalishi holati kuzatilmaydi, natijada 2–3 yilda ekin maydoni begona o‘tdan butunlay tozalanadi.

Tomchilatib sug‘orishda suvning umumiyligi tejalishi 1 hektar g‘o‘za uchun o‘rtacha 2,6 ming m<sup>3</sup>, (40-50%) 1 hektar bug‘doy uchun 1,3 ming m<sup>3</sup> yoki (30-40%) va 1 hektar bog‘ uchun 1,8 ming m<sup>3</sup> (40-50%) dan iborat bo‘ladi.

Tomchilatib sug‘orish istiqbolli sug‘orish usullaridan biri bo‘lib, suv tanqisligi oshib borayotgan bir davrda uni boshqa sug‘orish usullari bilan bir qatorda qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishda qo‘llash shu kunning dolzarb masalalaridandir.

Hozirgi kunda dunyo miqiyosida bu sug‘orish usuli keng maydonlarda qo‘llanilib, yuqori hosil yetishtirilmoqda.



### **1.1-rasm.Tomchilatib sug‘orish tizimining umumiy ko‘rinishi.**

Agarda 1980 yilda dunyo miqiyosida 400 ming ga ekinzor tomchilatib sug‘orilgan bo‘lsa, endilikda bu ko‘rsatgich 1.mln gektardan ortib ketdi.

Tomchilatib sug‘orish usuli asosan qurg‘oqchil va issiq iqlimli – Avstraliya, AQSh, Isroil, Yangi Zelandiya, Meksika va Tunis kabi mamlakatlarda bugungi kunda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Bu usulda bog‘ va tokzorlarni sug‘orish yuqori samara beradi.

Tomchilatib sug‘orishda suv sarfini hisoblash uchun uni texnologik elementlarini, ya’ni sug‘orish me’yorini, sug‘orishning davomiyligini, namiqtirish hajmini aniq tuproq-iqlim sharoiti uchun maxsus o‘rganish talab qilinadi.

Sug‘orish me’yori bir gektar maydonga bir marta sug‘orishda beriladigan suvning sathi bo‘lib, u tomchilatiib sug‘orishda quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$N \cdot M_0 \text{ m}^3/\text{ga}$$

bu yerda:  $M_0$  – sug‘orish me’yori,  $\text{m}^3/\text{ga}$

$N$  – bir gektardagi daraxtlar (toklar) soni

$M_0$  – nomogramma yordamida hisoblab chiqiladigan sug‘orishning elementar netto miqdori,  $\text{m}^3/\text{dona}$ .

### **1.2.Tomchilatib sug‘orishda suv sarfini hisoblash.**

**Topshiriq № 1.** Agarda namiqtirish chuqurligi (N) 0,8 m., radiusi (R) 0,9 m., diametri (D) 2,0 m bo‘lsa, bitta daraxtga va bir gektar bog‘ni sug‘orish uchun talab etilgan suv sarfini hisoblab chiqing.

**Yechish:** Dastlab nomogrammadan (1.2-rasm) foydalanib 1 ta daraxt uchun talab etilayotgan suv miqdori hisoblab chiqiladi. Buning uchun nomogrammani o‘ng burchagidagi kalitdan foydalaniлади



### 1.2-rasm.Suv sarfini hisoblab chiqish uchun tuzilgan nomogramm.

Demak masala bo‘yicha namiqtirish chuqurligi 0,8 m., ekanligidan kelib chiqib,nomogrammani vertikal o‘qidan 0,8 soni topiladi va uni namiqtirish radiusi ( $R = 0,9 \text{ m}$ ) ga tutashtiriladi, so‘ngra kalit bo‘yicha yuqoridagi radius gorizontalligigacha chiziq chiziladi va namiqtirish diametri 2,0 bo‘lgani uchun (bu jadval ma’lumotlaridan olinadi)

chiziqni  $\Delta w = 0,20$  sonli gorizontallik chizig‘i bilan tutashtiriladi va kalit bo‘yicha pastga tushiriladi, oxirgi son (0,12) bita daraxtga kerak bo‘lgan suv sarfini ifodalaydi.

Ana shu yo‘l bilan bita daraxtga kerak bo‘lgan suv sarfi hisoblab topiladi.

Masalani yechimi bo'yicha u  $0,12 \text{ m}^3$  yoki 120 litr. Endi 1 ga bog' uchun talab etilgan suv sarfi hisoblanib chiqiladi.

Agar daraxtlar orasi 3 m va qatorlar orasi ham 3 m bo'lsa 1 ga maydonga 1111 ta daraxt to'g'ri kelar ekan. So'ngra bitta daraxtni bir marta sug'orish uchun 120 l suv kerak bo'lishidan kelib chiqib 1111 ta daraxt uchun suv sarfi hisoblab chiqiladi va u quyidagiga teng bo'ladi:

$$M_0 = N \cdot M_0 = 1111 \cdot 120 = 133320 \text{ yoki } 133,3 \text{ m}^3/\text{ga}$$

Sug'orish jarayonida 10% suvni bug'lanib ketishini hisobga olsak, u holda sug'orish me'yori  $133 + 13,0 = 146 \text{ m}^3/\text{ga}$ .

Demak, bir gektar bog'ni bir marta sug'orish uchun 146 m<sup>3</sup>suv talab qilinar ekan.

**Номограмма бўйича сувориш мөъёрини ҳисоблашда тупроқ намиқишининг кўрсатгичлари, м**

<b>Боғ ва токзорлар</b>	<b>Илдизнинг ривожланиши чукурлиги</b>	<b>Қаторлар кенглиги</b>	<b>Намиқтириш бўйича кўрсатгичлар</b>	
			<b>Чукурлиги</b>	<b>Намиқтириш диаметри ёки кенглиги</b>
Мевали боғлар	1-1,5	4-8	0,7 – 1,0	2,0 – 2,5
Токзорлар	0,6-1,5	2-4	0,6 – 0,9	1,4 – 2,0

**Topshiriq №2.** Berilganlar asosida:  $f = 0,50$ ;  $M_f = 600 \text{ m}^3/\text{ga}$ ;  $m = 146 \text{ m}^3/\text{ga}$ ;  $T_f = 30$  sutka, nisbiy namlanish miqdorini ( $f$ ), tupoqni bir tekisda namiqmaslik koeffitsientini ( $K_2$ ), odatdagি sug'orishda ekinni suvga bo'lgan talabini ( $E_f$ ), sutkalik o'rtacha suv yetishmovchiliginini ( $\Delta \ell_d$ ) va nihoyat sug'orishlar orasidagi davrni ( $T$ ) hisoblang.

Yechish: Sug‘orishlarni o‘tkazish muddatini to‘g‘ri belgilash uchun sutkalik o‘rtacha suv tanqisligi ( $\Delta\ell d$ ), tuproq ustida sug‘orishda ekinni suvga bo‘lgan talabi (Ed) va tomchilatib sug‘orishda sug‘oriladigan maydonni bir tekisda namiqmaslik koeffitsenti (Ku) alohida hisoblab chiqiladi.

Dastlab bir tekisda namiqmaslik koeffitsenti hisoblab chiqiladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

Bu yerda (f) ni qiymatini hisoblab chiqish uchun formulasidan foydalilaniladi, bunda v-o‘rtacha namiqtirish kengligi (m) (bu jadvalda berilgan); V – qatorlar orasi kengligi (m). Ikkinchi odatdagi sug‘orishda ekinni suvga bo‘lgan talabi quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi.

Bu yerda  $mf$  – odatdagi sug‘orishda me’yori,  $m^3/ga$ :  $m^3/ga.sut$

$Tf$  – odatdagi sug‘orishda sug‘orishlar orasidagi davr, sut.

Masalan, bir gektar bog‘ni odatdagi sug‘orishda 600  $m^3$ suv bilan har 30 kunda sug‘orib turilsa, u holda suvga bo‘lgan sutkalik talab quyidagiga teng bo‘ladi:

$20 \text{ m}^3.\text{ga}/\text{sut}$

Endi sutkalik o‘rtacha suv tanqisligi quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi.

$$\Delta\ell d = No \cdot Ef = 0,55 \cdot 20 = 11,0 \text{ m}^3.\text{ga}/\text{sut};$$

Shundan so‘ng tomchilatib sug‘orishda sug‘rishlar orasidagi davr hisoblab chiqiladi: 13,0 sut;

Shundan so‘ng tomchilatib sug‘orishda sug‘rishlar orasidagi davr hisoblab chiqiladi:

13,0 sut;

Demak, sug‘orishlar orasida davr 13 sutka bo‘lib, navbatdagi sug‘orish 14-kun o‘tkazilishi kerak.

Agar bu yerda tizimning foydali ish koeffitsenti ( ) ham hisobga olinadigan bo‘lsa, u holda yuqoridagi formula quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

Bu yerda:-tizimning foydali ish koeffitsenti



## 1.2-Pulsar sug‘orish tizimi.

### Тизимнинг сув сарфини ҳисоблашга доир маълумотлар.

Кўрсатгичлар	Масалалар		
	1	2	3
1. Суғориш вақтида буғланишга сарф бўлган сувнинг сарфи (К)	1,05	1,1	1,1
2. Тупроқ шароитини белгиловчи коефисент ( $K_j$ )	1.1	1.2	1.3
3. Суғориш меъёри (м). м <sup>3</sup>	150	200	250
4. Суғориш давомийлиги (т). сутка	14	16	18
5. Суткалик ўртacha сув сарфи ( $q^1$ ) - м <sup>3</sup> сутка	-	-	-

**Topshiriq №3:** Bir gektar bog‘ yoki tokzor uchun kerakli tomchilatish qurilmalarning soni quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi; dona,

Bu yerda: H – kerak bo‘lgan tomchilatgichlar soni;

$q^1$  – sutkalik o‘rtacha suv sarfi: m<sup>3</sup>;

q – bitta tomchilatgichni suv sarfi. /soat.

**Topshiriq №4.** Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha ( $q_1 = 13,4 \text{ m}^3/\text{sutka}$ ;  $q=7,0 \text{ /soat}$ ) zarur miqdordagi tomchilatgichlar sonini hisoblab chiqing.


Yechish:  $13,4/7,0 = 134001 : 7,0 = 1914,2 \text{ ta dona.}$

Demak, bir gektar bog' uchun 1914,2 ta "Moldaviya-1" tomchilatib sug'orish qurilmasi kerak yekan.

Quyidagi berilganlar ( $q_1 = 16,7 \text{ m}^3/\text{sutka}$ ,  $q = 5,07 \text{ /soat}$ ) asosida talab etilgan tomchilatish qurilmalari sonini hisoblang.

### ***MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR.***

Tinglovchilar olingan ma'lumotlar asosida "B/BX/B" jadvalini to'ldiradilar.



#### **Nazorat savollari:**

- 1.Nima maqsadda tomchilatib sug'orish tizimiga o'tilmoqda?

2.Bir gektar bog‘ yoki tokzor uchun kerakli tomchilatish uskunalarini qaerdan olish mumkin?

3.Bir gektar bog‘ uchun qancha suv sarflanadi?

4.Tomchilatib sug‘orishning qo‘llanish darajasi qanday?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1.Z.Artukmetov, H.Sheraliev. Ekinlarni sug‘orish asoslari. Darslik. T.: O‘zb. Faylasuflar milliy jamiyati nashiryoti, 2007.- 182-198 b.

2.Z.Artukmetov. Ekinlarni sug‘orish asoslari va sug‘orish tizimlari-an foydalanish. Darslik. T.: ToshDAU nashriyot tahrir bo‘limi, 2009. – 150-158 b.

3..Mamatov.Tomchilatib sug‘orish tizimi. O‘quv qo‘llanma. T. 2012-38-42 b

4.U.Norkulov, X.Sheraliev. Qishloq xo‘jalik melioratsiyasi. Darslik. T.: ToshDAU tahrir-nashriyot bo‘limi, 2003.- 122-136 b.

5. To‘xtashev B.B.Qorabaeva T.Eshonqulov J.Ashirov Yu. Melioratsiya va yer tuzish fanidan o‘quv qo‘llanma. IJOD-PRESS nashriyoti Toshkent-2019y. 23.0 bosma tabog‘.

## **2-Mavzu: Organik dehqonchilikka o‘tishning bosqichlari.**

**Maqsadi va vazifasi:** Ushbu amaliy mashg‘ulotda tinglovchilar organik dehqonchilikka o‘tish bosqichlari bilan tanishadilar.Guruhlarga bo‘linib har bir bosqichni ijobiy va salbiy tomonlari o‘rganiladi. Organik ishlab chiqarish omillari bilan tanishadilar.Ekinlarni tanlashda mezonlarini o‘rganadilar..Hisoblash ishlari guruhlarga bo‘linib olib boriladi. Bunda tinglovchilar yangi pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanadilar

- **Topshiriq:Nº1.**Organik dehqonchilik qilish uchun ma’lumotlar bazasida nimalarga e’tibor beriladi va ma’lumotlar olish tartibi qanday bo‘ladi?
- **Topshiriq:**Organik fermer xo‘jaligi uchun ekin turlarin tanlashda e’tiborga olinadigan omillar.

**Topshiriq:Nº3.**Fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jalik ekinlarini turli xil pestitsidardan va GMO materiallaridan himoya qilishda nimalar hisobga olinadi?.

Hisoblash ishlarini guruhlarga bo‘linib olib boriladi.

### **Qisqacha mazmuni:**

- Fermer xo‘jaligidan organik ishlab chiqarishga o‘tish jarayoni, qoida tariqasida, uch bosqichdan iborat.
- Birinchi bosqichda tegishli organik dehqonchilik usullari to‘g‘risida ma’lumot to‘plash tavsiya etiladi.
- Ikkinci bosqichda ular bilan tanishish uchun tanlangan uchastkalarda yoki maydonlarda organik ishlab chiqarishning eng istiqbolli usullarini sinab ko‘rish kerak.
- -Uchinchi bosqichda fermer xo‘jaligida faqat organik ishlab chiqarish usullari qo‘llanilishi kerak.
- Qoida tariqasida, jarayon bo‘yicha ko‘rsatma bera oladigan tajribali maslahatchi yoki fermerning yordami juda foydali.

## **1. Birinchi bosqichda fermerlar uchun yaxshi axborot ma’nbaini yaratish zarur.**

Fermer xo‘jaligida muvaffaqiyatli organik dehqonchilik tizimini joriy etishda va ularni boshqarish imkoniyatlari to‘g‘risida katta bilimlarni talab qiladi. Organik dehqonchilikni muvaffaqiyatli yuritish uchun ekinlar hosildorligini ta’minalash, yaxshilash, tabiiy jarayonlarni bilish muhim ahamiyatga ega. Organik dehqonchilik usullarini joriy etishdan manfaatdor bo‘lgan fermerlar, ilg‘orlardan o‘rganish uchun o‘z mintaqalarida allaqachon organik dehqonchilik bilan shug‘ullanayotgan fermerlar bilan bog‘lanishlari tavsiya etiladi. Ba’zi bir fermerlar kompostni yaxshi tayyorlashlari mumkin, ba’zilari yashil o‘g‘itni, siderat ekinlarini (go‘ngni) yetishtirishadi, ba’zilari esa o‘simlik va boshqa chiqindilardan kompostni yoki go‘ngni qanday saqlash va uni chirish jarayonini boshqarishni yaxshi biladilar. Tajribali fermerlar bilan aloqada bo‘lish ularning tajribasini o‘rganish mahalliy sharoitda tajriba orttirishga imkon beradi va shu bilan organik ishlab chiqarish usullarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan afzalliklari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar haqida ma’lumot beradi (1-2 rasmlar).

- Umuman olganda, organik dehqonchilikka o‘tmoqchi bo‘lgan fermerlar quyidagilarni bilishlari kerak.

- - Tuproq unumdorligini qanday oshirish mumkinligini;
- - Qishloq xo‘jalik ekinlarini kasallik va zararkunalardan saqlash omillarini;
- - Dehqonchilikda mahsulot yetishtirishning xilma-xilligini qanday oshirish mumkinligini;
- - Chorva hayvonlarning cassalliklardan bartaraf etishni;
- - Organik mahsulotlar yetishtirishning tannarxi va ularni muvaffaqiyatli ishlab chiqarish hamda sotishni;

### **Органик қишлоқ хўжалиги маълумотларини қандай олиш мумкин?**



**2.1-rasm. Organik dehqonchilik qilish uchun ma’lumotlarni qanday olish mumkin?**

#### **2. Ikkinci bosqichida organik ishlab chiqarish omillariga ega bo‘lishi**

**-Tuproq sirtini mulchalash:** Tuproqni o‘simlik qoldiqlari bilan qoplash, begona o’tlarni nazorat qilish, bir va ko‘p yillik ekinlarni yetishtirishda tuproqni himoya qilishning oson usulini ishlab chiqish. Ushbu amaliyot ko‘plab mavjud fermer xo‘jaliklarida qo‘llanilishi mumkin. Biroq, asosiy savol tegishli o‘simlik qoldiqlarini (materialini) qaerdan olish kerakligi bo‘lishi mumkin.

**-Ekinlarni aralash ekishni tashkil etish:** Ikki yillik ekinlarni, odatda dukkakli ekinlar, masalan, dukkakli ekinlar yoki yashil o‘simliklar-sideratlar (go‘ng) kabi ekinlarni makkajo‘xori yoki boshqa don, sabzavot ekinlari bilan bir vaqtning o‘zida yetishtirish, yerdan unumli foydalanish va unumdorlikni oshirishga qaratilgan organik dehqonchilikda keng tarqalgan amaliyotdir. Qishloq

xo‘jalik ekinlarni parvarish qilishda, yorug‘lik, oziqa moddalari, suv va boshqa hayot omillariga alohida e’tibor berilishi kerak<sup>14</sup>.

**-Kompost tayyorlash:** Fermer xo‘jaliklarida kompost tayyorlash va undan foydalanish qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirishga hamda uni sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kompost ishlab chiqarishni boshlash uchun fermerlar yetarli miqdorda o‘simlik qoldiqlari va go‘ngga ega bo‘ladilar. Agar kompost tayyorlash uchun mahsulotlar yetarli bo‘lmasa, fermerlar ishlab chiqarishni dastlab fermer xo‘jaliklarida ko‘p miqdorda biomassani tashkil etadigan tez o‘sadigan dukkakli o‘simliklarni ekishi, zarur bo‘lsa, go‘ng olish uchun ferma tizimiga ma’lum miqdordagi qishloq xo‘jalik hayvonlarini kiritish yo‘li bilan boshlashlari kerak. Fermerlarga tajribali mutaxassislar tomonidan kompost tayyorlash jarayoni bilan tanishish bo‘yicha ko‘rsatma berilishi kerak. Kompostni to‘g‘ri tayyorlash bilim va tajribani, shuningdek qo‘srimcha ish haqini talab qiladi, ammo jarayonning o‘zi katta investitsyalarni talab qilmaydi.

**-Yashil o‘simliklar-sideratlarni (go‘ng) ekish:** Aksariyat fermerlar uchun dukkakli o‘simliklarni biomassa hosil qilish va uni tuproqqa kiritish amaliyoti yangi bo‘lishi mumkin. Biroq, ushbu amaliyot tuproq unumdorligini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Siderat ekinlar tegishli ekin dalalarda asosiy ekindan bo‘sagan yerlarda yetishtiriladi. Siderat ekinlarni ekishdan oldin dalalar ekishga yaxshi tayyorlanadi. Yashil o‘simliklar-sideratlar (go‘ng)ni to‘g‘ri yetishtirish uchun avval tegishli o‘simlik turlari to‘g‘risida ma’lumot talab qilinadi.

• **O‘simliklarni himoya qilish:** Fermer xo‘jaliklari ekin dalalarida zararkunandalar va kasalliklar o‘choqlari paydo bo‘lishining oldini olish uchun o‘simliklar va hayvonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ehtiyyotkorlik bilan tashkil etish va ularni himoya qilishi shart. Avvaliga biologik nazorat vositalaridan foydalanish mumkin, ammo o‘simliklarni himoya qilish organik usullar yordamida zararkunanda va kasalliklar o‘rtasida muvozanatni saqlaydigan ekologik

---

<sup>14</sup> Илка Гомес и Лиза Тивант. Органик деҳқончиликдан ўқув қўлланма. Бирлашган миллатлар ташкилотининг озиқ-овқат ва қишлоқ-хўжалиги ташкилоти (ФАО). Русс тилига Аветика Нерсисян таржимаси. Будапешт, 2017. 1-120 б.

yondoshuvlar yordamida amalga oshiriladi. Barqaror ekin turlarini tanlash muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, himoya qilishning boshqa usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- zararkunandalar tarqalishining oldini olish uchun ekish vaqtini tanlash;
  - -tuproqda kasallik qo‘zg‘atuvchilarga (patogenlariga) qarshi kurashish uchun uning holatini yaxshilash;
  - -almashlab ekishni to‘g‘ri tashkil qilish;
  - -tabiiy biologik nazorat vositalariga kasallik qo‘zg‘atuvchilari, hasharotlar va begona o‘tlarga qarshi kurashish uchun sharoit yaratish;
  - -hasharotlar, qushlar va hayvonlardan himoya qilish uchun jismoniy to‘sinqlardan foydalanish;
- changlatuvchilar va tabiiy zararkunandalar uchun sharoit yaratish, shuningdek, feromon tutgichlari yordamida zararkunandalarni ushslash uchun yashash muhitini o‘zgartirish.

**-Urug‘lik va ko‘chatlar zahiralari:** Toza va har xil zararli organizmlardan xoli urug‘lar va ekish fondlaridan, shuningdek kuchli va yaxshilangan navlardan foydalanish, ekinlarni yetishtirishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Bunday amaliyotlar urug‘larni va ko‘chatlarini tanlash, shu jumladan yaxshilangan navlar va urug‘larni har xil kasallik va zararli organizmlardan tozalash usullari to‘g‘risida ma’lumot talab qilishi mumkin. Umuman olganda, mahalliy sharoitga moslashtirilgan urug‘lardan foydalanish afzalroqdir, chunki bu urug‘lik va ko‘chatlar mahalliy sharoitlarga allaqachon moslashgan bo‘ladi.

Fermer o‘z oldiga organik ishlab chiqarish usullarini qanday boshlashim kerak degan savol qo‘yadi va uni yechimini izlaydi (17-rasm).

**-Dukkakli ekinlarni ekish:** Fasol, mosh, soya va boshqa dukkakli ekinlarni ekish fermer xo‘jaligi uchun yuqori samara beradi .Ushbu ekinlar atmosferadagi azotini o‘zlashtirib tuproqni azot bilan boyitadi. Bunday tashqari, fermer xo‘jaligi huididida ekilgan ba’zi o‘simliklar chorva uchun oziqa manbai bo‘lib hisoblanadi.

## Органик ишлаб чиқариш усулларини қандай бошлаш керак?



### 16-2.2-rasm. Organik ishlab chiqarish usullarini qanday boshlash kerak?

• **-Fermer xo‘jaligida chorvachilik uchun oziqa yetishtirish:** Chorva mollari uchun oziqa zahirasini oshirishda fermerlar asosiy ekinlar bilan ko‘p miqdorda biomassa hamda to‘yimli oziqa ekinlarini yetishtirishlari mumkin. Chorva hayvonlar uchun oziqa manbai bo‘lishi kerakligi, oziqa muammosini hal qilishda fermer xo‘jaligida eng yaxshi yechim hisoblanadi.

• **-Terrasalar va adirliklar.** Adirliklar (tepaliklar) etagida terraslar barpo etish tuproqni himoyalash va undan oqilona foydalanishning asosiy chorasıdir. Ushbu amaliyot adirlik va tepalik yon bag‘irlarda tuproq unumdorligini yanada oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu juda katta ahamiyatga ega, ammo uni to‘g‘ri qo‘llash uchun ko‘p mehnat va bir qator maxsus bilimlar talab etiladi.

Organik dehqonchilikni “yagona organizm” sifatida ko‘rib chiqayotganda, asosiy e’tibor nafaqat o‘ziga xos o‘simliklarini yetishtirishga qaratiladi. Aksincha, mavjud dehqonchilik tizimiga osongina qo‘silishi mumkin bo‘lgan va uning yaxshilanishiga yordam beradigan o‘simliklarni tanlashga e’tibor qaratilgan. Biroq, tanlov, shuningdek, fermerning o‘simlik yetishtirish uchun to‘g‘ri qishloq xo‘jaligi texnikalari, ularning turli sharoitlarda shakllantirishdagi ishtiroti yoki ularga bo‘lgan bozor talabi bilan bog‘liqdir. Oziq-ovqat ekinlaridan tashqari, fermerlarga

dukkakli o'simliklarni yetishtirish, chorva mollarini yuqori proteinli oziqalar va tuproqning oziqa moddalar bilan ta'minlash uchun siderat o'g'itlar sifatida ishlatish kerak bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda ekinlarni ortiqcha quyosh haroratidan, shamoldan himoya qilish, oziqa, mulcha materiallarini olish yoki boshqa maqsadlar uchun ekish tavsiya qilinadi<sup>15</sup>.



### 2.3-rasm. Organik ishlab chiqarishga o'tish davrida ekinlarni tanlash mezonlari.

#### O'simliklarni tanlash mezonlari:

**1. Organik fermer xo'jaliklari buyurtmachining ehtiyojini hisobga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlari, texnik ekinlar, moyli va tolali, boshqa turdag'i ekinlar yetishtirishlari kerak.** Shuningdek, fermerlar tuproq unumдорligini oshiradigan ekinlarni yetishtirishlari ham juda zarur. Chorva mollarini boqadigan dehqonlar juda ko'p biomassa hosil qiladigan va dukkakli ekinlarni yetishtirishlari kerak.

**2. Fermerlar o'simliklarni yetishtirishda dastlab xarajatni kam talab etadigan va daromadli ekinlarni tanlashlari kerak,** jumladan makkajo'xori,

<sup>15</sup> Илка Гомес и Лиза Тивант. Органик дехқончиликдан ўқув қўлланма. Бирлашган миллатлар ташкилотининг озиқ-овқат ва қишлоқ-хўжалиги ташкилоти (ФАО). Русс тилига Аветика Нерсисян таржимаси. Будапешт, 2017. 1-120 б.

jo‘xori, tariq, loviya va no‘xat kabi dukkakli o‘simliklar, ayniqsa, bular organik ishlab chiqarishga o‘tish uchun juda mos keladi, chunki ularni yetishtirish arzon, ushbu ekinlar oziqa moddalariga o‘rtacha talabga ega va zararkunandalar hamda kasalliklarga chidamli. Ayrim qishloq xo‘jalik ekinlari jumladan, sabzavotlar singari ekinlar, ko‘p ishlov berishni talab qiladi, zararkunandalar va kasalliklarga tez beriluvchan bo‘ladi. Shuning uchun, ularni katta hajmda yetishtirish kerak emas, fermer ba’zi hosil yo‘qotishlariga bardosh bera oladigan holatlar bundan mustasno.

• **3. Fermerlar qisqa vegetatsiyaga ega bo‘lgan yuqori daromadli ekinlar,** jumladan sabzavotlar singari ekinlar tizimin yaratish kerak bo‘ladi. Garchand bu ekinlarning vegetatsiya davri qisqa bo‘lsada, ularni parvarishi bilan bog‘liq xarajatlar yuqori.

• Shuning uchun, ularni katta hajmda yetishtirish kerak emas, fermerni ba’zi hosil yo‘qotishlariga bardosh bera oladigan holatlari bundan mustasno. Bozorni o‘rgangan holatda, tegishli shartnomalar tuzib mahsulotni daladan dasturxonagacha yetkazib berish tizimini yaratgan holda yetishtirish kerak.

Fermer bozorni o‘rgangan holda qisqa vegetatsiyaga ega yuqori daromad keltiruvchi, hamda bozori chaqqon ekinlarni yetishtirishi kerak bo‘ladi. Jumladan qulupnay, har xil ko‘katlar va boshqalari. Sotish uchun yetishtirilgan ekinlar tarkibiga fermer xo‘jaligidan yo‘l chetidagi bozorda yoki shahar markazlaridagi yaqin atrofdagi bozorlarga yetkazib berilishi mumkin bo‘lgan ekinlar kiradi. Bozorda sotish uchun yetishtirilgan ekinlarni to‘g‘ri tanlash uchun ma’lumotlar talab qilinishi mumkin.

**Bozorlar haqida.** Fermer mahalliy yoki xorij (eksport) bozorlari uchun mo‘ljallangan ekinlar to‘g‘risida qaror qabul qilish, tadbirkorlar yoki eksport qiluvchilardan olinadigan ekinlar, talab qilinadigan navlar, miqdorlari, xususiyatlari, davriylik va vaqt to‘g‘risidagi bat afsil ma’lumotni hisobga olgan holda bozorga chiqishi kerak.

Bozor va organik mahsulotlar ishlab chiqarishning talablarini buzmaslik uchun yangi ko‘chatlar, turlar va navlarni ehtiyojkorlik bilan tanlash kerak.

Mavjud bog‘ni yoki ekinzorni organik ishlab chiqarishga aylantirishda eski kasalliklar va zararkunandalarni, ularni keltirib chiqaruvchilarini yo‘qotish kerak bo‘ladi. Meva daraxtlari kasallik va zararkunadalarga moyil bo‘lsa, ularni bozor talabidan kelib chiqib yangilab borish kerak, aksincha mahsulot sifati bozor talablariga javob bermasa ularni butunlay yangilash kerak bo‘ladi.

**• 4. Yetishtiradigan o‘simlik va uning mahsuloti bozorbob, uzoq saqlash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.**

**5. Ekinning xilma-xilligi mahalliy tuproq va iqlim sharoitiga qanchalik mos kelishiga e’tibor berish kerak.** Qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini saqlab qolish va olinadigan hosil, o‘simlikni o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay o‘sadigan sharoit yaratilishiga bog‘liq bo‘ladi. Ekinning xilma-xilligi mahalliy tuproq va iqlim sharoitiga qanchalik mos kelsa, zararkunandalar va kasalliklarga chidamli bo‘lsa, u shuncha yaxshi o‘sadi.

**6. O‘rmon xo‘jaligida foydalaniladigan boshqa ekinlardan** va daraxtlardan o‘rmon-ixota to‘siqlarni yaratish, ko‘p yo‘nalishli dehqonchilik tizimini yaratishda muhim yordam berishi mumkin.

**7. Dukkakkilar oilasida siderat ekinlarni yetishtirish tuproqni oziqa bilan ta’minlaydi.** Siderat ekinlar (ko‘k o‘g‘itlar) tezda foyda keltirmaydi, ammo kelajakda ular tuproqni unumdar va mahsuldor qiladi (17-rasm).

**3.2. Organik dehqonchilikka to‘liq o‘tish bosqichi quyidagi tartibda bo‘ladi.**

Uchinchi bosqichda turli usullarni qo‘llash bo‘yicha yetarlicha tajriba to‘planishi bilan xo‘jalikning barcha sohalarida organik usullarni joriy etishni hisobga olish kerak. Fermer xo‘jaligida organik ishlab chiqarish usullari joriy etilishi bilan, fermer organik dehqonchilik maqomiga ega bo‘lishi mumkin.

Qoida tariqasida, organik ishlab chiqarish usullarining izchil tatbiq etilishi ishlab chiqarish tizimini takomillashtirishning uzoq jarayonnini boshlanishini anglatadi:

1. Fermer xo‘jaligida olingan organik materiallardan qayta foydalanish va fermer o‘z biomassasini ishlab chiqarishni kengaytirish asosida tuproq unumdarligini oshirishi.

2. Zararkunandalar va kasalliklarning o‘zini-o‘zi tartibga solishni yaxshilash maqsadida ishlab chiqarish tizimining barcha qismlari o‘rtasida ijobiy o‘zaro ta’sirni kuchaytirishi.

3. Oziqa ishlab chiqarish va chorvachilik o‘rtasidagi muvozanatni optimallashtirishi kerak bo‘ladi.

Organik dehqonchilik, shuningdek, o‘zingizning kuzatishlaringiz, uchinchi tomon tajribasi, boshqa organik fermerlar bilan tajriba almashish va fermer xo‘jaligingizda mavjud bo‘lgan hamda kirib kelgan yangi ma’lumotlardan foydalanish natijasida doimiy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi, bu esa uni yanada barqaror qiladi.

### **3.3. Fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jalik ekinlarini turli xil pestitsidardan va GMO materiallaridan himoya qilish.**

#### **a) Pestitsidlar:**

Organik fermerlar qishloq xo‘jalik ekinlari kasallik yoki zararkunandalarga sintetik pestitsidlar bilan purkashda organik qishloq xo‘jalik ekinlari parvarishlanayotgan dalalarni himoya qilish uchun javobgardir. Qo‘shni fermerlar organik dehqonchilik bilan shug‘ullanmasa ham, fermer organik mahsulotlar yetishtirishi mumkin. Qo‘shni dalalardan pestitsidlarning qishloq xo‘jalik ekinlariga ta’sirini oldini olish uchun organik dehqonchilik qiladigan fermerlar quyidagi tadbirlardan birini qo‘llagan holda o‘z dalalarini himoya qilishlari kerak:

-Qo‘shni dalalar bilan chegarada tabiiy to‘sqliarni, baland bo‘yli ko‘p biomassa hosil qiladigan yashil o‘simliklarni (yaratish) ekish, pestitsidlarni shamol yoki oqar suvlar bilan tarqalish xavfini oldini olishga yordam beradi. Dalalar atrofida chegara hududlari qanchalik keng bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi.

-Yuqoridagi dalalardan suv oqishini oldini olish uchun organik dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan fermerlar suvni behuda oqmasligini ta’minlashlari kerak, yoki yuqorida joylashgan dalalardagi fermerlar bilan suv orqali ifloslanish xavfini qanday kamaytirish mumkinligi to‘g‘risida suhbatlashishlari kerak. Tabiatni asrab-avaylashdan manfaatdor bo‘lgan organik fermerlar o‘zlarining bilimlari va tajribalarini qo‘shnilariga almashishlari kerak, ularga organik dehqonchilik


usullarini qo'llashga yordam berish yoki tabiatni ifloslanish xavfini minimallashtirish kerak.

#### • b) Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO):

Genetik modifikatsiyalangan urug'lar va ko'chat materiallari, o'simliklar, hayvonlar yoki mikroorganizmlardan individual genlarni qishloq xo'jaligi ekinlari genomiga changlatish va tabiiy to'siqlardan boshqa usullar bilan o'tkazish yo'li bilan ishlab chiqariladi. Shu sababli, genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqat mahsulotlarini organik dehqonchilikda ishlatmaslik kerak va organik fermer xo'jaliklari o'z hosillarini GMO ning ifloslanishidan himoya qilishlari kerak.

Shu bilan birga, an'anaviy dehqonchilik tizimida genetik modifikatsiyalangan ekinlardan tobora ko'proq foydalanish bilan, GMO ning ifloslanish havfi ortishi kutilmoqda. Makkajo'xori kabi o'zidan changlangan turlar yoki hasharotlar tomonidan changlatilgan ekinlar, masalan, soya yoki paxta, genetik jihatdan o'zgartirilgan ekinning yonida o'stirilganda ifloslanish xavfi yuqori. Asosan vegetativ ravishda ko'payadigan turlar, masalan kartoshka, banan, GMO ni yuqtirish xavfi kam. Genetik modifikatsiyalangan organizmlar bilan ifloslanishdan tashqari, agar saqlash va tashish paytida genetik jihatdan o'zgartirilgan hamda organik mahsulotlar to'g'ri ajratilmasa, yetkazib berish zanjiri bo'ylab GMO qoldiqlari natijasida kelib chiqadigan jismoniy ifloslanish xavfi mavjud (19-rasm).

#### Экинларни пестицидларнинг зааридан қандай ҳимоя қилиш керак?



## **2.4-rasm. Qishloq xo‘jalik ekinlarining pestitsidlardan himoya qilish.**

### **Fermerlarga GMO dan voz kechish tavsiya etiladi:**

-Fermer xo‘jaligingizda yetishtirilgan urug‘lardan foydalaning yoki kimyoviy ishlov berilgan urug‘larni sotib olmang. Urug‘larning kelib chiqishini tekshirib, ularning genetik modifikatsiyalangan ekinlar yetishtiriladigan qo‘shni fermerlarda yoki genetik modifikatsiyalangan ekinlar bilan chegaralari o‘ralgan fermalarda yetishtirilmasligiga ishonch hosil qiling (minimal masofa kamida 1 km).

-Agar siz savdo kompaniyasidan sotib olingan urug‘lardan foydalansangiz, u ro‘yxatdan o‘tganligiga va urug‘larning kelib chiqishini tasdiqlashiga ishonch hosil qiling. Uning GMO ishlab chiqarish va ko‘paytirishda ishtirok etganligini tekshiring. Kompaniyadan GMO-larning urug‘likni tasdiqlovchi sertifikat so‘rang va uning genetik modifikatsiyalangan urug‘lar bozoridagi ishtiroki to‘g‘risida ma’lumotlarni biling.

-Sizni qiziqtirgan aniq ekinlarni ko‘paytirish xususiyatlarini belgilang. Makkajo‘xori kabi o‘zaro faoliyati davrida changlanadigan turlarning changlari shamol yoki asalarilar tomonidan 1-3 km gacha tarqalishi mumkin.

-Ba’zi ekinlarning urug‘lari tuproqda 5 yildan 20 yilgacha yashab turishi mumkin. Shu sababli, organik ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yerlarda hech qanday genetik modifikatsiyalangan ekinlar ekilmasligi uchun ehtiyyot choralarini ko‘rish kerak.

### **GMO билан заарланишдан қандай химоя қилиш мумкин**



## **2.5-rasm. GMO dan himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar berish jarayoni.**

-Agar sizning hududingizda bunday ekinlar yetishtirilsa, genetik modifikatsiyalangan o'simliklardan to'liq tarqalish xavfini kamaytirish uchun dalalaringiz atrofida himoya hududlarini (bufer zonalari) yarating. Genetik modifikatsiyalangan va organik ekinlari bo'lgan maydonlar ushbu turdag'i ekin urug'ini yetishtirish uchun zarur bo'lgan masofadan 2-3 baravar uzoq bo'lishi kerak. Jo'xori kabi genetik jihatdan o'zgartirilgan ekinlarni tarqalishining oldini olish uchun dalalar orasidagi masofa kamida 2-3 km bo'lishi kerak. Bu GMO o'simliklaridan tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, shamol bilan changlanadigan ekinlarning o'zaro changlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun makkajo'xori kabi genetik modifikatsiyalangan ekinlarni, chegara to'siqlari yoki baland bo'yli o'simliklar, masalan, buta va daraxt kabi to'siqlardan foydalinish mumkin.

-GMO va GMO bo'limgan o'simlik materiallarni ekish va yig'ish uskunalarini, transport vositalari, qayta ishslash, saqlash uskunalarini va dehqonlar ishlataladigan asboblardan foydalangan holda ularni aralashishiga yo'l qo'ymang. Agar siz bir xil texnikani ishlatishingiz kerak bo'lsa, uni yaxshilab tozalash kerak. Organik mahsulotlarni genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar yaqinida saqlamang<sup>16</sup>.

-Iloji boricha, ayniqsa, fermer xo'jaligingizda urug'ini yetishtirish uchun GMO mavjud bo'limgan hududlarni rivojlantirishga ko'maklashing. (6-rasm).


## **5. MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR**

---

<sup>16</sup> Илка Гомес и Лиза Тивант. Органик деҳқончилиқдан ўқув қўлланма. Бирлашган миллатлар ташкилотининг озиқ-овқат ва қишлоқ-хўжалиги ташкилоти (ФАО). Русс тилига Аветика Нерсисян таржимаси. Будапешт, 2017. 1-120 б.

Olingan natijalarga asoslanib talabalar mustaqil ravishda “Nima uchun” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar va tuzadilar.

### Tinglovchilar mustaqil ravishda “Nima uchun” sxemasini



#### Nazorat savollari:

- 1.Organik ishlab chiqarishga o'tish jarayoni necha bosqichdan iborat?

- 2.Organik dehqonchilik usullari to‘g‘risida qanday ma’lumot to‘planadi?
- 3.organik ishlab chiqarishning eng istiqbolli usullarini sinab ko‘rish degenda nima nazarda tutiladi?
  - -4.Organik ishlab chiqarish usullari qo‘llanilishida nimalaarga e’tibor beriladi?
  - 5.Tajribali maslahatchi yoki fermerning yordami nimadan iborat?
  - 6.GMO dan himoyalanish qanday amalga oshiriladi?
  - 7.Ekinlarining pestitsidlardan himoya qilishda nimaga e’tibor beriladi?
- 8.Xarajatni kam talab etadigan va daromadli ekinlarni tanlash mezonlari qanday?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

- 1.Nazarov N, Mirzajonov K, Ibragimov O, Isaev S. Dehqonchilikning tejamkor texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T. 2014 yil 179 b.
- 2.Sattarov J.,Xolmurodova R. Biologik dehqonchilik va noan’anaviy o‘g‘it.Agrokimyo himoya va o‘simpliklar karantini. 2017 y. №4. 7-9 b.
- 3.To‘xtashev B., Toshpulatov Ch., O‘zbekistonda organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish-davr talabi. AGRO ILM.2019y.№2, 96-98 b.
- 4.Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 236-247 b.
5. Crop Rotation on Organic Farms: A Planning Manual, NRAES 177 Charles L. Mohler and Sue Ellen Johnson, editors Published by NRAES, July 2009.

### **3-Mavzu. Organik chiqindilardan kompost tayyorlash.**

**Kompast tayyorlash uchun zarar xom-ashyo materiallari:** go‘ng, molxona shaltog‘i, xazon, eski kollektor-zovur tuproqlari, uy- ro‘zg‘or chiqindilari, ko‘mir kukuni, sholi qipig‘i, sanoat chiqindisi-fosfogums

**Maqsadi va vazifasi:** Ushbu amaliy mashg‘ulotda tinglovchilar organik chiqindilardan kompost tayyorlash omillari bilan tanishadilar. Guruhlarga bo‘linib kompostning turli komponentlaridan ularning nisbatlarini hisoblab chiqadilar. Fermer xo‘jaligi uchun organo-mineral komposti tayyorlash jarayonini ishlab chiqadilar. **Kompost tayyorlash jarayonidagi hisob kitoblarlar qiladilar.**:Hisoblash ishlari guruhlarga bo‘linib olib boriladi.Bunda tinglovchilar yangi pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanadilar

**Topshiriq №1.Quyida keltirilgan Illova-1 dagi ma’lumotlardan foydalanib kompost tayyorlang.**

## **Topshiriq №2.Quyida keltirilgan Ilova-2 dagi ma'lumotlardan foydalanib kompost uchun joy va fermer xo'jaligi uchun kompost tayyorlang.**

**Mavzuning qisqacha mazmuni:** Ma'lumki, organik qishloq xo'jaligi - qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda atrof-muditga zarar keltiradigan kimyoviy vositalardan foydalanmasdan ekologik sof maxsulot ishlab chiqarish tizimi hisoblanadi. Ayni vaktda rivojlangan mamlakatlarda import kilinayotgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovkat mahsulotlariga organik tizimlarga muvofiq sertifikatlar talab etilmoqda. Bu esa yurtimizda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish, uning ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan qishloq xo'jalik ekinlarining turli kasallik va zararkunanalariga qarshi kurashishning biologik usullarini rivojlantirishni talab etmoqda.

Aslida organik qishloq xo'jaligi o'zbek dehkoni uchun yangilik emas. Otabobolarimiz agrokimyoviy vositalar paydo bo'lishigacha organik dehkonchilik bilan keng shug'ullanganlar. Bunda ular qishloq xo'jalik ekinlaridan ko'zlangan hosilni yetishtirishlarida mahalliy go'ng, kul, eski devor kesaklari va boshqa tabiiy chiqindilardan keng foydalanganlar..

Ma'lumki, o'simlik urug'i tuproqqa tushgandan keyin, dastavval urug'dagi zahiradan foydalanib unib chikadi. Ildiz urug'idan ajralib chiqishi bilanoq tuproqdagi fosforni o'zlashtirishi aniqlangan. Keyinchalik o'simlikning o'sibrivojlanishi natijasida tuproqning osti va ustida ko'k massalar hosil bo'ladi. O'simlik bargidagi og'izchalar nafas olganda va nihoyatda kerak bo'lgan hodisa-fotosintez jarayoni ro'y berib, karbonat angidridga kuyosh nuri va issiklik ta'sirida oddiy qand hosil bo'ladi.

Respublikaning dehqonchilik qilinadigan asosiy yerlarida gumus mikdori juda kam. Bunday sharoitda, organik dehkonchilikni O'zbekiston sharoitida keng qo'llashning imkoniyati juda past. Gumus kam, organik o'g'itlar yetishmaydi. Faqat ekinlarni almashlab ekish, ayniqsa, beda ekinini kupaytirib, siderat ekinlarni ko'proq ekib, xazon, shox-shabbalarni to'plab, eski kollektor-zovurlar atrofidagi tuproqlar, shahar chiqindilaridan foydalanib biogumus, gumafos, ammoniylashgan ko'mir (baribir oz bo'lsada azot kerak), g'o'zapoya, begona o'tlarni maydalab,

organik o‘g‘it sifatida qo‘llab respublikada organik dehqonchilikni joriy kilish mumkin.

**Organo-mineral kompostlar tayyorlash.** Organo-mineral kompostlar tayyorlashda organik o‘g‘itlarning og‘irlilik miqdori va nisbatlarini belgilashda har biri uchun alohida-alohida ular tarkibidagi o‘rtacha oziqa moddalar (NPK) miqdoriga qarab tenglashtirib olinadi. Organik o‘g‘itlardan kompost tayyorlashda kompostlarning og‘irligiga nisbatan 1–2 % miqdorida fosforli o‘g‘itlar yoki 1 tonna organik o‘g‘itlarga 15–20 kg fosfor solib kompost tayyorlansa, kompost tarkibidagi oziqa moddalar, ayniqsa, azotning yo‘qolishi kamayadi va fosforni o‘simlik oson o‘zlashtiradi. Fosforli o‘g‘itlar qo‘shilgan bunday kompostlar solinadigan dalalarga alohida fosfor va kaliy o‘g‘itlarni tuproqqa solish me’yorlarini 25–30 foizga kamaytirish mumkin.

#### **Fermer xo‘jaligi uchun organo-mineral komposti tayyorlash jarayoni:**

Organo-mineral komposti tayyorlash va saqlashning eng samarali usullaridan biri fermer xo‘jaligida molxonalar yaqinidagi xandaqlarda texnika yoki qo‘l kuchi yordamida shibbalangan kompostlashtirish hisoblanadi.

#### **Kompost tayyorlash texnikasi:**

1.Kerakli xom-ashyo.ilovadagi 1-jadvalda keltirilgan.

Bunda sholi yoki yog‘och qipig‘i;nisbati-25%;

qoramol go‘ngi; nisbati-40%

tovuq go‘ngi; nisbati-25%

fosfogips nisbati-10%

2.Aniq o‘lchamga ega xandak

Chuqurning hajmi: uzunligi 10m.,

eni 4m,

chuqurligi 3 m.

tashkil etib, sig‘imi 120 tonna atrofida bo‘ladi.

#### **Kompost tayyorlash jarayonidagi hisob kitoblar:**

1.Dastlab chuqrni uzunligi(10m.) bilan.eni(4m)ko‘paytirilib, uning umumiyl maydoni hisoblab chiqiladi.  $X=10\times 4=40 \text{ m}^2$ .

2.Endi aniqlangan yuzani xandak chuqurligiga ko‘paytirilib, xandakning hajmi hisoblab chiqiladi. $X=40\text{m}\times 3\text{m}=120\text{m}^3$ .

3.Kompast tayyorlashda uning hajm og‘irligi hisoblab chiqiladi. Bizning misolimizda kompastning hajmini **0,7-0,8m<sup>3</sup>** olamiz. Demak  $1\text{m}^3$  kompastning hajmi- $0,75\text{m}^3$ .(bu yerda 1 tonna kompastning o‘rtacha hajmini oldik).

4.Endi bizning xandagimizning hajmi  $120\text{m}^3$  bo‘lsa, shu hajmdagi xandakka qancha kompast sig‘ishini hisoblaymiz. Demak,  $120\text{m}^3 \times 0,75 = 90\text{m}^3$ .

5.Shunday qilib bizning xandakka  $90\text{m}^3$  kompast sig‘ar ekan.

Tayyor mahsulotlar aniq ajratilgan maydonda yaxshilab aralashtiriladi. Kompost aralashmasining holatiga qarab 1–2 foizgacha yoki har 1 tonna aralashmaga 15–20 kg fosforli o‘g‘it yoki 150–200 kg past navli Qizilqum fosforitlaridan(12–14% R<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) solish mumkin.

Shundan keyin tayyor bo‘lgan aralashma-kompost bilan o‘rani to‘ldirib, elementlar yo‘qolishining oldini olish va sifatli bo‘lishi uchun go‘ngning umumiyligi miqdoriga nisbatan 10-15 foiziga teng miqdorda tuproq bilan aralashtirish mumkin. Tayyor bo‘lgan aralashma kerakli miqdordagi suv bilan namlanadi. Agar aralashmaning namligi yetarli bo‘lmasa, u holda tayyorlangan uyumlar ustidan go‘ng suyuqligi yoki zaruratga qarab yana suv quyiladi

Bu tadbir kompost tarkibida har xil jarayonlarni, jumladan, harorat o‘zgarishi, mezofil va termofil mikroorganizmlarining rivojlanishi, oksidlanish va chirindi hosil qilish jarayonlarini tezlatishga va niyoyat go‘ng tarkibidagi begona o‘t urug‘lari har xil zararkunanda hamda gelmentlarning tuxum, lichinkalari nobud bo‘lishiga olib keladi.

### **Kompostni ishlab chiqarish jarayoni 3ta asosiy bosqichdan iborat:**

**1.harorat ko‘tarilishi bosqichi:**

**2.Haroratni sovitish bosqichi:**

**3.Kompost mahsulotining pishib yetilish bosqichi:**

Biroq, bir bosqichning boshqasiga o‘tish jarayonini aniq belgilab bo‘lmaydi.

## **1.Kompost haroratni ko‘tarish bosqichi:**

Kompost uchun hamma biomahsulotlar tayyorlangan paytdan boshlab uch kun ichida, parchalanadigan jarayonda harorati  $60-70^{\circ}\text{C}$  ga yetadi va odatda 2-3 haftagacha davom etadi. Organik moddalarning aksariyati harorat ko‘tarilish bosqichida parchalanadi.

•Kompost harorati osongina parchalanadigan materialni bakteriyalar tomonidan qayta ishlash paytida chiqarilgan energiya tufayli ko‘tariladi. Yuqori harorat kompost ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xos va juda muhim qismidir. Bu kasalliklar, ularni keltirib chiqaruvchilar, zararkunandalar va begona o‘tlarni yo‘q qilish uchun asos bo‘ladi.

•Kompost ishlab chiqarishning ushbu bosqichida bakteriyalarning kislородга bo‘lgan talabi juda katta, chunki ularning soni tez o‘sib boradi. Parchalanadigan materialning yuqori harorati yetarli miqdordagi kislород bilan ta’minlanganligini ko‘rsatadi. Kompost uyumida (stakanda) havo yetishmasligi bakteriyalar rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi va kompost yoqimsiz hidga ega bo‘ladi.

•Sifatli kompost olish uchun yetarli namlik ham juda muhim, chunki u bakterialarni faolligini ta’minlaydi. Harorat ko‘tarilish bosqichida suvga bo‘lgan talab eng yuqori, chunki biologik faollik yuqori va mo‘l-ko‘l bug‘lanish sodir bo‘ladi.

•Harorat ko‘tarilgach, parchalanadigan materialning rH darajasi ko‘tariladi (ya’ni kislotalilik darajasi pasayadi).

## **2. Kompost haroratining sovish bosqichi:**

•Bakteriyalar oson hazm bo‘ladigan barcha moddalarni qayta ishlagandan so‘ng, kompost massasining harorati asta-sekin pasaya boshlaydi va u  $25-45^{\circ}\text{S}$  gacha tushadi.

•Harorat pasayganda zamburug‘lar faollashadi, bu esa somon, tolalar va yog‘och materiallarining parchalanishiga olib keladi. Bu jarayon sekinroq davom etadi, shuning uchun kompost massasining harorati ko‘tarilmaydi.

•Harorat pasayganda kompost massasining rH kamayadi (ya’ni kislotalilik darajasi oshadi).

### **3. Kompostning tayyor bo‘lish bosqichi:**

•Kompostning tayyor bo‘lish bosqichida oziqa moddalarining minerallashuvi va ximik kislotalar va antibiotiklarning to‘planishi yuz beradi.

•Ushbu bosqichda kompost ( kaliforniya qizil chuvalchang,qurtlari)har xil tuproq organizmlari bilan to‘ldiriladi.

•Ushbu bosqich oxirida kompost hajmi dastlabki hajmning yarmiga teng, u qorong‘u, unumdon tuproq bilan bir xil bo‘lib, foydalanishga tayyor bo‘ladi.

•Tayyor bo‘lgandan keyin kompost qancha uzoq saqlansa, u o‘g‘it kabi sifatini yo‘qotadi. Shu bilan birga, uning tuproq tarkibini yaxshilash qobiliyati kuchaymaydi.

•Tayyor bo‘lish bosqichida kompostga bo‘lgan ehtiyoj harorat ko‘tarilish darajasiga qaraganda past bo‘ladi. Tayyor bo‘lgan kompostni shu holatda saqlash 3-4 oy davom etadi.Kompost qancha ko‘p saqlansa uning tarkibidagi moddalar shunchalik tez kamayib boadi.Shuning uchun tayyor bo‘lgan kompostni ekin dalalariga yetkazib berish kerak.

Qoramol yoki parranda go‘ngi+daraxt bargi (xazon)+fosforli o‘g‘itlar asosida kompost tayyorlash va saqlashda eng samarali usullardan biri bo‘lgan xandaq va go‘ngxonalardan foydalanish mumkin. Qoramol go‘ngi va daraxt bargi 1:1 nisbatda, parranda go‘ngi va daraxt bargi 1:3 nisbatda, parranda, qoramol go‘ngi va daraxt barglari birgalikda bo‘lganda 1:2,5:2,5 nisbatda hamda nitrokalsiy fosfat o‘g‘itini (NKFU) kompost massasiga 1,5% nisbatda solib (qavatma-qavat), ustiga

15–20 sm qalinlikda tuproq bilan shibbalab berkitish va 5–6 oy saqlash tavsiya qilinadi

**Tayyor bo‘lgan ushbu kompostni yerni haydashdan oldin 4-6 kg/m<sup>2</sup> miqdorida solish tavsiya etiladi.**

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ayrim xo‘jaliklarda ko‘pincha mahalliy o‘g‘it ochiq va sochilgan holatda saqlanadi. Bunday saqlangan go‘ngda va kompastda oziqa elementlari har 10 tonnasidan 23- 24% quruq modda, 44% gacha umumiylazot yo‘qoladi. Demak, yuqorida bildirib o‘tilgan taklif va mulohazalar amalda qo‘llanilsa, tuproq unumdarligi saqlanib qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l va sifatli hosil olishga erishiladi.

**Kompost tayyorlash tartibi Ilova-1**

Aralashma nomi	Nisbati, %					
	1	2	3	4	5	6
Qipiqlik (sholi yoki yog‘och)	25	25	25	25	25	15
Go‘ng (qoramol)	40	25	25	25	25	25
Tovuq go‘ngi	25	35	25	20	10	10
FG	10	15	25	30	40	50
Nisbati, kg						
Qipiqlik (sholi yoki yog‘och)	100	100	100	100	100	60
Go‘ng (qo‘y yoki mol)	100	100	100	100	100	100
Tovuq go‘ngi	175	140	100	80	40	40
FG	25	60	100	120	160	200

## Organik chiqindilardan kompost tayyorlash Ilova-2

T.r.	Variantlar	Tuproq solinadigan elementlarning nomi	Miqdori, kg, t/ga
1.	Nazorat-(FON)	Azot+fosfor+kaliy	N-202+P-142+K-100
2.	FON+Go‘ng	NPK+Mol go‘ngi	NPK+10t/ga Go‘ng
3.	FON+Go‘ng	NPK+Mol go‘ngi	NPK+20t/ga Go‘ng
4.	FON+Kompost-1	NPK+Kompost-1	NPK+10/ga Kompost-1
5.	FON+ Kompost-2	NPK +Kompost-2	NPK+10t/ga Kompost-2
6.	FON+ Kompost-3	NPK+Kompost-3	NPK+10t/ga Kompost-3
7.	FON+Kompost-1	NPK+Kompost-1	NPK+20/ga Kompost-1
8.	FON+ Kompost-2	NPK +Kompost-2	NPK+20t/ga Kompost-2
9.	FON+ Kompost-3	NPK+Kompost-3	NPK+20t/ga Kompost-3

Izoh: FG-fofogips

Kompost-1 – (sholi va yog‘och qipig‘i-25%, go‘ng-25%, tovuq go‘ngi-45%, fosfogips-5%)

Kompost-2 – (sholi va yog‘och qipig‘i-25%, go‘ng-25%, tovuq go‘ngi-35%, fosfogips-15%)

Kompost-3 – (sholi va yog‘och qipig‘i-25%, go‘ng-25%, tovuq go‘ngi-25%, fosfogips-25%)

### **Dehqon xo‘jaligi sharoitida kompost tayyorlash:**

#### **Kompost tayyorlash uchun zarar xom-ashyo materiallari:**

go‘ng, molxona shaltog‘i, xazon, eski kollektor-zovur tuproqlari, uy- ro‘zg‘or chiqindilari, ko‘mir kukuni, sholi qipig‘i, sanoat chiqindisi-fosfogums.

#### **1.Kompost qanday xom-ashyo va nisbatda tayyorlanadi?**

**Kompost tayyorlash uchun xom-ashyo:** go‘ng, molxona shaltog‘i, xazon, eski kollektor-zovur tuproqlari, uy- ro‘zg‘or chiqindilari, ko‘mir kukuni, sholi qipig‘i, sanoat chiqindisi-fosfogums.

Qoramol go‘ngi va daraxt bargi 1:1 nisbatda, parranda go‘ngi va daraxt bargi 1:3 nisbatda, parranda, qoramol go‘ngi va daraxt barglari birgalikda bo‘lganda 1:2,5 nisbatda hamda nitrokalsiy fosfat o‘g‘itini (NKFU) kompost massasiga 1,5% nisbatda solib (qavatma-qavat), ustiga 15–20 sm qalnlikda tuproq bilan shibalab berkitish va 5–6 oy saqlash tavsiya qilinadi

**2.Dehqon xo‘jaligi uchun har 1 m<sup>2</sup> maydonga 4-6 kg.kompost solish me’yoridan kelib chiqib zarur kompost miqdorini hisoblab chiqing?**

Buning uchun zarur xandak qaziladi.

Xandak uzunligi-4 m.

Eni-3 m.

Chuqurligi-1,5m.

Qazilgan xandakka xom-ashyoning zichligi 0,8 m<sup>2</sup>/kg bo‘lganda 14400kg.xom ashyo joylashtiriladi.

Ushbu xom-ashyo 3 oy kompost tayyor bo‘lish jarayonida hajmi 0,25-0,30% ga kamayib uning miqdori 10800 yoki 11000 kg.tushadi. Bu tayyor kompost massasi hisoblanadi.Ushbu kompost massasi har 1m<sup>2</sup>.ga 5kg.berilganda 20-21sotixga yetarlik bo‘ladi.

**Topshiriq №1:** Quyida berilganlar asosida 20 tonna kompost tayyorlang.

1. Xom-ashyoni qo‘llash nisbatlari quyidagicha: Kompost-1-(sholi va yog‘och qipig‘i-25%, go‘ng-25%, tovuq go‘ngi-45%, fosfogips-5%)
2. Yechish: Xom-ashyoni berilgan foyizlaridan kelib chiqib kompost tayyorlash uchun kerak bo‘lgan mahsulotni umumiy miqdorini hisoblab chiqiladi.
3. Demak:
  - sholi va yog‘och qipig‘i -25%-5 tonna bo‘ladi.
  - qoramol go‘ngning-25%-ham -5 tonna bo‘ladi.
  - tovuq go‘ngining-45%-9 tonna bo‘ladi.

-fosfogipsning-5%-1 tonna bo‘ladi.

Kompast tayyorlash uchun kerak bo‘lgan jami mahsulot-20 tonna ekan.

### **Topshiriq №2:**

1.uzunligi-6 m.

2.eni-4 m.

3.chuqurligi-3 m. bo‘lgan kompast tayyorlashga mo‘ljallangan xandakning hajmini hisoblang.

Demak: Hisoblash tartibi quyidagicha: dastlab uzunligi bilan chuqurligi keyin enini bir-biriga ko‘paytirib topiladi.

$$Xx = 6 \times 4 \times 3 = 72 \text{m}^3$$

Izoh: Xandak xajmi.

**Topshiriq №3:** Ushbu xandagga kompastning zichligi yoki hajm massasi 0,8t/m<sup>3</sup> bo‘lsa qancha kompast ketadi.

Yechish: 72m<sup>3</sup>ni 0,8t/m<sup>3</sup> ga ko‘paytiramiz.U bo‘ladi  $72 \times 0,8 = 57,6$  yoki 58 m<sup>3</sup>. Demak ushbu xandakka 58 m<sup>3</sup> kompast ketar ekan.

Auditoriyada ishslash uchun topshiriqlar:

**Topshiriq №1: Tayyorlangan 20 tonna kompast uchun qanday qajmli xandak kerak.**

### **Topshiriq №2:**

Kompost-2 – (sholi va yog‘och qipig‘i-25%, go‘ng-25%, tovuq go‘ngi-35%, fosfogips-15%)

Kompost-3 – (sholi va yog‘och qipig‘i-25%, go‘ng-25%, tovuq go‘ngi-25%, fosfogips-25%) larni tayyorlang.

### **Topshiriq №3:**

Fermer xo‘jaligingizda mavjud xom-ashyo hisobidan kompast tayyorlang.:

1.10 t.sholi qipig‘i.10 t.yog‘och qipig‘i.

2.10 t.qoramol go‘ngi.

3.20 t.tovuq go‘ngi.

4.5.t fosfogips.

Xom-ashyoni qo‘llash nisbatlari kompost-1.2,3larda berilgan:

**Talabani o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun savollar:**

1.Sizning fermer xo‘jaligingiz uchunqancha kompost tayyorlash kerak?

2.Kompost tayyorlashda nechta bosqichdan o‘tadi?

3.Kompost tayyorlash uchun xom-ashyoni qaerdan olish mumkin?

4.Kompost tayyorlashda xom-ashyo nisbati qancha bo‘lishi kerak?

5.Organik dehqonchilikda kompost mineral o‘g‘itni o‘rnini bosadimi?

***MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR***

Tinglovchilar "Qarama-qarshi munosabat" metodi orqali mavzuning umumiyligi mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi.

O‘quvchi-talabalar faoliyatining samaradorligini ta’minlash uchun ularning e’tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:

1-jadval

**"Qarama-qarshi munosabat" metodini orqali tushunchalar ahamiyiti**

Mavzuning ahamiyati			
Nº	Muhim tushunchalar	Nº	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	

3.		3.	
4.		4.	
5.		5.	
...		...	

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Axmurzaev Sh.I. Tuproqni mulchalash usullari va muddatlarini g‘o‘zaning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri. Dissertatsiya avtoreferati. 2018 y. 5-10 betlar.
2. Ilka Gomes i Liza Tivant. Organik dehqonchilikdan o‘quv qo‘llanma. Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq-xo‘jaligi tashkiloti (FAO). Russ tiliga Avetika Nersisyan tarjimasi. Budapesht, 2017. 1-120 b.
3. Niyazaliev M., Mirzaev L.”Organo-ma’dan kompostlar-yer quvvati” O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi.jurnali. 2009 y. 2-sон
4. Nazarov N, Mirzajonov K, Ibragimov O, Isaev S. Dehqonchilikning tejamkor texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T. 2014 yil 179 b.
5. Sattarov J., Xolmurodova R. Biologik dehqonchilik va noan’anaviy o‘g‘it. Agrokimyo himoya va o‘simliklar karantini. 2017 y. №4. 7-9 b.
6. To‘xtashev B., Toshpulatov Ch., O‘zbekistonda organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish-davr talabi. AGRO ILM.2019y.№2, 96-98 b.

### **4-Mavzu: Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari va uni qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni.**

**Tayanch iboralar:** Almashlab ekish, rotatsiya jadvali, qishloq xo‘jaligi, qisqa rotatsiya, navbatlab ekish.

**Maqsadi va vazifasi:** Ushbu amaliy mashg‘ulotda tinglovchilar qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari bilan tanishadilar. Almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzishga doir dastlabki ma’lumotlardan foydalanib ma’lumotlar bazasini yaratadilar.(jadval berilgan). Almashlab ekishda ekinlar turi va ularning salmog‘ini hisoblab chiqadila.Har bir guruh tuproq kesimlaridan kelib chiqib almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzadilar.Ularni yillar va dalalar bo‘yicha joylashtirib chiqadilar. Hisoblash ishlari guruhlarga bo‘linib olib boriladi.

Bunda tinglovchilar yangi pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanadilar.

**Topshiriq №1.** Almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzishga doir dastlabki ma'lumotlarni shakllantiring.

**Topshiriq №2.** Quyida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzing.

Respublika dehqonchiligidagi islohatlar amalga oshiriladyotgan bugungi kunda yer va suvga bo'lgan munosabatlar butkul o'zgarmoqda. Endilikda qishloq xo'jaligiga organik, biologik dehqonchilik tizim kirib keldi. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichida aholini ekologik toza qishloq-xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Bugungi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi kimyoviy vositalardan xoli bo'lishini talab etilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Jumladan, toza bozor talabiga to'liq javob beradigan ekologik sof mahsulot faqat organik dehqonchilik tizimida ishlab chiqariladi. Buni dunyoning yetakchi qishloq xo'jaligi tasdiqlab turibdi. Ana shu talabdan kelib chiqib, mahsulot yetishtirish texnologik jarayonlariga, jumladan uning ajralmas bug'uni bo'lgan almashlab ekishda organik dehqonchilik tizimini kiritish masalasi kun tartibiga chiqmoqda.

Tuproqda organik moddalar miqdori yerga go'ng, mahalliy o'g'itlar solish, ko'kat o'g'it sifatida ekin ekip uni haydar tuproqqa aralashtirib yuborish, o'simliklarni ildiz va ang'iz qoldiqlari, mikroorganizimlari va tuproq faunalari hisobiga to'ldirib boriladi. Organik o'g'itlardan doimo foydalanish tuproqda o'simlik o'zlashtira oladigan holatdagi oziq moddalar miqdorini ko'paytiradi hamda gumus miqdorini oshirib uni tez parchalanishdan saqlaydi. Ana shu tariqa tuproqda gumusning miqdoriga almashlab ekish va siderat o'simliklarni ekish foydali ta'sir etadi.

Almashlab ekish organik dehqonchilikning muhim tarkibiy qismidir. Almashlab ekish tizimida mazkur fermer xo'jaligining dala ishlarini tashkil etilishi aks ettiriladi, almashlab ekish tizimi asosida tuproqni ishslash tartibi, o'g'itlash, begona o'tlarga, kasallik va zararkunandalarga hamda tuproq eroziyasiga qarshi kurash tadbirlari amalga oshiriladi. Dehqonchilikda to'g'ri almashlab ekish tizimini to'liq joriy etish hisobiga ishlab chiqarish jarayonida, ya'ni mahsulotlar

yetshtirishda mutlaqo kimyoviy vositalarni qo‘llamasdan toza, sof mahsulot yetshtirish asosi yaratilish imkoniyatini beradi.

Turli ekinlar tuproqda turli miqdorda ildiz qoldig‘i va azot qoldirib, uning unumdorligiga har xil ta’sir etadi. Ko‘p yillik o‘tlar o‘rib olinganidan keyin tuproqda ko‘p miqdorda organik moddalar qoldiradi. Masalan 3 yillik beda 10-11 t/ga ildiz qoldig‘i va 300-500 kg biologik azot to‘playdi. Shu tufayli tuproqning strukturasi, suv-fizik xossalari, nam sig‘imi, zichligi, tuproqning oziq, havo, issiqlik, suv rejimlari hamda mikroorganizmlar faoliyati yaxshilanadi. Almashlab ekish ta’sirida tuproqda turli kasalliklar va hashoratlar miqdori keskin kamayadi, gumus (chirindi) miqdori ortadi.<sup>48</sup>

Monokulturada, agar ayni bir dalaning o‘zida faqat bir yillik ekinlar o‘stirilganda ko‘p hollarda tuproqning tabiiy-kimyoviy xossalari yomonlashib, u kuchsizlanib qoladi.

Bir maydonning o‘zida bir xil ekin uzoq vaqt ekilsa, oziq moddalarga nisbatan tuproqda bir tomonlama oriqlash yuz beradi. Ma’lumki, ekinlar oziq rejimiga turlicha ehtiyoj sezadi. G‘alla ekinlari, kartoshka fosforni, ildiz mevalilar kaliyni, dukkaklilar fosfor va kaliyni, g‘o‘za azot va fosforni ko‘p o‘zlashtiradi. Bundan tashqari, turli o‘simliklarning ildiz tizimi har xil bo‘ladi va suv, oziq moddalarni tuproqning turli qatlamlaridan har xil miqdorda oladi.

Respublikaning sug‘oriladigan yerlarida quyidagi almashlab ekish turlari qo‘llaniladi.

1. Dalali almashlab ekish (don va texnika ekinlarini yetshtirishga mo‘ljallangan).
2. Yem-xashak almashlab ekish (asosan yem-xashak ekinlari va sabzavot, poliz kartoshka yetshtirish uchun mo‘ljallangan).
3. Maxsus almashlab ekish (ekinlar kasalligini oldini olish va qarshi kurashga, tuproq muhofazasiga va melioratsiyasiga mo‘ljallangan).

Xo‘jalik maqsadiga ko‘ra dala, yem-xashak, sabzavot va maxsus almashlab ekish farq qilinadi.

### **Topshiriq: №3. Tuproq unumdorligini tiklashga qaratilgan almashlab ekish tarkibini ishlab chiqing:**

- ekin va qator oralari ishlanadigan ekinlarni almashlab ekish,
- shudgor almashlab ekish,
- shudgor va qator oralari ishlanadigan ekinlarni almashlab ekish,
- ko‘kat o‘g‘it ekinlarini almashlab ekish,
- o‘t hamda qator oralari ishlanadigan ekinlarni almashlab ekish,
- o‘t-dalali va bog‘ almashlab ekishga bo‘linadi.

Ekinlarni dalalar va yillar bo‘yicha ilmiy asosda navbatlab ekish *almashlab ekish* dab ataladi. Xo‘jalikda ekinlarning ratsional navbatlanishi *almashlab ekish tizimini* tashkil etadi va u ishlab chiqilgan ekin maydonlari strukturasi asosida olib boriladi..

Bundan tashqari, muayyan maqsadda almashlab ekishga ko‘ra, g‘alla-g‘o‘za, g‘alla-g‘o‘za-yem-xashak, g‘alla-g‘o‘za-sabzovot, g‘o‘za-beda almashlab ekish, g‘o‘za-makkajo‘xori-beda almashlab ekish, don ekinlari almashlab ekish, sabzavot-don ekinlari *almashlab ekish* sxemasi bo‘ladi va hokazo.

Almashlab ekishning har qaysi dalasida ma’lum vaqt davomida ekinlarni izchillik bilan navbatlab ekish *rotatsiya* deb ataladi (rotatsiya lotincha-rotatie so‘zidan olingan bo‘lib davra aylanishi degan ma’noni bildiradi). Odatda, almashlab ekish dalalari soni rotatsiya yillari soniga mos keladi. Bir rotatsiya davomida yillar va dalalar bo‘yicha ekinlarni navbatlab joylanishi belgilanadigan jadval *rotatsiya jadvali* deb ataladi.

Almashlab ekishda rotatsion jadval quyidagicha tuziladi: Dalalar soni rotatsiya yiliga teng qilib olinib, ular tartib raqami gorizontal yo‘nalishda beriladi. Yillar bir rotatsiya muddati uchun, ya’ni dalalar soniga teng qilib beriladi. Almashlab ekiladigan dalalar soni rotatsiya yillari soniga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

Masalan, 2:1 paxta-kuzgi bug‘doy almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzish kerak bo‘lsin. Bu sxema bo‘yicha 2 yil paxta ekiladi, 1 yil kuzgi bug‘doy ekiladi. Bir rotatsiya 3 yilga teng bo‘ladi. Demak, buning uchun 3 dalali rotatsion

jadval tuziladi. Rotatsion jadvalda ekinlarni uch yil davomida navbatlab ekish aks ettiriladi (1 -jadval).

#### 4 1-jadval

Almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzishga doir dastlabki ma'lumotlar

Almashlab ekishning nomi	Almashlab ekish tizimlari	Ekinlarning salmog'i
Paxta-kuzgi bug'doy	2:1	g'o'za salmog'i 66,6%, bug'doy 33,3%),
Kuzgi bug'doy-paxta	2:1	bug'doy 66,6%, g'o'za 33,3%,
G'o'za-kuzgi bug'doy-soya	1:1:1	g'o'za 33,4%, bug'doy 33,3%, soya 33,3%),
G'o'za-kuzgi bug'doy	1:1	g'o'za 50,0%, bug'doy 50,0%)

Almashlab ekishga kiritilgan ekinlarning gruh ro'yxati va ularni navbatlash tartibi yoki almashlab ekiladigan ekinlar bilan band bo'ladigan dalalarning biri-biriga nisbati ***almashlab ekish sxemasi*** deyiladi.

Bir dalaning o'zida bitta ekining uzoq vaqt ekilishi surunkasiga ekish deyiladi.

1. Xo'jalik maydonining ko'p qismida uzoq vaqt bitta ekin ekilishi monokultura deyiladi. Mono-yunoncha so'z bo'lib, bir, yagona demakdir.

2. Surunkasiga bir xil ekin ekilishi oziq elementlarini bir tomonlama kamayishigi sabab bo'ladi.

3. Shu ekinga moslashgan begona o'tlar, hashoratlar va kasalliklar ko'payishiga olib keladi.

4. Tajriba ma'lumotlarigi ko'ra surunkasiga g'o'za ekilgan yerda vilt kasali 40-50% ni, almashlab ekilgan dalada esa - 9% ni tashkil qilgan.

Ekinlar surunkasiga ekilganda hosil kamayib ketadi. Hududlarida o'tkazilgan ko'p yillik tajriba ma'lumotlari ham buni tasdiqlaydi.

#### 4.2. Ekinlarni navbatlab ekishning biologik asoslari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ekinlarni navbatlab ekish ko'p yillardan beri amaliyotda sinalib kelgan. Avvolo navbatlab ekish hisobiga tuproqning fizik xususiyatlari, natijada uning biologik faolligi (mikroorganizmlar uchun sharoitning yaxshilanishi) yaxshilanadi. Chunki bir

xil ekinning ildizi (popuk ildizli o'simliklar) tuproqning yuza qismida o'sib rivojlanishga moslashgan bo'lsa, ikkinchi bir xil o'simlikning ildizi (o'q ildizli o'simliklar) chuqurroq qatlamida o'sib rivolanadi.

Ikkinchidan dukkakli ekinlar bilan sabzovat yoki boshqa ekinlarni navbatlanishi hisobiga, bir xil ekin to'plagan oziqa moddasini ikkinchi o'simlik o'zlashtirib, uni ildizi tuproq qatlamlari orasiga kirib borishi hisobiga u yerda suv, havo, oziqa muhiti yaxshilanadi. Eng muhimi ushbu to'plangan oziqa moddasi minerallashmasdan o'simlik o'zlashtiradiga formaga o'tadi, natijada uni o'simlik oson o'zlashtiradi. Tuproqning biologik faolligini ta'minlaydigan mikroorganizmlar uchun muhit yaratiladi.

Organik dehqonchilikda birgina almashlab ekishning to'g'ri tashkil etishi hisobiga tuproqda oziqa balansni ushlab turish imkoniyati paydo bo'ladi. Organik dehqonchilik tizimida o'simliklar uchun tayyor oziqa hosil qiladigan o'simliklar bilan bir qatorda tuproqning fizik xususiyatlarini yaxshilaydigan o'simliklar dukkakli, texnik, moyli, sabzovot va poliz, siderat, takroriy, ekinlardan iborat bir butun o'simliklar navbatlanib ekilishini tashkil etish zarur. Shu bilan bir qatorda ushbu dehqonchilik tizimiga bedani kiritish kerak bo'ladi. Beda organik dehqonchilikda birinchidan juda ko'p miqdorda tuproqda azot to'plasa, ikkinchida ushbu fermerning chovasini oziqa bilan ta'minlab go'ng yetishtirishda muhim hisoblanadi.

Dehqonchilik amaliyotidan ma'lumki, har bir ekin orasida muayyan turdag'i begona o'tlar o'sadi. Chunki ekinlar surunkasiga yetishtirilganda u yoki bu turdag'i begona o'tlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoit yaratiladi. Natijada surunkasiga yetishtirilayotgan ekinlar orasida muayyan sharoit faktorlariga moslashgan begona o'tlar ko'payib ketadi. Masalan, kuzgi va qishlovchi begona o'tlar kuzgi g'alla ekinlari orasida o'sishga moslashgan bo'lib, g'alla ekinlari ularning o'sishiga to'skinlik qilmaydi. Bahorgi begona o'tlarning o'sishiga esa xalaqit beradi, chunki kuzgi ekinlar bahorgi begona o'tlarga qaraganda tez o'sadi. Shuning uchun kuzgi va

bahorgi ekinlarni navbatlab ekish ikkala gruppaga mansub bo‘lgan begona o‘tlarni yo‘qotishni ta’minlaydi.

Yerga har xil organik o‘g‘itlar solinsa va tuproqning mikrobiologik aktivligi oshirilsa, u detoksikatsiyalanadi va kasallik qo‘zg‘atuvchi zamburug‘lar kamayishini, ya’ni nobud bo‘lishini ta’minlaydi. Ekinlarni almashlab ekish va agrotexnika tadbirlarini navbatlashtirish tuproq mikroorganizmlarini, shuningdek, rizosfera bakteriyalarini o‘zgartiradi. Almashlab ekishni joriy etish va agrotexnika usullarini takomillashtirib borish tuproqning kuchsizlanishini oldini olishda hamda o‘simliklarni zararkunanda va kasallikkardan himoya qilishda asosiy tadbir xisoblanadi.

#### **4.3. Dehqonchilikda oraliq va siderat ekinlar.**

Organik dehqonchilik tizimida sug‘oriladigan yerlardan oqilona foydalanish uchun oraliq ekinlar ekiladi. Asosiy ekinlar oralig‘ida ekib yetishtiriladigan ekinlarga oraliq ekinlar deb yuritiladi. Oraliq ekinlar sifatida bir yillik dukkkli ekinlar ekilganda simbioz jarayoni xisobiga tuproqdagi biologik azot miqdori sezilarli ortishi kuzatiladi, tuproqning agrokimyoviy xossalari yahshilanadi.

Tuproq unumdorligini oshirish maqsadida ko‘kat o‘g‘it sifatida ekilgan oraliq ekinlar-siderat ekinlar deb yuritiladi. Siderat ekinlar tuproqning agrokimyoviy, agrofizikaviy va mikrobiologik hossalariga ijobiy ta’sir etadi.

«Oraliq ekinlar» terminini o‘tgan asrda nemis adabiyotiga birinchi marta 1891 yili Shuls-Lyupshis kiritdi. U asosiy ekinlar bilan band bo‘lmagan vaqtida dalaga ekiladigan ekinlarni oraliq o‘simlik deb atashni taklif etdi. Hozirgi vaqtida ko‘pchilik mamlakatlarda oraliq ekinlar ko‘kat o‘g‘it hamda yem-xashak maqsadlarida yetishtiriladi.

Oraliq ekinlar yetishtirish universal ahamiyati ham hisobga olinadi: ya’ni, bu tehnologiyani joriy etilishi qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki xalq xo‘jaligining ko‘pchilik tarmoqlarini rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Masalan, oraliq ekin, tuproqning agrofizik, agrokimyoviy xossalari yahshilaydi, organik moddalarni keskin

oshiradi, tuproqning biologik va mikrobiologik xossalari yahshilaydi,.chorva xayvonlarini vitaminga boy sifatli oziqaga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi, fermer xo‘jaligini iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Oraliq ekinlar, odatda, kuzda asosiy ekin hosili yig‘ib olingandan keyin ekiladi. Ularni erta bahorda ham ekish mumkin. Takroriy va oraliq ekinlar hosilini kuzda va bahorda chorva mollariga oziq uchun o‘rib olish ham mumkin, ko‘kat o‘g‘it (siderat) sifatida tuproqda aralashtirib haydab yuborish ham mumkin.<sup>46</sup>

Takroriy ekinlar almashlab ekishning yem-xashak dalasida asosiy o‘tmishdosh ekin o‘rib-yig‘ib olingandan keyin, ya’ni yozning ikkinchi yarmida ekiladi. Takroriy ekin ekish muddati va nava ga ko‘ra, hamda ob-havo sharoitiga qarab donini yetiltirib yoki ko‘k poyasi yig‘ishtirib olinadi.

Takroriy yoki oraliq ekinlar hosilini -ko‘k massasini yig‘ishtirib olmay, uni tegishli ishchi quollar bilan maydalab, so‘ngra yerni haydash **sideratsiya** deyiladi. Shu maqsad uchun ekiladigan o‘simliklar siderat ekinlar deb ataladi. Ko‘pincha siderat ekinlar oraliq ekin deb ham yuritiladi.

Organik dehqonchilikda sug‘oriladigan maydonlarda oraliq va siderat ekinlarni yetishtirish fermerning chorvachiliginu mustahkam ozuqa bazasini yaratadi, erta bahorda chorvani vitaminlarga boy ko‘k o‘t bilan ta’minlaydi, yashil konveer tashkil etish uchun asos bo‘ladi. Shuningdek bu ekinlar tuproq unumdorligini oshiradi. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra 1 tonna o‘simlik ko‘k massasi siderat sifatida yerga ko‘mib haydalishi 4 tonna go‘ng solish bilan barobar. Bu ekinlardan yuqori hosil olinganda bir gektar maydonga 5-7 tonna va undan xam ortiq o‘simlik massasi qoladi.

Organik moddalar kam, mexanik tarkibi yengil tuproqli yerlarda siderat ekinlar ekish yaxshi natija beradi. Buning uchun kuzda asosiy ekindan keyin no‘xat, shabdor, bersim, javdar va boshqalar ekiladi. Bahorda yerni ag‘darib haydab, tuproqqa aralashtirib yuboriladi. Shunda tuproqda organik moddalar va azot miqdori ancha ortadi.

Siderat ekinlar g‘o‘za hosilini faqat birinchi yili emas, balki haydalgandan keyingi ikkinchi va uchinchi yillari ham oshiradi (4.2- jadval).

4.2-jadval

**Siderat ekinlar bahorda haydalganda paxta hosiliga ta’siri (ga/s)**

Tajriba variantlari	Haydalgan birinchi yili	Haydalgan ikkinchi yili	Shudgorga nisbatan 2 yillik qo‘sishimcha hosil
Shudgor (kontrol)	29,5	29,8	+0,0
Shabdor (bahorda haydalgan)	33,5	32,8	+7,0
Xantal (bahorda haydalgan)	32,5	33,3	+6,5
Javdar (bahorda haydalgan)	32,5	31,9	+5,1

Oraliq ekinlarni ekish tuproqni fitosanitariya nuqtai nazaridan sog‘lomlashtirishni, yerning melioratsiya holatini va tuproqning fizik-ximiayiy xossalari yaxshilanishini hamda tuproq unumdorligini ortishini ta’minlaydi.

**4. Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimi.**

Respublika Prezidentining 2015 yil 29 dekabrdagi “2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2460-sonli qarori orqali keyingi yillar davomida Respublikada tuproq unumdorligi past, qishloq xo‘jalik ekinlaridan mahsulot yetishtirishda past rentabellik bo‘lgan mavjud paxta yetishtiriladigan maydonlardan 170 ming hektar, g‘alla yetishtiradigan maydonlardan 50 ming jami 220 ming hektar maydonni qisqartirib, ushbu maydonlarga tuproq unumdorligini oshiradigan, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondiradigan sabzavot, poliz, kartoshka ekinlarini bosqichma-bosqich ekishni tashkil etish kabi muhim vazifalar qo‘yilganligi, darhaqiqat Respublikada tuproq unumdorligini oshirish, aholini

oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish nechog‘lik ustuvor, dolzarb masala ekanligini namoyon etmoqda.<sup>17</sup>

Endigi navbatda Respublikada mavjud dehqonchilik tizimlari oldida, jumladan organik dehqonchilik tizimi oldiga qo‘yilgan muhim masalalardan asosiysi dunyoda oziq-ovqat xavsizligi kun sayin oshib borayotgan bir davrda aholini eng birinchi navbatda oziq-ovqatga bo‘lgan talabini ijobiy hal etish masalasidir. Qishloq xo‘jaligi sohasida olib borilayotgan islohatlar natijasida yangi dehqonchilik tizimi vujudga keldi, ilgaridan mavjud bo‘lgan mavjud ko‘p dalali, katta massivlarga ega bo‘lgan g‘o‘za-beda almashlab ekish tizimlari esa talabga javob bermay qoldi. G‘o‘za yakkahokimligiga barham berilib, g‘alla-g‘o‘za, g‘alla-g‘o‘za-yem-xashak, g‘alla-g‘o‘za-sabzovot kabi ekinlarni almashlab va navbatlab ekish tartiblari kirib keldi.

**Topshiriq №4. Qisqa rotatsiyali almashlab ekishningquyida berilgan sxemalari bo‘yicha rotatsion jadvalini tuzing va har bir ekinning salmog‘ini hisoblab chiqing?:**

**1.Tipik bo‘z tuproqlar sharoitida qisqa rotatsiyali almashlab ekishning:**

1. 2:1 sxemasi: (1-yil, g‘o‘za + oraliq ekin javdar: 2-yil, g‘o‘za : 3-yil, kuzgi bug‘doy + takroriy mosh, bunda g‘o‘za salmog‘i 66,6%, bug‘doy 33,3%),

2. Yuqoridagiga mos holda faqat ekinlar turi o‘zgargan: 2:1 sxemasi: (1-yil, kuzgi bug‘doy + takroriy mosh: 2-yil, kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin javdar: 3-yil, g‘o‘za, bunda g‘o‘za 33,3%, bug‘doy 66,6%),

3. 1:1:1 sxemasi: (1-yil, kuzgi bug‘doy +takroriy mosh+oraliq ekin tritikale : 2-yil, g‘o‘za + oraliq ekin tritikale : 3-yil, soya, bunda g‘o‘za 33,4%, bug‘doy 33,3%, soya 33,3%),

4. 1:1 (1-yil, kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin javdar : 2-yil, g‘o‘za, bunda g‘o‘za 50,0%, bug‘doy 50,0%) tizimlari

**4.3-jadval**

**2:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning jadvali**

Yillar	Dalalar
--------	---------

<sup>17</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 29 декабрдаги “2016-2020 йилларда қишлоқ хўжалигини янада ислоҳ қилиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2460-сонли қарори

2018	g‘o‘za + oraliq ekin javdar	g‘o‘za	kuzgi bug‘doy + takroriy mosh
2019	g‘o‘za	kuzgi bug‘doy + takroriy mosh	g‘o‘za + oraliq ekin javdar
2020	kuzgi bug‘doy +takroriy mosh	g‘o‘za + oraliq ekin javdar	g‘o‘za

Izoh: Birinchi yili: 1-dala: g‘o‘za+oraliq ekin, 2-dala-g‘o‘za, 3-yili-kuzgi bug‘doy- takroriy ekin- mosh. Bunda g‘o‘za- salmog‘i 66,6%, kuzgi bug‘doy -33,3%).

#### 4.4-jadval

##### 2. 1:1:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning rotatsion jadvali

Yillar	Dalalar		
2018	kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin	g‘o‘za+oraliq ekin	soya
2019	g‘o‘za+oraliq ekin	soya	kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin
2020	soya	kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin	g‘o‘za + oraliq ekin

Izoh: Birinchi yil, kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin tritikale: ikkinchi yil, g‘o‘za + oraliq ekin tritikale: Uchinchi yil, soya, bunda g‘o‘za 33,4%, bug‘doy 33,3%, soya 33,3%)

#### 2. O‘tloqi-allyuvial tuproqlar uchun:

1.1:1:1 (1-yil, kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin tritikale: 2-yil,  
soya: 3-yil, g‘o‘za, bunda g‘o‘za 33,4%, bug‘doy 33,3%, soya 33,3%).

#### 4.5-jadval

##### 1:1:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning rotatsion jadvali

Yillar	Dalalar		
2018	kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin	soya	g‘o‘za,
2019	soya	g‘o‘za,	kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq egin
2020	g‘o‘za,	kuzgi bug‘doy + takroriy mosh + oraliq ekin	soya

Izoh: Birinchi yil, kuzgi bugdoy + takroriy mosh + oraliq ekin tritikale: Ikkinci yil, soya: Uchinchi yil, g‘o‘za, bunda g‘o‘za 33,4%, bug‘doy 33,3%, soya 33,3%

### 3. Taqirsimon tuproqlar uchun:

1. 1:1:1 (1-yil, kuzgi bug‘doy + takrорiy mosh + oraliq ekin tritikale: 2-yil, g‘o‘za + oraliq ekin tritikale:3-yil soya, bunda g‘o‘za 33,4%, bug‘doy 33,3%, soya 33,3%),
2. 1:1:1 (1-yil, kuzgi bug‘doy + takrорiy mosh: 2-yil, g‘o‘za + oraliq ekin tritikale : 3-yil, soya, bunda g‘o‘za 33,4%, bug‘doy 33,3%, soya 33,3%),
3. 1:1 (1-yil, kuzgi bug‘doy + takrорiy mosh + oraliq ekin javdar: 2-yil, g‘o‘za, bunda g‘o‘za 50,0%, bug‘doy 50,0%) tizimlari tavsiya etiladi.

#### 4.6-jadval

1. 1:1:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning rotatsion jadvali

Yillar	Dalalar		
	I	II	III
2018	kuzgi bug‘doy + takrорiy mosh + oraliq ekin	g‘o‘za+oraliq ekin tritikale	soya,
2019	g‘o‘za +oraliq ekin tritikale	soya,	kuzgi bug‘doy + takrорiy mosh + oraliq ekin
2020	soya,	kuzgi bug‘doy+ takrорiy mosh+ oraliq ekin	g‘o‘za +oraliq ekin tritikale

**Izoh:** Birinchi yil, kuzgi bug‘doy +takrорiy mosh+oraliq ekin tritikale : ikkinchi yil, g‘o‘za +oraliq ekin tritikale :Uchinchi yil soya, bunda g‘o‘za 33,4%, bug‘doy 33,3%, soya 33,3%,

Ball bonitetiga qarab tavsiya etiladigan qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari:

▪ **Ball boniteti- 40-50 bo‘lgan tuproqlar uchun:**

▪ **Paxtachilik va g‘allachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jalilarida:**

1:1-g‘o‘za:kuzgi bug‘doy

1:1-g‘o‘za:kuzgi bug‘doy:takrорiy ekin:dukkakli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo‘xori

1:1-g‘o‘za : kuzgi bug‘doy : takrорiy ekin : dukkakli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo‘xori, kechki sabzavotlar : oraliq ekini : javdar, raps, perko : g‘o‘za

**▪ Ball boniteti-50-70 bo‘lgan tuproqlar uchun:**

**▪ Paxtachilik va g‘allachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jalilarida:**

2:1-g‘o‘za:g‘o‘za:kuzgi bug‘doy

2:1-g‘o‘za:g‘o‘za:kuzgi bug‘doy:takroriy ekin: dukkakli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo‘xori, kechki sabzavotlar

2:1-g‘o‘za : g‘o‘za : kuzgi bug‘doy : takroriy ekin : dukkakli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo‘xori, kechki sabzavotlar : oroliq ekini : javdar, raps, perko : g‘o‘za

**▪ Sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jalilarida:**

1:1-ertagi, o‘rtagi sabzavotlar : kuzgi bug‘doy

1:1-ertagi, o‘rtagi sabzavotlar : kuzgi bug‘doy : takroriy dukkakli ekinlar, kechki sabzavotlar va kartoshka

1:1-ertagi, o‘rtagi sabzavotlar : kuzgi bug‘doy : takroriy dukkakli ekinlar, kechki sabzavotlar va kartoshka : oraliq ekinlari (javdar, raps, perko)

**Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarda:**

3:3-beda 3 yil:3 yil g‘alla ekinlari (don uchun):takroriy yem-xashak ekinlari(makkajo‘xori, kungaboqar, soya va x.k.).

4.7-jadval

Ball bonitetiga qarab tavsiya etiladigan qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari

Ball bonitetiga-40-50 Paxtachilik g‘allachilikka ixtisoslashgan xo‘jalilarida:	va fermer	1:1-g‘o‘za:kuzgi bug‘doy. 1:1-g‘o‘za:kuzgi bug‘doy:takroriy ekin:dukkakli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo‘hori. 1:1-g‘o‘za:kuzgi bug‘doy:takroriy ekin :dukkakli ekinlar (mosh,loviya,soya), va makkajo‘hori, kechki sabzavotlar : oroliq ekini : javdar, raps, perko : g‘o‘za.
Ball boniteti-50-70 Paxtachilik g‘allachilikka ixtisoslashgan xo‘jalilarida:	va fermer	2:1-g‘o‘za:g‘o‘za:kuzgi bug‘doy. 2:1-g‘o‘za:g‘o‘za:kuzgi bug‘doy:takroriy ekin: dukkakli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo‘hori, kechki sabzavotlar. 2:1-g‘o‘za : g‘o‘za : kuzgi bug‘doy : takroriy ekin : dukkakli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo‘hori, kechki sabzavotlar : oroliq ekini : javdar, raps, perko : g‘o‘za. 3:3-beda 3 yil : 3 yil g‘alla ekinlari (don uchun) : takroriy yem-xashak ekinlari (makkajo‘hori, kungaboqar, soya va

	x.k.)
Sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo'jalilarida: fermer	1:1-ertagi, o'rtagi sabzavotlar : kuzgi bug'doy 1:1-ertagi, o'rtagi sabzavotlar : kuzgi bug'doy : takroriy dukkakli ekinlar, kechki sabzavotlar va kartoshka 1:1-ertagi, o'rtagi sabzavotlar : kuzgi bug'doy : takroriy dukkakli ekinlar, kechki sabzavotlar va kartoshka : oraliq ekinlari (javdar, raps, perko)
Chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda: fermer	3:3-beda 3 yil : 3 yil g'alla ekinlari (don uchun) : takroriy yem-xashak ekinlari (makkajo'hori, kungaboqar, soya va x.k.)

### Nazorat savollari:

1. Dehqonchilikda almashlab ekish deganda nima nazarda tutiladi?
2. Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimi qanday tizim?
3. Dehqonchilikda almashlab ekishni qanday zaruriyati mavjud?
4. Mavjud almashlab ekish tizimi oldingisidan nimasi bilan farq qiladi?
5. Almashlab ekishda rotatsiya nima?
6. Oraliq ekinlarning almashlab ekishda qanday ahamiyati bor?
7. Almashlab ekishda sideratsiyaning ahamiyati?
- 8.O'zbekistonda almashlab ekishning qanday turlari mavjud.

### **MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR**

Talabalar "Qarama-qarshi munosabat" metodi orqali mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi.

O'quvchi-talabalar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:

jadval.

### **"Qarama-qarshi munosabat" metodini orqali tushunchalar ahamiyiti**

Mavzuning ahamiyati			
No	Muhim tushunchalar	No	Muhim bo'Imagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	

3.		3.	
4.		4.	
5.		5.	
...		...	

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Xoliqov B., "Yangi almashlab ekish tizimlari va tuproq unumdonligi" Noshirlik yog'dusi nashriyoti.T.: -2010 y. 31-71b. 120 b.
- 2.. Xolikov B, Yangi almashlab ekish tizimlari va tuproq unumdonligi. Noshirlik yog'dusi nashriyoti. O'quv qo'llanma. T. 2010 yil 120 b.
- 3.Teshaev Sh., Nurmatov Sh., Muborakov A. va b. G'o'za parvarishida suv va manba tejovchi agrotexnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar. – T., 2013.
- 4.Norqulov U.Sh.Axmirzaev,A. Saimbetov Dehqonchilik va melioratsiya fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar. Toshkent 2019.
- 5.Egamberdiyev O., Nurbekov A. How to reduce spending and improve harvests, journal – Land Energy biodiversity. 3-6 page, Newsletter № 5. 01.12.2014

### **5-Mavzu:Qishloq xo'jaligida GIS texnologiyadan foydalanish.**

#### **Aniq qishloq xo'jaligi.**

**Maqsadi va vazifasi:** Amaliy mashg'ulotda tinglovchi aniq qishloq xo'jaligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. Olingan ma'lumotlar kompyuterga solinadi, ular tahlil qilinadi. Dastlab ushbu texnologiyada tuproq tahlili o'rnatiladi. Uning tarkibidagi oziq moddalari maxsus dalalarda o'rnatilgan datchiklarda kuzatib boriladi. O'simliklarni o'sish va rivojlanishi maxsus o'rnatilgan datchiklardan olingan ma'lumotlar orqalio'rghaniladi.

**Tayanch so'zlar:** Gis, raqamli texnologiya, qishloq xo'jaligi, axborot, geografiya.

**Topshiriq:** Masalan, 10 getkar g'o'za dalasida tuproqning holati, o'simlikning o'sish va rivojlanishini maxsus o'rnatilgan datchiklar yordamida o'rghanish..

Buning uchun ushbu ekin dalasiga o'rnatilgan datchiklar har 8 soatda kuzatib boriladi. Dastlab tuproqning oziq moddalar bilan ta'minlanishi, sug'orishdan oldingi tuproq namligi.uning o'zgarish dinamikasi,o'simlikni o'sish va rivojlanish intensivligi,etishmaydigan oziq moddasinig turi o'simlik holatiga qarab kuzatiladi.

Aniq qishloq xo'jaligi bu hosil sifatini yaxshilash maqsadida eng yangi texnologiyalarni qishloq xo'jaligida qo'llash innovatsion usulidir. Aniq qishloq xo'jaligi texnologiyalari dron yoki sputniklar yordamida olingan surat yoki videotasvirlar kabi masofaviy zondlashning aniq ma'lumotlardan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu tasvirlar tuproq va **qishloq xo'jalik ekinlarining o'sish,**

## **rivojlanish va hosilning holatini samarali kuzatib borishda ko‘maklashadi.**

Mazkur dehqonchilik usuli xarajatlarni pasaytirish hamda atrof-muhitning holatini yaxshilashga yordam berishi tufayli qishloq xo‘jalik mutaxassislar ko‘pchiligining e’tiborini tortmoqda.

### **Aniq qishloq xo‘jaligi nima va uning joriy etilishining istiqbollari qanday?**

Aniq qishloq xo‘jaligi bu avtomatizatsiya natijasida XX asrning boshida yuzaga kelgan qishloq xo‘jalik inqilobi zamonaviy bosqichining avji bo‘lib u 1990 yilda genetik modifikatsiyalarning yangi usulari joriy etganda davom etildi.

Aniq qishloq xo‘jaligining qonun-qoidalarini tushunish uchun oldin aniq qishloq xo‘jaligi tushunchani va uning qishloq xo‘jalik mutaxassislari uchun afzalliklarini aniqlash lozim. Ushbu usul aniq dehqonchilik nomi bilan ham ma’lum. Mazkur konsepsiya ostida informatsion texnologiyalar (IT)ni qo‘llagan holda daladagi qishloq xo‘jalik ekinlarni kuzatish, o‘lchash va ularning tashqi va ichki o‘zgaruvchanlikga ta’sirlanishi ko‘zda tutiladi.

**Aniq qishloq xo‘jalik tizimining asosiy maqsadi:** uning afzalliklarni belgilaydi. Ushbu yondashuv bir tomondan optimal mahsuldorligiga erishish maqsadida qishloq xo‘jalik ekinlari va tuproqga bo‘lgan talablarini, ikkinchi tomondan esa resurslar saqlanishi, ekologik barqarorlik va muhofaza ta’milanishini ta’riflaydi. Mazkur qishloq xo‘jalikni boshqarish muntazam usuli dehqonchilikning muhim muammolarni - resurslarning keragidan ortiq ishlatilishi, yirik xarajatlar va atrof-muhitga halokat ta’siri-hal qilishda yordam beradi.

Hozirgi kundagi yangi ilmiy-texnikaviy yutuqlari fermerlarning faoliyatini yengillashtirib ularga avvalgidan ko‘ra har xil muammolarni tez hal qilishga yordam beradi.



### **5.1-Rasm:Maxsus boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan jarayonda mexanizatsiya yordamida ekinlarga ishlov berish jarayoni.**

Mavjud usullarning ko‘pligini hisobga olgan holda, tabiiyki, qishloq xo‘jalik mutaxassislari, narhiga yarasha eng yaxshi va sifatli mahsulotga ega bo‘lishiga intiladi. Demak, kaysi usuldan boshlash afzalroq? Har bir ma’lum texnologiyaning ijobiy va salbiy tomonlarni baholaganda sputnik va boshqa jihozlar yordamida monitoring qilish aniq qishloq xo‘jaligi uchun eng tejamli va yengil variant sifatida qabul qilinishi mumkin.

Aniq qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan masofaviy tasvirlar va ularni izohlash asboblari fermerlarga muammoli oraliqlarni aniqlash, muayan maqsadli hudud uchun qaysi usul qo‘llanilishi lozimligiga qaror qilish va buning uchun eng qulay vaqt ni hisoblashda ko‘maklashadi.

#### **Aniq qishloq xo‘jaligining bazaviy texnologiyalari**

O‘zgaruvchan me’yorlar texnologiyasi (Variable rate technology) bu fermerlarga xo‘jalikning muayyan sohasi doirasida sarflangan resurslar miqdorini nazorat qilishni imkon beradigan dehqonchilikda qo‘llaniladigan har qanday texnologiyasi yoki usulidir. Ushbu aniq qishloq xo‘jaligi texnologiyasi ixtisoslashtirilgan dasturlar, kontrollyorlar va differential global joylashtirish tizimidан (DGPS) foydalanadi. O‘zgaruvchan me’yorlar texnologiyasining uchta

asosiy yondashuvlar mavjud-qo‘lda bajariladigan, xaritalar yoki datchiklar ma’lumotidan foydalanish yordamida.

GPS yordamida tuproq namunalarni tanlab olish qishloq xo‘jalik usuli samarali qaror qabul qilish uchun ozuqa moddalarning tarkibi, pH darajasi va boshqa ma’lumotlar nazorati borasidagi natijalariga asoslanib tuproq namunalarni tanlab olishda asoslangan usuldir. Tanlab olish yo‘li bilan to‘plangan yirik ma’lumotlar **ekish va o‘g‘itlash** miqdorini optimizatsiyalash uchun o‘zgaruvchan me’yorni hioblashda qo‘llaniladi.

**Kompyuter dasturlari bu fermer xo‘jaliklarning aniq chizmalar, dala xaritalar, hosil tahlili, hosildorlik xaritalar hamda zarur resurslarning to‘g‘ri miqdorini aniqlash uchun mo‘ljallangan dasturlaridir.** Mazkur aniq qishloq xo‘jaligi usulining afzalliklari dehqonchilikni boshqarish uchun ekologik jihatidan xavfsiz rejani yaratishga ko‘maklashib, bu esa o‘z navbatida, xarajatlarni pasaytirish va hosildorlikni oshirishdan iboratdir. Bir tomonidan, ushbu dasturlar past ahamiyatli ma’lumotlarni taqdim etish va ushbu ma’lumotlar boshqa yordamchi tizimlarga kiritilishi imkon yo‘qligi sababli muhim qarorlarni qilish uchun tatbiq qilina olmaydi.

Aniq qishloq xo‘jaligi usulining masofaviy zondlash texnologiyasi ma’lum vaqt ichida hosilda stressni qo‘zg‘atadigan tuproq namlikning miqdorini baholash omillarini belgilaydi. Bunda dron va sputniklardan olingan ma’lumotlardan foydalaniladi. Sputnik tasvirlar dronlardan olingan ma’lumotlarga nisbatan tushunarli va har tomonlama aniqroqdir.

### **Aniq qishloq xo‘jaligi texnologiyalaridan qanday foydalaniladi?**

Aniq qishloq xo‘jaligi dalada joylashgan datchiklar yordamida dalalarni masofaviy nazorat qilish va boshqarish hamda **havodan dron va sputniklar yordamida kuzatishga** imkon beradi. Ushbu vositalarning har biri o‘zining aniq maqsadlariga mo‘ljallanganligi tufayli ularni tanlash murakkabdir.

Ilk ko‘rinishda onlayn dasturi (jumladan, Crop Monitoring) olingan ma’lumotlarni onlayn tarzda to‘plash, tayyorlash va tahlil qilish imkonini taqdim

etishi sababli sputnik tasvirlar masofaviy zondlashning eng foydali usuli ekaniga taasurot qoldiradi.

Ushbu IT-mahsulotlardan aniq qishloq xo‘jaligida qo‘llanilishi to‘liq ma’lumotlarni bir joyda to‘lab oldingi ma’lumotlarni olish va ularni qiyosiy tahlil qilish, hisobot tayyorlash va har qanday zaruriy ma’lumotlarni dala boshqarish jarayonining hamma ishtirokchilari (fermerlar, agronomlar, dalada ishlaydigan qishloq xo‘jalik mutaxassislari, sug‘urta kompaniyalar, treyderlar va h.q.) bilan bo‘lishish imkonini beradi.

### **O‘sish bosqichlari:**

O‘simliklar o‘sish bosqichi haqidagi dolzARB ma’lumoti aniq qishloq xo‘jaligi texnologiyani qo‘llagan agronomlarga dala ishlari uchun eng qulay vaqtini to‘g‘ri tanlashga yordam beradi. Dala ishlari o‘g‘itlash, insektitsidlar, fungitsidlarni qo‘shish, sug‘orish va drenaj tizimlarni to‘g‘ri taqsimlashni qamrab oladi. Shunday qilib, xo‘jalik ishlari uchun eng soz vaqtini tanlashga imkoniyatingiz mavjud.

### **Unumdarlik daraja bo‘yicha dalalarni zonalash:**

Xo‘jalik dalalari tuproq tarkibi, ozuqa moddalarga bo‘lgan ehtiyoji, suvni saqlash qobiliyati va boshqa ko‘p xususiyatlar bo‘yicha farqlanishi sababli dala zonalash usuli eng qulay usul hisoblanadi. Aniq qishloq xo‘jalik tizimi yer maqsadli vazifasi va unga ishlov berish usulini aniqlashda differensiatsiyalangan yondashuvni taklif qiladi.

Ushbu yondashuv deyarli real vaqtida olingan sputnik tasvirlari hamda muayyan retrospektiv (utmishga oid) oldingi ma’lumotlarni qiyosiy tahlili yordamida amalga oshiriladi. Ma’lum o‘xshashlik takroriy tarzda paydo bo‘lganiga e’tibor berganingizda bu, ko‘pincha, aniq qishloq xo‘jalik tizimi yordamida sizda foya keltira oladigan qonuniylik alomatidir.

### **Geografik axborot tizimi (GIS)**

Siz jixozlarning faqatgina qayerda joylashganini emas, balki uning aniq joyini bilishingiz zarur. Aniq qishloq xo‘jaligida GIS tufayli qishloq xo‘jalik ishlari va umumiylar unumdarlik rivojlanadi. Kompyuter yordamida boshqariladigan ekin qurilmalar (seyalkalar) va yomg‘irlatuvchilar bir egatdan ikki marta o‘tmasligi

sababli, natijada bir yer maydonga bir necha marta ishlov berish yoki yer maydonlarni o‘tkazib yuborish holatlari mavjud emas. Ushbu aniq qishloq xo‘jaligi innovatsiyasi materiallar sarflanishni pasaytirib kimyoviy preparatlardan foydalanish taqdirda esa tabiatni muhofaza qiladi.

### **Crop Monitoring – Sizning Aniq qishloq xo‘jaligi tizimiga birinchi qadamidir.**

Aniq qishloq xo‘jaligi tushunchani soddalashtirib ta’riflasak bu eng yangi kompyuter texnologiyalari yordamida deyarli real vaqt holatda dehqonchilik va o‘simlikshunoslik uchun zarur bo‘lgan aniq ma’lumotlarning olinishi va tahlil qilinishidir. Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi eng samarali yondashuvlarni aniqlashdan iborat.

#### **Aniq qishloq xo‘jaligi uchun Crop Monitoring dasturi.**

CropMonitoring dasturi yordamida barcha ma’lumotlar bir joyda to‘planib ob-havo sharoitlari, o‘simliklar o‘sish bosqichlari, ekish yoki o‘g‘itlash uchun eng munosib miqdori va vaqt, GIS dala zonalash va boshqa ko‘p ma’lumotlari batafsil va har tomonlama tahlil qilinadi.

Aqliy dasturi sizga talafotlarni oldini olishni ta’minlash uchun ob-havo, hosil va uning rivojidagi me’yordan tashqari bo‘lgan holatlar haqida barvaqt xabar beradi. Aniq qishloq xo‘jaligi borasidagi relevant ma’lumot va asosli tavsiyalariga ega bo‘lish tufayli xo‘jalikdan maksimal darajada samarali foydalanib urug‘ va o‘g‘itlar miqdorini pasaytirish va tabiatni muhofaza qilishda o‘z hissangizni qo‘shtishingiz mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalar rivojlangan sari ular bizning hayotimizdan mustaqil o‘rin olmoqda. Geografiya axborot tizimlari va texnologiyalar qadimdan rivojlanib kelayotgan geografiya, geologiya, geodeziya, kartografiya kabi fanlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ushbu fanlarning tajribasi, ana’nalari, g‘oyalariga tayanib yangi vujudga kelayotgan fan va texnologiyalar o‘z navbatida ularning rivojlanishiga ham hissa qo‘shtimoqda. Geodeziya va kartografiya esa o‘z vazifalarni yechishda geografiya axborot tizimlarining va texnologiyalarning yutuqlaridan keng foydalanmoqda.




**5.2-rasm. Geografiya axborot tizimlarining umumiy ko‘rinishi.(raqamli,fazoviy,joyning ko‘rinishi).**

Geografiya axborotni raqamli tarzga aylantirib va uni saqlab, idora qilsak ma'lumotlar yangi raqamli qiyofasiga ega bo'ladi. Ular boshqa axborot kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Kompyuter xarflarni, so‘zlarni, raqamlarni, tasvirlarni, kartalarni saqlab turadi va ularni internet orqali tarqatadi. Kompyuter xotirasida turlicha ma'lumotlar saqlanadi va ular raqamli ko‘rinishda bo‘lib, kompyuter ularni ko‘shishi va ayirishi, ko‘paytirishi va bo‘lishi mumkin. Harflar bo‘lsa, kompyuter ulardan matn tuzib, uni tahrir qilib beradi, matnni elektron pochta orqali qabul qiladi yoki yuboradi.

**Geografiya axborotni to‘playdigan va u bilan ishlaydigan texnologiyalarni asosiy 3 ta guruhgaga ajratish mumkin:**

1. Global pozitsionli tizim (Global Positioning System GPS). Yer atrofida aylanib turgan so‘n’iy yo‘ldoshlardan iborat bo‘lgan tizim yuqori aniqlikdagi signallarni tarqatib turadi. Ular maxsus qabul qiluvchi vositalar yordamida yerda qabul qilinadi va joyning koordinatalarini o‘lchashga yordam beradi.
2. Masofadan turib ma'lumot to‘plash tizimi. Yer atrofida aylanib turgan sun’iy yo‘ldoshlardan atmosfera va yer yuzasi to‘g‘sholiida ma'lumotlar to‘planadi. Bunday yo‘ldoshlar xilma xil va ularda o‘rnatilgan asboblar nur-ning turli spektrlarini qayd etib, ko‘p foydali ma'lumot olish imkoniyatga ega. Yerga ushbu signallar etib borgach ular raqamli ko‘rinishga keltirilib saqlanadi va turli tashkilotlarga tarqatiladi.

**3.** Geografiya axborot tizimlari (Geographic information system GIS). Geografiya axborotni kiritish, saqlash, qayta ishlash, chiqarish va tarqatish uchun mo‘ljallangan maxsus axborot tizimidir. Geografiya axborot tizimlarida kompyuter va boshqa texnikaviy vositalar, ma’lumotlar, foydalanuvchi bir biriga bog‘liq ushbu tizim dan turli xil masalalarni yechishda, qarorlar qabul qilishda va turli islohotlarni amalga oshirishda yordam beradi. Geografiya axborot tizimlari axborot tizimlarining maxsus turi va boshqa axborot tizimlar kabi ma’lumotlar bazasida saqlanib turgan axborotni ko‘shish, ayrish, topib berish, tahlil qilish ishlarini bajaradi.



### 5.3-rasm. GISning beshta tarkibiy qismi

#### Geografiya axborot tizimlarni ta’riflaydigan bo‘lsak bunda albatta ikkita tomoniga e’tibor beramiz:


1. Kompyuter tizimini - kompyuter, turli texnikaviy vositalar, ma’lumotlar, dastur va ular bilan ishlaydigan mutaxassislar tashkil etadi. Geografiya axborot tizimida xarita va chizmalardan olingan ma’lumotlarni kompyuter hotirasiga kiritish uchun maxsus skaner, digitayzer va chiqarish uchun maxsus printer, plotterlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

2. Geografiya axborotni boshqa axborotdan farq qiladigan tomoni shundaki u birorta koordinata tizimiga bog‘liq holda saqlanadi va qayta ishlanadi. Shunga qarab xaritadan eki aerosuratdan olingan ma’lumot albatta koordinata tizimi bilan birgalikda kompyuterga kiritiladi va saqlanadi.

Raqamlı ko‘rinishi

Fazoviy ko‘rinishi

Joyning ko‘rinishi



### 18-rasm. GISning 3 xil ko‘rinishi<sup>18</sup>

Qishloq ho‘jaligida geografiya axborot tizimlaridan foydalanish misollari ham juda ko‘p va daladagi ishlarni rejalashtirishda, o‘g‘it va kultivatsiya ishlarini olib borishda ularning axamiyati ma’lum. Bunday usullar aniq qishloq ho‘jalik texnologiyasi deb nomlanadi.

**GPS haqida umumiyl ma’lumotlar.** *GPS tizimi harbiylarga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘p harbiy maqsadlarda, ayniqsa dengiz navigatsiyasi va geodeziyada qo‘llash imkonи topildi. Hozirgi vaqtida geodezik o‘lchashlarda sun‘iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlari keng qo‘llanilmоqda. Bu tizimlar kosmik va yer usti mexanik vositalar kompleksidan, yer sferoidi sirtidagi ob‘ekt o‘rnini aniqlash uchun dastur ta’minoti va texnologiyasidan iborat. Sun‘iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlarini katta hududlar topografik s‘yomkalarni bajarishda planli-balandlik asosni rivojlantirish uchun qo‘llash maqsadga muvofiq. GPS to‘la tarkibi quyidagi uchta turli segmentlardan iborat:*

- Kosmik segment 24 ta sun‘iy yo‘ldoshlardan tashkil topib, ular o‘z orbitasi bo‘yicha taqriban 20200 km balandlikda uchib har 12 soatda bir marta yerni aylanib chiqadi.

### Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni qo‘llash uchun soya navlarining sug‘orish tartiblari bo‘yicha yetishtirish texnologiyasini FAO Aqua Crop dasturi bazasi ma’lumotlari

O‘zbekiston Respublikasi dunyo mamlakatlarda orasida suv bilan eng kam ta’minlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi, hozirgi paytda Respublika aholisi sonining jadal o‘sib borishi, yer va suv resurslarining cheklanganligi, mintaqa iqlimning yanada quruqlashib borayotganligi, tuproq unumдорligi pasayib borishi, yetishtirayotgan qishloq xo‘jalik ekinlarining o‘sish, rivojlanish, hosildorligi va mahsulot sifatiga hamda ularning iqtisodiy rentabellik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

<sup>18</sup> Инженерное командование сухопутных войск США Обмен ГИС информацией 2004 г. таддимотидан олинган

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda zamonaviy sug‘oriladigan dehqonchilik tizimida yetishtiriladigan har bir ekin turi va navlarini mintaqaning iqlim, tuproq, gidrologik, hidrogeologik, ekologik meliorativ holatlarini hisobga olgan holda joylashtirish ularni ilmiy asoslangan texnologiyalar bo‘yicha yetishtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu dolzarb muommalarini hal qilishda har bir ekin turini zomonoviy model’shtirilgan resurs tejamkor texnologiyalar asosida yetishtirish talab qilinadi. Shunday modelardan biri FAO tamonidan tavsiya qilingan.

### **Aqua Crop modeli.**

Qishloq xo‘jaligi ekinlarni yetishtirish texnologiyalarini modellashtirishdan maqsad:

ilmiy tadqiqod va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ishlab chiqarish yutuqlarini chuqur tahlil qilish hamda maql (optimal) yechimini topish;

maqbul (optimal) agrotexnologik yechmni ishlab chiqish va amalga oshrish (qishloq xo‘jaligi ekin turlarni, navlarini iqlim-tuproq, eko-meliorativ, hidrogeologik, gedrologik sharoitlar bo‘yicha optimal joylashtirish, ularni yetishtirish texnologiyalarini o‘z muddatida, aniq me’yorlar va o‘lchalarda amalga oshrish);

qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini rejalashtirish va boshqarilishni tahlil qilish.

### **Aqua Crop modeli yordamida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:**

1. Suv tanqis bo‘lgan sharoitda qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini bashoratlash.
2. Har bir konturlarda yetishtirladigan ekinlarni rejalashtirilgan va amalda olingan hosilni o‘zaro taqqoslab, tahlil qilish, sabablarini aniqlash, yechimini topish.
3. Tabiiy omillarga bog‘liq holda ekin turlari bo‘yicha yuqori hosil va mahsulot sifatini kafolatlaydigan sug‘orish tartiblarini (sug‘orish soni, muddati, me’yorlari) ishlab chiqish.
4. Tabiiy suv ta’minti kam bo‘lgan yillar va mavsumlarda qishloq xo‘jalik ekinlari uchun o‘zgaruvchan limitli sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish.
5. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlarni almashlab va navbatlab ekish tizimlarida hosildorlik ssenariyalarini tuzish.
6. Cheklangan suv ta’minti mavjud bo‘lgan fermer xo‘jalik yerlarida qishloq xo‘jalik ekinlari bo‘yicha suvdan almashlab (vodaoborot) foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish.
7. Suv tejovchi texnologiyalar va usullarni (tomchilatib, yomg‘irlatib, pylonka to‘sab, mulchallash va h) qo‘llash uchun maqbul sug‘orish tartiblarni ishlab chiqish. Yuqorida keltirilgan talablarni amalga oshrish uchun mintaqalarning

iqlim, tuproq, gidrogeologik, hidrologik sharoitlari, ekinlar turi, navi va ularning biologik xususiyatlari, ekinlarni yetishtirish texnologiyalari suv ta'minoti, tuproq va o'simliklarni suv rejimlari, ekinlarni suvga bo'lgan talabi, suvga talabning mavsumiy o'zgarishlari, o'simliklarga turli tabiiy stresslarning ta'siri va hakozalar bo'yicha aniq ilmiy ma'lumotlar zarur bo'ladi. Tajriba maydonida o'rganilgan soya navlaridan O'zbekiston-2 va Oltintoj navlarni sug'orish tartiblarni Aqua Crop modeli bo'yicha dasturlash uchun ma'lumotlar bazasi yaratildi. Aniqlangan dasturlar bazasi jadvalda keltirilgan.

19-jadval

### **Soyaning O'zbekiston-2 va Oltintoj navlarini sug'orish tartiblarini Aqua Crop dasturiga kiritish baza ma'lumotlari.**


Nº	Ko'rsatgichlar nomi	Parametr turlari	Baza modeliga kiritilgan ma'lumotlar
<b>1. Havo harorati (o'suv davri bo'yicha)</b>			
1	Minimal harorat	konservativ	12 °S
2	Maksimal harorat	konservativ	38 °S
<b>2. Yashil biomassa to'planishi</b>			
1.	90 % urug'ni unib chiqqan davrida maysalarning yer yuzasini qoplanish darajasi (sm <sup>2</sup> /tup)	konservativ	5,0-7,0
2.	Ko'chat soni	agrotexnika	380000-400000
3.	Urug'ni ekish va unib chiqish davridagi samarali havo harorati	agrotexnika	10-80
4.	Biomassa vujudga kelish koefitsienti	konservativ	0,006-0,008
5.	Er yuzasini biomassaga bilan maksimal qoplanishi, %	agrotexnika	90
6	Urug'ni unib chiqishdan, o'suv davrini tugashigicha bo'lgan vaqt (soya navlari barglarining jadal to'kilish davrgacha)	navning biologik xususiyati	95-100
7.	Biomassa tuplanishini kamaysh koefitsienti	konservativ	0,002-0,003
8	Umumiy usuv davrining davomiyligi kun	nav	125
<b>3. Soyani gullah davri</b>			
9.	Ekishdan-gullahgacha bo'lgan davrda	nav	700
10.	Gullah davri davomida	nav	1200
11.	Dukkaklarni shakilanish-tugallanish davri	konservativ	-
12.	Dukkaklarni shakillanish tezligi darajasi	konservativ	yuqori
<b>4. Ildiz tizimini rivojlanishi</b>			
13.	Minimal ildiz tarqalish chuqurligi, m	agrotexnika	0,30
14.	Maksimal ildiz tarqalish chuqurligi, m	agrotexnika	1,5
15.	Faol ildiz tarqalgan qatlama chuqurligi, m	konservativ	1,0

16.	Ildiz unib chiqqandan maksimal chuqurlikdagi tarqalish vaqt (tezligi)	nav va tuproq-ekologik omillar	1,2-1,3 sm/sut
<b>5. Transpiratsiya</b>			
17.	Soya ekining maksimal biomassas to‘plash davridagi koeffitsenti (qarish davrigacha)	konservativ	1,10
18.	Tuproqda o‘g‘itlarni yetishmasligi ta’sirida o‘simlikni rivojlanish koeffitsientini kamayshi	konservativ	0,30
19.	O‘suv davri oxrida tuproq yuzasidan bug‘lanishga o‘simlik biomassasini ta’siri, %	konservativ	60
<b>6. Suvning samaradorligi</b>			
20.	Gullashgacha YeT <sub>o</sub> va SO <sub>2</sub> uchun (g/m <sup>2</sup> ) optimal suv samaradorligi	konservativ	25
21	Gullash, dukkaklarni shakillanishi va pishish davomida YeT <sub>o</sub> va SO <sub>2</sub> uchun optimal suv samaradorligi	konservativ	75
<b>1. Hosil indeksi</b>			
22.	Nisbiy hosildorlik (rejada)	nav imkoniyati	25-30
23.	Hosilni vujudga kelish davomiylgi (o‘simliklar ko‘chatlardagi yashil biomassa 10-qolguncha davom etadi)	nav imkoniyati	10
24.	Soya navlarini gullashgacha suv yetishmasligi ta’sirida hosilni ko‘payish	konservativ	past
25.	Gullash va dukkaklarni shakillanish davrida barg labchalarining yopilishi ta’sirda hosilning kamayish koeffitsenti	konservativ	o‘rtacha
26.	Hosil to‘planish davrida O‘simlikning jadal vegetativ o‘sishni (g‘ovlash) cheklanganligni hosil indekisiga ta’sir koeffitsenti	konservativ	past
27.	Hosilni oshirish imkoniyatlari, %	konservativ	20-30
<b>2. Stresslar</b>			
1.	Biomassa to‘planishi uchun tuproq namligini yuqori chegarasi	konservativ	0,20
2.	Biomassa to‘planishi uchun tuproq namligni quyi chegarasi	konservativ	0,70
3.	Biomassa to‘planishi uchun suv stresi koeffitsenti	konservativ	3,0
4.	Barg ustitsalarini ochilish va yopilishi uchun namlikning yuqori chegarasi	konservativ	0,70
5.	Barg ustitsalarini ochilish va yopilish uchun suv stresi koeffitsenti	konservativ	2,5
6.	Maksimal biomassaga to‘planish (barglarga)	konservativ	0,75

	qarshi davrda) namlikning pasayshi (yuqori chegarasi)		
7.	Maksimal biomassa to‘planish davrida suv stresi koeffitsenti	konservativ	2,5
8.	ET <sub>0</sub> -Evopotransperatsiya stres davrida	konservativ	0

## ***MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR***

Talabalar “Klaster” organayzerini tuzish qoidalari bilan tanishadilar va amaliy mashg’ulotda olgan bilimlariga asoslanib tarmoqli klasterni to’ldiradilar.



Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv tahtasi yoki kata qog’z varag’ning o’rtasiga asosiy so’z yoki 1-2 so’zdan iborat mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo'yicha asosiy so’z bilan uning yonida mavzu bilan bog’liq so’z va takliflar kichik doirachlar “yo’ldoshlar” yozib qo’shiladi. Ularni “asosiy” so’z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu “yo’ldoshlarda” “kichik yo’ldoshlar” bo’lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g’oyalar tugaguncha davom etishi mumkin.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

### **Nazorat savollar**

1. Raqamli axborotni bir xil tarzda kayta ishlash deganda nimani tushunasiz?
2. Raqamli ma'lumotlarni qanday yaratiladi?
3. Internetda kerakli ma'lumotlarni izlash va tarqatishning qulay usullarini ako'rsatib bering?
4. Raqamli axborotni tasvirga qanday aylantiriladi?

5. Kayta ishslash tezligini va samaradorligini oshirish deganda nimani tushunasiz?

### **Tavsiya qilingan adabiyotlar**

1. Artukmetov Z.A., Allanov X.K. Sug‘orishning yangi texnologiyalari va undan foydalanish. – T.: Toshkent Davlat agrar universiteti, 2010. – 116 b.
2. Nazarov N, Mirzajonov K, Ibragimov O, Isaev S Dehqonchilikning tejamkor texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T. 2014 yil 179 bet.
2. Egamberdiyev O., Nurbekov A. How to reduce spending and improve harvests, journal – Land Energy biodiversity. 3-6 page, Newsletter № 5. 01.12.2014 y.
4. Shamsiev A., Bezbarodov G.A., Esanbekov Yu. “G‘o‘za va kuzgi bug‘doyni sug‘orishning suv tejovchi texnologiyasi”. PSUEAITIning xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Toshkent, 2006 y. 315-317 b.
5. Qoraboeva T.M. G‘ofurov Axborat tizimlari (GAT) dan foydalanish.O‘quv uslibiy qo‘llanma. T. 2019

### **Internet saytlari**

1. <http://www.TSAU.uz>
2. <http://www.grida.no./aral/>
3. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz)
4. Agrosoil/uz@gnail.com

## KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR:

### 1-Mavzu: Begona o‘tlarga qarshi uyg‘unlashgan kurash choralarini ishlab chiqish

- 1.Begona o‘tlarning sug‘oriladigan va lalmikor yerlarda tarqalgan turlari.
2. Begona o‘tlarni tarqalish darajasini aniqlash usullari.
- 3.Begona o‘tlarga qarshi kurash choralar (agrotexnik, kimyoviy va uyg‘unlashgan).

*Ko‘chma mashg‘ulot o‘tkazish tartibi amaliy mashg‘ulotlar mazmuni qismida keltirilgan: Ushbu mashg‘ulotda ko‘p tarqalgan begona o‘tlar haqida ma’lumot berib tinglovchilarni ko‘chma mashg‘ulotda belgilangan ob’ektda olib boramiz.*

**Tayanch so‘zlar:** Begona o‘tlar, turlari, ekin maydonlari, ekin turlari, kurash choralar.

#### 1.Begona o‘tlarning sug‘oriladigan va lalmikor yerlarda tarqalgan turlari.

##### 1.1.Sug‘oriladigan yerlarda o‘sadigan bir yillik begona o‘tlar.

O‘zbekistonning haydaladigan yerlarida, xususan g‘o‘za, bug‘doy, sabzavot dalalarida bir yillik o‘tlarning 520 ga yaqin turi, uchraydi. Shulardan asosan 20 yaqin turi ekinlar orasida ko‘proq o‘sadi. Sug‘oriladigan yerlarda *Olabuta, oq sho‘ra, Cyhenopodium album L., Qora kurmak, oddiy kurmak, shamak - Ehinoehloa crugalli L., Sholisimon kurmak, govkurmak, devkurmak – E. Oryzoides (Ard) Koss. Ko‘k itqunoq - Staria viridis. Malla qo‘noq, it qo‘noq, oq it qo‘noq - S. Vtrticilata (L) P. B. Qora ituzum – Solanum nigrum L. Qizil (sariq) ituzum- S. olgae pojark. Yovvoyi gultojixo‘roz, qayrilgan tojixo‘roz, eshaksho‘ra, machin.- Amarathus retroflexus. Semizo‘t -Portulaca oleraceae L. Oddiy bangidevona, besh bug‘doy - Datura stramonum. Teofrast dag‘alkanopi, dag‘alkanop- Abutilon avicennae L., Bir yillik shuvoq, burgan - Artemizia annua L. Tuyaquyruq - Carduus nutans L. murukkabguldoshlar (Compositae) kabilar ko‘p uchraydi. Ikki yilliklardan Tuyaquyruq, oq karrak, qashqarbeda kabi begona o‘tlar o‘sadi.*

##### 1.2.Sug‘oriladigan yerlarda o‘sadigan ko‘p yillik begona o‘tlar.

Dala pechagi, qo‘ypechak-Convolvulus arvensis L. Pechakdoshlar oilasiga kiradi.

Urug‘dan va ildizidan bachki chiqarib ko‘payadi.

Asosiy ildizi 4-6 m gacha chuqurlikka kirib borishi mumkin. Bu o‘simlik 40 sm chuqurlikdan keyin yangi bachki bermaydi

Otquloq - Rumex L. Otquloqdoshlar oilasiga mansub, o‘q ildizli ko‘p yillik o‘t. Poyasi to‘g‘ri, shoxlangan, bo‘yi 50-150 sm. Barglari navbat bilan

Sernam joylarda, ariq bo‘ylarida, ekinzorlar chetida begona o‘t sifatida uchraydi. Otquloqning jingalak otquloq, qizg‘ish otquloq, Suriya otqulog‘i va Drobov otqulog‘i kabi turlari bor.

Salomalaykum - Cyperus rotundus L.-qiyoqdoshlar oilasiga kiradi. Uning 400 ga yaqin turi bor. Sernam tuproqlarda tarqalgan.

G‘umay - Sorgum halepense (L Brot) boshoqdoshlar oilasiga kiradi. Ildiz tizimi o‘zgargan yer osti poyalardan iborat

So‘ligan yosh novdalari tarkibida zaharli sinil kislota to‘planadi. Sug‘oriladigan yerlarda ashaddiy begona o‘t hisoblanadi.

Ajriq - Cynodon dactylon (L.) boshoqdoshlar oilasiga kiradi. Bo‘yi 10-

Ajriq asosan ildizpoyasidan ko‘payadi. Ildizpoyalarning asosiy qismi 0-20 sm qatlamda joylashgan. Ajriq hamma yerda uchraydi. U ashaddiy begona o‘t hisoblanadi

Qamish - Phragmites communis Trin. Boshoqdoshlar oilasiga kiradi.

Qamish asosan, ildizpoyasidan va qisman urug‘idan ko‘payadi

O‘rmalovchi ayiqtovon - Ranunculuc repens L. Ko‘p yillik ildizpoyali o‘t.

Ariq va soy bo‘ylarida, botqoqli yerlarda, sholipoyalarda, tomorqalarda, o‘tloqlarda o‘sadi. Ayiqtovon hayvonlar uchun zaharli.

### **1.3. *Bug‘doy dalalarida o‘sadigan bir yillik va ikki yillik begona o‘tlar***

Bug‘doy dalalarida lolaqizg‘aldoq, yulduzo‘t, ko‘k sho‘ra, olabuta, oq sho‘ra, yovvoyi suli, ko‘k itqunoq, tuyaqorin, achambiti,jag‘-jag‘, dala yarutkasi, dala tlaspi, lyozel qurtanasi, qurtana, yovvoyi supurgi, yaltirbosh, tuyaquyruq ko‘kmara, g‘ijmalos kabi bir yillik begona o‘tlar o‘sadi. Ikki yilliklardan Tuyaquyruq, oq karrak kabi begona o‘tlar o‘sadi.

### **1.4. *Bug‘doy dalalarida o‘sadigan ko‘p yillik begona o‘tlar.***

Bug‘doy dalalarida kampirchopon, oq tukli kampirchopon, kakra, qalinmevali achchiqmiya, eshakmiya, sertuk ko‘kmara, qizil choycho‘p, ajriq, g‘umay, dala pechagi, qo‘ypechak, bo‘ztikan, yantoq, otquloq kabi ko‘p yillik begona o‘tlar o‘sadi.

## **2. Begona o‘tlarni tarqalish darajasini aniqlash usullari.**

**2.1. *Begona o‘tlarni ko‘z bilan chamalab hisobga olish.*** Dalalarda o‘sadigan yovvoyi o‘simliklar ularni qurshab turgan atrof- muhit omillari bilan bevosita bog‘liq holda hayot kechiradi. O‘simliklarga ta’sir etuvchi tashqi omillar u, yoki bu turkumdagи o‘simlikni ma’lum bir arealda tarqalishini belgilab beradi. Dalalarda tarqalgan begona o‘tlarning turi va miqdoriga tuproq- iqlim sharoiti, o‘tkazilayotgan agrotexnik tadbirlar va mavjud biotik omillar ta’sir qiladi. Shuning uchun ham begona o‘tlar haydaladigan yerlarda bir tekis tarqalmagan. Ekinlar

orasida o'sayotgan Begona o'tlar biologik xususiyatlari va zarar yetkazish darajasi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Begona o'tlarning biologiyasi va tarqalishini har tomonlama ilmiy asosda o'rganish ularga qarshi kurash choralarining samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Kurash choralarini oldindan to'g'ri rejalarshirish uchun avvalo, dalalarning begona o'tlar bilan ifloslanish turi va darajasini hisobga olish lozim.

Dalalarni o't bosganlik darajasini hisobga olish ikki qismga bo'linadi. Birinchisi – Begona o'tlarning turini va miqdoriy tarkibini aniqlashdan iborat.

Begona o'tlarni ko'z bilan chandalab hisobga olish eng oson va qulaydir. Ishlab chiqarishda asosan shu usuldan foydalaniladi. Bunda akademik A.I.Malsevning to'rt balli shkalasidan foydalaniladi:

I ball-yovvoyi o'simlik bitta ikkita uchraydi (umumiyo o'simliklar qoplamiga nisbatan 5% gacha);

II ball—Begona o'tlar ozroq (umumiyo o'simliklar qoplamiga nisbatan 5% dan 25% gacha);

III ball—Begona o'tlar umumiyo o'simlik qoplamiga nisbatan 25% dan ortiq, ammo madaniy o'simliklarga nisbatan kamroq;

IV ball—begona o'tlar soni madaniy o'simliklar bilan teng yoki ulardan ko'p bo'ladi.

Dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasini tekshirish ma'lumotlari maxsus jurnalga, yakuniy natijalar esa, qaydnomaga yoziladi. Begona o'tlarni hisobga olish qaydnomasida har bir dalada qo'llanilgan agrotexnikaga to'liq tavsif beriladi. So'ng'ra har bir dalaning bir nechta joyidan diagonali bo'yicha yurib, uchragan barcha yovvoyi o'simliklarning nomi jurnalga yoziladi. Dalalarni yovvoyi o'simliklar bilan ifloslanish turi va darajasi belgilanadi. Olingan ma'lumotlar asosida har bir dalaning o't bosganlik balli aniqlanadi. Yakuniy natijalar jurnalga yoziladi va qaydnomaga ko'chiriladi.

Dalalarni o't bosganlik darajasi almashlab ekishning barcha dalalarida aniqlanadi. Almashlab ekish dalasida bir xil ekin ekilgan va bir xil agrotexnika qo'llanilgan bo'lsa, yovvoyi o'simliklarni hisobga olishga oid bitta qaydnoma tuziladi. Agar, shu dalada bir necha turdag'i ekinlar ekilgan bo'lib, turli xil agrotexnik tadbirlar qo'llanilsa, tuziladigan qaydnomalar soni ekinlar soniga qarab belgilanadi. Qaydnomada dalaning raqami, yovvoyi o'simlikning nomi va ifloslanish turi ko'rsatiladi.

**Yovvoyi** o'simliklar turini to'g'ri aniqlanganligini tekshirib ko'rish uchun har bir turdan gullab turgan begona o't gerbariysi olinadi.

Hisobga olish vaqtida nomini aniqlash qiyin bo'lgan o'simliklar uchrasa, ulardan gerbariy olinib, raqam bilan belgilanadi va aniqlangandan keyin raqam nom bilan almashtiriladi.

Dalalarni yovvoyi o'simliklar bilan ifloslanish darajasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi uchun ularning yarusligi belgilanadi.

Birinchi yarus (quyi yarus)—bo'yи madaniy o'simliklar bo'yining 1/4 qismidan ortiq bo'lmaydigan past bo'yli yovvoyi o'simliklar.

Ikkinci yarus (o'rta yarus)- bo'yи madaniy o'simliklar bo'yining yarmi va ular bilan teng keladigan o'simliklar.

Uchinchi yarus (yuqori yarus)—bo'yи madaniy o'simliklardan yuqori bo'lgan o'simliklar

Olingan ma'lumotlar jamlanib har bir dala yoki ekinzorning Begona o'tlar bilan ifloslanish turi va darajasi ballarda beriladi.

## **2.2 .*Begona o'tlarni aniq usul bilan hisobga olish.***

Ilmiy-tadqiqot ishlarida dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasi va turini aniqlashda miqdoriy-tortish usulidan foydalaniladi. Bu sermehnat ish, lekin sub'ektiv xatolarga yo'l qo'ymaydi.

Tekshirilayotgan dalaning bir nechta joyidan diagonaliga yurilib, 10-15 joyga o'lchami 50x50 sm ( $0,25\text{m}^2$ ) yoki 1,0x1,0 (1,0  $\text{m}^2$ ) yog'och ramka qo'yiladi va uning ichidagi Begona o'tlarning turlari hisobga olinadi. Maydoni 50 ga bo'lgan yerda 10 ta nuqtada 50 ga dan 100 gacha- 15 ta va 100 ga dan ortiq bo'lgan yerda 20 ta nuqtada Begona o'tlar hisobga olinadi.

Ramkaning ichiga tushmay qolgan, zararlilik darajasi yuqori bo'lgan karantin va zararli o'simliklar ham alohida qayd qilinadi. Olingan natijalar qaydnomaga kiritiladi. Qaydnomada begona o'tlar nomi va soni ko'rsatiladi. Tekshirilgan maydonning o't bosganlik darajasi begona o'tlarning soniga qarab guruhlarga bo'linadi va dona/ $\text{m}^2$  da ifodalanadi. Masalan: 1-5; 5,1-15; 15,1-50; 50,1-100 va 100 dona / $\text{m}^2$  dan ortiq. Begona o'tlarning soni alohida turlar va guruhlar bo'yicha ko'rsatiladi

Dalalarni o't bosganlik darajasini belgilashda yovvoyi o'simlikning quruq massasini hisobga olish ham muhim hisoblanadi. Buning uchun ramka ichidagi begona o'tlar ildiz bo'g'zidan kesib olinadi, xaltacha yoki paketlarga solinib quritish shkafi yoki oftobda quritiladi. Texnik tarozilarda tortib og'irligi aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar gr/ $\text{m}^2$  larda ifodalanadi

Ilmiy tadqiqot ishlarida begona o'tlarni hisobga olish variantlar bo'yicha 4 ta takrorlashda belgilangan maydonchalarda o'tkaziladi.

Dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanishini bashorat qilishda tuproqni urug'lar bilan ifloslanganligini aniqlash ham muhimdir. Buning uchun tuproq namunasi olinib, uning ifloslanganligi aniqlanadi. Tuproq namunasi burg'i yoki belkurak bilan qatlamlar (0-10,10-20, 20-30sm) bo'yicha olinadi. Namuna olingan yuza o'lchanadi, tuproq mayda (0,25mm li) ko'zli elakda yuviladi. Elakda ushlanib qolgan urug'lar va tuproqning yirik zarralari osh tuzining to'yingan eritmasiga

solinadi. Urug‘lar eritma betiga qalqib chiqadi. Ajratib olingen urug‘lar soni va turi aniqlanadi. Taqqoslash uchun begona o‘t urug‘lari kolleksiyasidan foydalaniladi.

Ko‘p yillik begona o‘tlarning ildizlari va ildizpoyalari ham hisobga olish maydonchalarida aniqlanadi. Kovlab olingen ildizpoya va ildizlar tuproqdan tozalanadi. Ifloslanganlik  $1m^2$  maydondagi ildiz yoki ildizpoyalarning vazni, uzunligi va kurtaklarining soniga qarab aniqlanadi. Olingen ma’lumotlar bir gektarga aylantirib hisoblanadi

### **3. Begona o‘tlarga qarshi kurash choralar (agrotexnik, kimyoviy va uyg‘unlashgan).**

#### **Begona o‘tni nazoratini belgilashdan oldin begona o‘tlar haqida to‘liq ma’lumot bo‘lishi kerak.**

- Oldini olish
- Tag tomiri bilan yo‘qotish
- Nazorat qilish
- Boshqarish

***Oldini olish usuli.*** Ekin maydonida paydo bo‘ladigan begona o‘tlarni oldindan tarqalishini olsa bo‘ladi. Begona o‘tlarning tarqalishini oldini olish usuli qullanilmasa begona o‘tlarga varshi xech-qanday nazorat rejasi foydali bo‘lmaydi. Bu uzoq rejalashtiriladiki begona o‘tlarni tarqalishini nazrat qiladi va iqtisodiy jihatdan ahamiyatga ega.

- begona o‘t urug‘lari bilan aralashishni oldini olish.
- aralashgan begona o‘t urug‘larini ajratish (fizik usullar bilan kattaligi, shakli, yuzasi va donadorligi)
- yuqori sifatli urug‘larni ekilishi begona o‘tlarni tarqalishini oldini oladi
- karantin qilingan begona o‘tlarni tarqalishini oldini olish zararlanmagan maydonlarga tarqalishini oldini oladi
- o‘g‘itlarga har-xil begona o‘tlarni qo‘shilishini oldini olish
